

83  
15 24

RAHIM VOHIDOV

YOG`DI O`T USTIGA  
QOR...



"ЗАРҚАЛАМ"

83

74 O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

Buxoro davlat universiteti

RAHIM VOHIDOV

# YOG'DI O'T USTIGA QOR...

(Alisher Navoiy g'azallari tahliliga  
doir majmua)



Toshkent

Mas'uliyati cheklangan ijodiy uyushma,  
«Zarqalam» 2005

10839



Hazrat Amir Nizomiddin Alisher Navoiy o'zlarining turkiy she'rlaridan tuzilgan yig'ma devonlarini "Xazoyin ul – maoniy" atab bag'oyat katta lutf qilganlar. Qo'lingizdagi majmua ana o'sha nodir xazinadan olingan ma'naviy javohirot (g'azallar)ga yozilgan sharhlar va maqolanamo talqinlardan tuzilgan. To'plam oliy, o'rtam umumiy ta'lim o'quv dargohlari, akademik litsey va kollejlarning tolibi ilmlari, o'qituvchilari, ulug' Navoiy ijodining muxlislariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

Antik dunyo Xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor  
**M.H.Mahmudov**

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**H.P.Eshonqulov;**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**N.J.Bekova;**  
filologiya fanlari nomzodi  
**Q.R.To'xsanov.**

«Zarqalam» mas'uliyati cheklangan ijodiy uyushma.  
2005 – y.



## D E B O C H A

Alisher Navoiy g'azallari haqida alohida bir kitob nashr ettirish uzoq yillardan beri yuragimda shirin orzu bo'lib yashab kelardi. Janobi rasuli Akramning yoshlariga yetgach, sarvari koinotning munavvar ruhlari qo'lladimi, kuhna niyatim amal choponini kiyadigan bo'ldi. Yillar davomida shu yo'nalishda yozilgan ba'zi ishlarimni to'pladim. Mo'jaz bir majmuaga yetadigan miqdordagi sharhlar yig'ildi. Ularni sinchiklab o'qidim. Jiddiy tahrir zarurati o'rtaga chiqdi. Ulug' ma'naviy arbobning (Alisher Navoiyning) uyg'oq ruhi poklaridan madad tilab, qo'lga qalam oldim. Tonglarga ulangan tunlar davomidagi Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy (Foniy), Xoja Hofiz Sheroziy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Amir Shohiy Sabzavoriy she'riyati bilan qilgan g'oyibona muloqotlarim samara bera boshladi. Ayrim ishlar tanib bo'lmas darajada o'zgardi, yangi saviya va qiyofa kasb etdi. Biroq bu bilan men o'sha talqinlarim kutilgan maromga yetdi, deyolmayman. Ularda norasoliklarning kuzatilishi tayin. Axir, men shunchaki xom sut emgan osiy bir bandaman — da! Beayb esa Parvardigori karim!...

Majmuani fasllarga ajratmoqchi edim. Biroq har bir g'azal va mavzu alohida — alohida sarlavhalar ostida berilgani uchun o'shanday tasnifga zarurat sezmadim. Shuningdek, ulug' shoirning turkiy hamda forsiy g'azallari sharhini ham ajratish ma'qul ko'rilmadi. Chunki o'sha satrlarning qaysi tilda ro'shnolik ko'rganligidan qat'iy nazar, ular ulug' Navoiy sohir qalamining mevasi ekanligi ko'ngilga taskin bo'ldi. "Devoni Foniy" tarkibidagi "Muxtare'" (ixtiro) g'azallarga ham ruju' qilindi, tatabbu' — g'azallar asliyat she'rlari bilan qiyosiy yo'sinda o'rganildi...

E'tiboringizga havola qilinayotgan ishlarning barchasi ham talqin — sharhlar emas. Maqola maqomidagilari ham bor. Ammo nima bo'lishidan qat'iy nazar, ular "Xazoyin ul — maoniy" va "Devoni Foniy" doirasidan chetga chiqmaydi. To'plam sahifalarida tahlilga tortilgan forsiy g'azallarining o'zbek tilidagi mazmunini berish ortiqcha ko'rindi. Negaki, ularni sharhlash va qiyosiy o'rganish jarayonida misralarning ma'no qirralarini ochishga harakat qilindi. G'azallar tahlilida takroriy talqin, ta'kid, mulohazalarning uchrashi tabiiy holdir. Masalaning ayni qirrasini

Sharq xalqlari gʻazaliyotidagi anʻanaviylikka va shartlilikka bogʻlanadi...

Bunday oʻrinlar tatabbuʻ sheʼrlar tahlili va muqoyasaviy oʻrganilishiga atalgan sahifalarda koʻproq nazarga yetishi muqarrardir. Tatabbuʻ istilohi va ayni fazilatga molik gʻazallar talqinlari oʻrin olgan betlarda zikri oʻtgan yoʻsindagi jummalarga koʻproq murojaat qilingan boʻlishi mumkin. Masalan, "Laʼl – xom xayollarni pishiruvchi otash", "Tatabbuʻ – shartli ishora", "Sittai zaruriya"da tatabbuʻ" kabi sharh – maqolalarda shunday "takror"lar koʻzga tashlanadi. Biroq oʻsha "takror"lar zamirida muayyan maqsad sifatida Alisher Navoiyning ijodiy salohiyatini qayta – qayta uqtirishday tayanch gʻoya yotadi...

Qoʻlingizdagi majmua mening ayni jabhadagi ilk qadamim. Unda nuqsonlarning borligini inkor qilmayman. Biroq Sizning xolisona, samimiy va foydali fikr – mulohazalaringizni katta umidvorlik bilan kutaman, muhtaram kitobxon!



## ALISHER NAVOIY DAHOSIGA MAVLONO LUTFIY BAHOSI

Alisher Navoiyning ma'naviy — ijodiy balog'atida yorqin iz goldirgan, qalbidan joy olgan ustozlari benihoya ko'p edi. Shulardan biri Mavlono Lutfiy Shoshiydir. Ulug' shoir bu piri komil haqida "Majolis un — nafa'is" da samimiyat bilan fikr yuritar ekan, o'sha ma'lumotnoma so'ngida quyidagilarni ta'kidlaydi: **"Bu faqir borasida ko'p fothihalar o'qubdur. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba'zi mustajob bo'lmish bo'lg'ay".\*** Hazrat Navoiy eslatgan o'sha "fotiha"lardan biri haqida zamonasining nozikta'b tarixchisi G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul — axloq" asarida shunday xabar beradi: **"Mavlono Lutfiy so'z lutfida yagonai davron edi... Oliyhzrat (Alisher Navoiy—R.V.) yoshlari endigina to'lib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatiga bordi. Lutfiy o'z nozik fikrlaringizning natijalaridan yuzaga chiqqan bir g'azalni o'qish bilan bizni bahramand qilsangiz, deb iltimos qildi, ul hazrat bir g'azal o'qidi..."\*\*.**

Alisher Navoiy yoshlik ayyomi ijodining go'zal namunasi bo'lgan o'sha g'azal — chindan ham katta iste'dodning mevasi. Mazkur she'r haqida gap boradigan barcha ishlarda uning matlai keltiriladi, xolos. Biz esa eslatganimiz she'rdan o'zimiz olgan zavqni zukko o'quvchilar bilan baham ko'rish maqsadida g'azal matnini to'la ko'chirib, imkon qadar uni mukammalroq g'oyaviy — badiiy tahlil qilishni lozim topdik. Bunday urinishning ikki muhim izohi mavjud. Birinchidan, o'rta umumta'lim maktab darslik, majmualaridan o'rin olgan va yetarli izoh topmagan bu go'zal she'r bilan ko'p sonli maktab o'quvchilarini, qolaversa, ulug' Navoiy ijodi muhiblarini muayyan zamonaviy talablarga muvofiq keladigan mufassal sharh — u talqin bilan oshno qilishdir. Ikkinchidan, yoshi saksondan oshib qolgan va Alisher Navoiyning o'z ta'biri bilan aytganda, **"malik ul—kalam"** maqomida shuhrat taratgan zullisonayn (ikki tilda asarlar yaratuvchi) shoir mavlono

\*Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 13 — жилд. Т.: "Фан", 1997. 62 — бет.

\*\*Хондамир. Мақорим ул — ахлоқ. Т.: 1967. 45 — бет.

Lutfiy tomonidan badiiy ijod olamiga jo'shqin ilhom bilan kirib kelayotgan navqiron qalamkashga berilgan yuksak bahoning haq ekanligiga qanoat hosil qilmoq uchun ham o'sha g'azalni teran nazardan o'tkazmoq zarur ekanligi o'z-o'zidan ayonlashib qoladi.

Ushbu g'azal "G'aroyib us-sig'ar" devonida 249 raqami ostida berilgan:

*Orazin yopqach, ko`zumdin sochilur har lahza yosh,  
O`ylakim, paydo bo`lur yulduz, nihon bo`lg`ach quyosh.  
Qut bir bodom—u yerim go`shayi mehrob edi,  
G`orati din etti nogah bir balolig` ko`z—u qosh.  
Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,  
Subhning bot—bot dami andoqki aylar mehr fosh.  
Bo`sae qilmas muruvvat asru qattiqdur labing,  
Desam, og`zi ichra aytur la'l ham bir nav'i tosh.  
Novaking ko`nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin  
Kim, qilur paykonini ko`nglum bila jonim talosh.  
Umri jovid istasang fard o`lki, bo`ston Xizridur,  
Sarvim, da'b ayladi ozodalig` birla maosh.  
Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,  
Gar budur mehrob, bir—bir qo`yg`usidur barcha bosh\*.*

Ko'chirganimiz g'azal mavzuyiga ko'ra oshiqona. She'rd a qo'llangan tashbihlar — an'anaviy, ammo istifoda tarzi o'ziga xos, ijodiy. Oshiqning hijron damlarida to'kkan ko'z yoshlari yulduzlarni xotirga keltiradi va ular kabi behisob. Hijron onlari — tun zulmati, visol lahzalari — oydin kun. Quyoshning yostig'iga bosh qo'yishi — yulduzli tunning asosi. Ana shu hayotiy haqiqat ishqu oshiqlik olamiga ko'chiriladi. Quyosh — sayyora, quyosh — ma'shuqa timsoli. Sayyoraning soyada qolishi — yulduzli tunni vujudga keltiradi. Ma'shuqa jamolining parda bilan to'silishi oshiqning ko'z yoshlariga boisdur. Qarang, ikki qator she'rd a shuncha gap sig`dirilgan.

"Ilhom tashbih qidirmaydi, — deb yozadi O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov, — shoir o'z she'ri bilan yonganda

\* Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20-жилданг, 3-жилд, "Фан", Тошкент — 1987, 208 — бет.



**tashbihning o'zi keladi"**. Navqiron Alisher bilan ham shunday hodisa sodir bo'lganki, buni g'azalning keyingi misralarida ham kuzatish mumkin. Ikkinchi bandning birinchi misrasida go'yo oshiqning ovqati va maskani haqida gap boradi: Oziq — ovqat bir bodom — u manzil masjid mehrobining bir go'shasi edi. Bu — she'riy qatorning yuzada qalqib turgan jo'ngina mazmuni. Masalaga jiddiyroq nazar tashlansa va she'rning oshiqona ekanligi inobatga olinsa, o'zgacha bir manzaraga duch kelamiz: bodom — ma'shuqaning qoboqlarining o'xshatilmishi, uning makoni masjid mehrobi peshtoqini eslatuvchi qayrilma qoshlari ostidadir. Oshiqqa esa o'sha ko'zlarning go'shasi bilan bir martagina qiyo boqishning o'zi har qanday ovqatdan ustundir. Ikkinchi qatorda tasvir yanada kuchaytiriladi. Insoniy — ijtimoiy obang birlashadi, tasvirlanayotgan voqealar bir shaxs taqdiri doirasidan chiqadi: Ko'z — u qosh bilan aloqador tasvir jarayoni "g'orati din" darajasiga borib yetadi. Ammo bunday urinishlar misralardagi mantiq tanosubiga, muvozanatiga qilcha bo'lsin, xalal etkazmaydi. Misrada tabiiy — hayotiy, zaminiy — osmoniy holat — hodisalarning yonma — yon tutilishi, teran mantiqiy tafakkur so'zlar va mazmunning sochilib ketishiga imkon bermaydi. Ikkinchidan, voqealarning bunday "ko'chma" tasviri o'z izohlariga ega. Shoirning asosiy muddaosini bir go'zalning qosh — u ko'zini maqtab qo'ya qolishdan iborat deb tushunish masalaga bir tomonlama yondashuv bo'lur edi. O'sha ziddiyatli, hayajonli tasvirlardan kuzatilgan bosh maqsad — ishqni (zaminii go'zal va Oллоhga bo'lgan yoniq muhabbatni) kuylash, shu vosita ila insonning o'zligini asrashga, uni hayotni yoniq ishq bilan sevishga, jannatmakon ona sayyoraning yanada ko'rkamlashuviga hissa qo'shishga undashdan iborat.

Bu fazilat g'azalning uchinchi baytida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Mazkur misralarda "ifsho" (ochish, oshkor etish), "fosh", "oh", "dam", "oy", "mehr" so'zlariga katta vazifa yuklatilgan. Iyhom san'ati shoir uchun ham, kitobxon uchun ham beminnat xizmat qilgan. Oshiqning hijron iztiroblaridan tortgan ohi va tongda tez va yoqimli esadigan shamol (mayin shabboda) o'zaro mantiqiy mutanosiblikni vujudga keltirish bilan birga fosh qiluvchilik xususiyatiga ham ega. Boshqacha aytganda,

---

\* Воҳидов Э.Шоир у шеър шуур (Адабий ўйлар). Т.: 1987, 84 — бет.



tashbehlardan biri oshiqning ishqini, ikkinchisi — tun zulmatini oshkor qilib, mehrning (quyoshning) jamol ko'rsatishiga zamin hozirlaydi. G'azalda mehr — ma'shuqa va quyoshni anglatadi. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning yuz tuzilishi va o'sha chehraning harorat ila jilolanishini quyoshga tashbih qilish an'anadir. Shunday gapni oy haqida ham aytish joiz. Oy — sayyora, oy — ma'shuqaning sifatlovchisi...

To'rtinchi baytda, zohiriy unsurlarga binoan, go'yo oshiq ma'shuqaning shahvoniy — hitsiy tuyg'ulari qalamga olinadi. Oshiq ma'shuqasidan birgina bo'sa umidvor. Biroq ushbu orzu ham xayolga aylangach, u o'z ma'shuqasini toshday qattqlikda ayblaydi. O'z navbatida, mahbuba bunday tanbeh oldida "qarzdor" bo'lib qolmaydi. Buning uchun «la'l» ko'makka keladi. La'l — qizil rangdagi qimmatbaho tosh, la'l — yor labining sifatlovchisi, shularni nazarda tutgan shoir o'zi tasvirlayotgan ma'shuqaning latofatini "oshiradi", u oshiqqa lutf ko'rsatadi va "la'l ham toshning bir nav'i"dir, deya javob qaytaradi\*. Ba'zining she'riy nafasat va nazokatini ko'tarishda shoirga iyhom hamda tajohuli orifona san'atlari ko'makka kelgan.

G'azalning beshinchi baytida ochqich — kalit vazifasini "novak" tashbihi ado etadi. Novak — kamonning o'qi. Mumtoz adabiyotda majoziy ma'noda qo'llaniladi va ma'shuqa kipriklarining o'xshatilmishi vazifasida keladi. Misralarda novakning ma'nodoshi sifatida paykon ham qo'llaniladi. Paykon — kamon o'qining uchi: O'q uchidagi temir boshuq: Ko'chma ma'noda "tikan", "kiprik"ni ham bildiradi. Baytda novaku paykon kiprik vazifasida kelgan: Ma'shuqaning kipriklari uzun, tig'iz va tim qora, bodom qoboqlari ostida kelib, ko'zning ta'sirchanlik jozibasini chandon oshirganki, oshiq uning nigohiga dosh berolmaydi. Yo'q, o'sha kipriklar kamon o'qlari kabi oshiqning yuragiga shu qadar chuqur sanchilganki, u bechoraning ko'ngli va joni hayot uchun kurash talvasisida...

Navbatdagi bayt mavzuni yanada chuqurroq ochish uchun yordamga keladi. Xastahol oshiqqa shifo yo'llari tavsiya etiladi. Misralardagi "umri jovid" (mangu hayot), "Xizr", "sarf" kabi so'z

\*Ma'shuqa labining la'la qiyoslanishi bilan rang hamda qiyamat nazarda tutilgan. Chunki bunday qimmatbaho toshning eng oliy nav'i To'g'li Badaxshonda bular ekanli, uni kulga kiritish hamмага ham nasib bulmag'an. Inchunin ma'shuqaning labi ham...

va birikmalar o'quvchi e'tiborini tortadi. Mangulik — Xizr payg'ambarning nasibasi. Rivoyatga ko'ra, bu payg'ambarga "obi hayvon" (tiriklik suvi)ni ichish nasib qilgan va shuning uchun ham u doimiy yashashga musharraf. Mumtoz adabiyotda "obi hayvon"ning manbayi — ma'shuqaning og'zi (lablari) bo'lib, Xizrga ishora orqali (talmeh san'ati) o'sha rivoyatga shama' qilinadi. Sarv — tik o'suvchi va hamisha yasharib, ko'karib turuvchi daraxt. Mumtoz she'riyatda nozik va xushbichim ma'shuqa qomatining ramzi. Mazkur misralarda oshiq oldida ko'ndalang vazifa qo'yiladi: Umri jovid kerak bo'lsa, "Xizr bo'stonining sarvidan fard (judo) bo'l". Ya'ni ma'shuqaning visoli umididan voz kech! Ravshanki, bunday jazo haqiqiy oshiq uchun bir emas, yuz karra o'limdan og'irroqdir. Maqtada oshiqning qat'iy ahdi — qasami e'lon qilinadi: Ma'shuqaning mehrobsimon qoshiga bosh qo'yish va jon berish oshiq uchun ulug' baxtdir.

Ko'rinadiki, g'azal chindan ham yuksak iste'dod va shoirona zavq bilan bunyod etilgan. Uning yaratilish davrini XV asrning 50 — yillari birinchi yarmi, deb taxmin qilish mumkinki, o'shanda Alisher Navoiy 13 — 14 yoshlarda edi. Agar "Xazoyin ul — maoniy" debochasida **"sig'ar" ayyomi** chegarasining **yetti-sakkiz-yigirma yoshlar tarzida** belgilanishini nazarda tutsak, "Orazin yopgach..."ning yaratilishi Alisher Navoiy turkiy she'riyat bobida olti — yetti yillik tajriba paydo qilgan bosqichga to'g'ri keladi. G'iyosiddin Xondamirning **"yoshlari endigina to'lib, yigitlik davri boshlangan (Xondamir balog'atga etilshning musulmon olamida asosan 14 yoshda ekanligini nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas—R.V.) paytlarida"** jumlasini ham bizning xulosamiz foydasiga xizmat qiladi. G'azal mallaidan keyin Xondamir yozadi: **"Mavlaviy janoblari (Mavlono Lutfiy SHoshiy—R.V.) bu alangali g'azalni eshitish bilan yozadi: "Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zinning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiyda bitilgan baytimni shu g'azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat hisoblardim"**.

Alisher Navoiyning mazkur g'azali juda ko'p tadqiqotchilar nazariga tushgan va u haqda turlicha mulohazalar bildirilgan. Jumladan, fors — tojik shoiri Kamol Xo'jandiyning o'zbek tilida chop qilingan she'riyati tarjimalaridan tuzilgan

\* Xondamir. Мақорим ул — ахлоқ. 46 — бет.

"Devon"iga **"Hayotbaxsh g'azallar kuychisi"** sarlavhali so'zboshi yozgan adabiyotshunos Hamid Homidiy quyidagilarni qayd etadi: "Kamolning hayotbaxsh lirikasi o'zidan keyingi tojik va o'zbek poeziyasiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Buni Lutfiy va Navoiy she'rilarida mushohada etamiz. Navoiy, masalan:

**Orazin yopqach, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
O'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lgach quyosh,**

boshlanmali g'azalini Kamol Xo'jandiyning:

**To ruh napo'shi, kay shavad az dida ashki mo ravon,  
Pinhon nagashta oftob, axtar nameoyad burun, -**  
boshlanmali g'azalidan zavqlanib ijod etgan\*\*.

Avvalo, Lutfiy va Kamol, Lutfiy va Alisher Navoiyning ijodiy munosabatlari xususida taniqli olim Hodi Zarif XX asrning 40—yillaridayoq ancha pishiq fikrlar bildirgan edi.\*\* Yuqoridagi iqtibosda esa maqola muallifining keltirilgan adabiy parchalari uning fikrini to'la quvvatlay olmaydi. Birinchidan, Kamol Xo'jandiyning g'azalidan olingan parcha uning boshlanmasi—matlai emas, balki uchinchi baytidir. Ikkinchidan, 13—14 yoshlarda bo'lgan Alisher Navoiy Kamol Xo'jandiy ma'naviy merosidan yetarli xabardor bo'lib, uning misralaridan "zavqlanib" go'zal satrlar ijod qilishga ulgurganmi? To'g'ri, yosh Alisher mumtoz she'riyat bo'stoniga Shoh Qosim Anvor ijodiyoti orqali yo'l topdi. Biroq u juda qisqa bir muddatda fors—tojik adabiyotining barcha zabardast arboblari, jumladan, Kamol Xo'jandiy she'riyati bilan chuqur tanishishga ulgurdi, deyishga aql bovar qilmaydi. Uchinchidan, Alisher Navoiy va Kamol Xo'jandiy g'azallarining matllalaridan ayonki, har bir ijodkor ishq—u oshiqlik talqinida o'z mustaqil yo'lidan borgan. Misralarda ko'zga tashlanadigan tabiiy hodisalar—quyoshning botishi bilan yulduzlarning namoyon bo'lishini na an'ana va na "zavqlanish" bilan bog'lash mumkin. Alisher Navoiy Kamol Xo'jandiyning yuqorida qayd etilgan baytidan mutlaqo xabarsiz bo'lganida ham "Orazin yopqach..."dagi rangin tasvirni chizgan

\*Kamol Хўжандий. Девон. Т.: 1962, 15—16—бетлар.

\*\*Қаранг: Ҳоди Зариф. Фозиллар фазилати. Т.: 1969. 30—85—бетлар.

bo'lar edi. Chunki Hirof osmonida ham "Quyosh botqach, yulduzlar namoyon bo'lgan" – da!

Ushbu g'azal va baytni tarjima qilishda Muhammadjon Vasfiy Kamol Xo'jandiy misralaridagi asosiy mazmuni saqlagani holda uning satrlariga shoirona sayqal berganki, natijada baytdagi ohangdoshlik "Orazin yopqach..."ga ancha yaqinlashib qolgan.

**Yuzingni yopmaguncha ko'zlarimdan oqmagay yoshim,  
Quyosh botmay turib, olamga yulduzlar ayon chiqmas.\***

Shunday qilib, Mavlono Lutfiy Shoshiy ulug' Navoiyning ilohiy salohiyatiga yuksak munosabat bildirib, unga ma'naviy – ruhiy madad bergan va uni yangi – yangi ijodiy parvozlarga chorlagan.

## G'AZAL ICHRA BIR OLAM

Alisher Navoiyning "Favoyid ul – kibar" devonidan joy olgan 28 – g'azal (Hamid Sulaymon nashri, 4 – jild, 34 – bet) uning 2600dan ziyodroq shu janrdagi turkiy asarlaridan tubdan farq qilmaydi.

Aruz vaznining **ramali musaddasi maxbuni maqtu'** (foilotun, foilotun, foilun) o'lchovida insho etilgan mazkur she'r o'zining ixchamligi bilan nazarga tashlanadi. Ulug' o'zbek shoirining aksariyat g'azallari etti, to'qqiz, o'n bir baytlidir. Tahlil uchun tanlaganimiz she'r ham o'shalardan biri. Ya'ni, yetti bayt, o'n to'rt misradan tarkib topuvchi g'azal ishq – u oshiqona ruhga moyilligi bilan diqqatni tortadi. G'azalda tarannum yetilgan ishqda orifona kayfiyat bir muncha balandlik qiladi. Aslida ishq majoziy – insoniy muhabbat va Haqqa etgan oriflar muhabbati – ishq ilohiy o'rtasida Iskandarning ya'juj – ma'jujlarga qarshi bunyod qilgan ramziy devorini qo'yish to'g'ri emas. Ulug' shoir o'rinli ta'kid qilganidek, ular satrlarda yonma – yon yashaydi. Aniqrog'i, biri – ikkinchisini taqozo etadi, to'ldirib, takomiliga etkazadi. Biroq hazrat Alisher Navoiyning qat'i uqtirishicha, ulkan bir shartning o'sha ikki ishq o'rtasida ko'ndalang turishi muhabbat talqinidagi turfa tasvirlarga sababdir. Inson taqdirining

\*Камол Хўжандий. Девон. 285 – бет.

hamma jabhalarida ko'zga tashlanadigan **ishq jazavasida pok niyat, pok qalb, pok so'z, pok ko'z, pok e'tiqod** amal qilsagina ishqi majoziy haqiqiy ishq maqomiga ko'tarila oladi. O'shandagina yuqorida eslatganimiz tasniflarga ehtiyoj sezilmaydi. Sharq xalqlari mumtoz adabiyoti namoyandalari, jumladan, Alisher Navoiy g'azaliyotiga doir ajratishlar orifona, oshiqona, rindona, qalandarona esa o'ta nisbiy tushunchalardir. O'tmish she'riyati bo'stoniga qadam bosgan har bir muxlis o'z mayli va zavqi nuqtai nazaridan o'sha g'azallarga yondashadi, ulardan qalbiga moyil tuyg'ularnigina ilg'ab oladi. She'rxon nigohida sehr va hissiyot baland kelgan lahzalarda satrlarga singdirilgan nozik ishoralar aniq nazarga tashlanmasligi, e'tibordan soqit qolishi ham mumkin. Ayrimlarigina aytilgan mulohazalarni dalillash uchun va'da qilingan g'azal matnini to'la ko'chiramiz.

**Yorlardin qilibon ram go`yo,  
Bo`lding ag`yorga hamdam go`yo.  
Xayli ushshoqki, mardud etting,  
Bormen ul xaylda men ham go`yo.  
Dudi oh ichra qaro kiymishlar,  
Bo`ldi ishq ahlig`a motam go`yo.  
Buki devona ko`ngul seydi pari,  
Bevafodur bani Odam go`yo.  
Girdi bolish anga xurshid o`ldi.  
Ul erur Iso, Mar`yam go`yo,  
Olam asbobi uchun g`am emagil:  
Arzimas bunchaga olam go`yo.  
Ey Navoiy, buki aylandi habib,  
Yo`qtur ul zahmig`a marham go`yo.**

G'azal ulug' shoirning radifli (go'yo) va taxallusli she'rlari sirasiga kiradi. Mazmuniga ko'ra oshiqona—orifona. Chunki unda har ikkala ishqqa ham moyillik yarq etib ko'zga tashlanadi. Butun she'r davomida "go'yo" radili misralarda ifodalangan mazmunni kuchaytirib keladi. Shuning uchun radifni she'riyatning shunchaki shakliy unsuri sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Chunki salohiyati bor ijodkor qo'lida she'rqa olib kirilgan har bir belgi yoxud so'z o'z muayyan vazifasini bajaradi. Bunday

gʻazallarda muallaq yoki betaraf turuvchi ishorani topish noimkon boʻlib qoladi. Koʻchirganimiz gʻazalda ham radif zimmasiga katta masʼuliyat yuklatilgan. U gʻazal ohangi va gʻoyaviy niyatini urgʻu bilan koʻrsatishga xizmat qilgan. "Goʻyo" zamirida gumon maylidan tashqari, muayyan bir holatni koʻra turib, koʻrmaslikka olish va uni tasmollab soʻrash tuygʻusi ham yashiringan. Mumtoz sheʼriyatda shoir tomonidan qoʻllangan bunday vosita tajohul — orif sanʼati deyiladi. Koʻrinadiki, ulugʻ shoirning shoir qalami gʻazal matlaidayoq mazmunni boʻliq yuzaga chiqaruvchi sheʼriy sanʼatlar lashkarini safga tizib qoʻyadi. Matladagi (nurning chiqish joyi; quyoshning chiqish joyi: sheʼriy asarning avvalgi oʻzaro qofiyalangan ikki qatori, misrasi) "ram" va "agʻyor" izoh talabdir. Birinchisining "hurkish, choʻchish, qoʻrqish" maʼnolari bor. Agʻyor esa (gʻayri, oʻzga, raqib) mumtoz sheʼriyatda oshiq maʼshuqalar bor joyda hozir—u nozir, ular suvini goʻyo loyqalatuvchi timsoldir. Ijod ahli esa ayni urinishlari bilan agʻyorga murojaat qilish orqali oshiq yuragiga rashk oʻtini tashlash, sevishganlar oʻrtasida muhabbat otashini shuʼlalandirishga harakat qilishgan. Ishq yonida jindak rashkning boʻlishi oshiqlik darajasini belgilashda "mahaki imtihon" (taʼmal toshi, "Muhabbatnoma" muallifi Xorazmiyning taʼbiri) xizmatini qiladi. Oshiq iltijolariga parvo qilmagan maʼshuqa goʻyo agʻyorga "qiyo boqadi". Bunday urinish, ravshanki, oshiqqa yoqmaydi va u yor payidagi sergak harakatini davom ettiradi. Baʼzan ginaxonlik ham qilib qoʻyadi. Shunday manzara tahlil qilayotganimiz gʻazal matlaida ham koʻzga tashlanadi. Oshiqning kelayotganini koʻrgan maʼshuqa atayin oʻzini koʻrmaslikka oladi va qasddan (goʻyo) agʻyorlar tomon yura boshlaydi. Mahbubaning bunday raftori oshiq nigohida qoʻrqoqlik yoxud vaʼda xiloflik bahosini oladi. Ulugʻ shoir shu oʻrinda tazod (qarshilantirish) sanʼatiga tayanadi. Maʼshuqaning oshiqdan "yuz oʻgirishi" va agʻyorga qarab yurishi" lavhalarida bu badiiy tasviriy vositaning oʻrni yorqin nazarga tashlanadi. Shu oʻrinda yana bir hodisani aytish joiz koʻrinadi. Mumtoz gʻazallarimizda deyarli yoxud hamisha maʼshuqa **jafokor**, oshiq — **jafokash** qiyofasida namoyon boʻladi. Mushohadalarimizga asos boʻlgan baytda xuddi shu manzara yorqin koʻzga tashlanadi. Yana aksariyat gʻazallarda mahbubaning oʻzi inson qiyofasida shaxsan koʻrinmaydi. Uning barcha yaxshi — yu yomon jihatlari haqidagi mulohazalar oshiq

tilidan xabar beriladi. Ma'shuqaning jafokorligi esa o'z izohlariga ega. U ishqday ulug' ilohiy tuyg'uga engil—elpi qarashni istamaydi. O'ziga munosib va vafodor yor tanlash ilinjida barcha ruhiy qiynoqlarga dosh beradi. Ishqning og'ir hijroni va murakkab ruhiy azoblarini oshiqning boshiga ham soladi. Ayni iztirobli jarayonlar ishq ahlini ikkiga — bardoshli, bosiq hamda qo'nimsiz, bulhavas oshiqlarga ajratib qo'yadi. Alisher Navoiy talqinidagi aksariyat oshiqlar o'sha tasnifning birinchi guruhiga mansubdir. Bugun ishqni ishrat, shahvoniy nafsini qondirish manbaiga aylantirgan bulhavas "oshiqlar" (inchunin shunday ma'shuqalar ham) ulkan suv oqimi yuzasiga qalqib chiqqan ko'piklarday ko'zga tashlanayotganligi tufayli tirik yetimlar ko'pymoqda...

G'azalning ikkinchi baytida alamzada va jabrdiyda oshiqning ginaxonligi davom etadi. u o'zini oshiqlar xaylidan — to'pidan haydalganligidan shikoyat qiladi. Uchinchi baytda she'r qahramonining ichki kechinmalari keskin tus oladi, aniqrog'i, yanada chuqurlashadi. Ishq hijronining iztiroblari ushshoqqa qora kiyim kiydiradi. Ular motam libosida. Ulug' shoirning sehrli qalami o'quvchini hayratga soladigan darajada g'oyat murakkab manzaralar tasvirini chizadi. Aslida oshiqlar libosining qoraligi motam tufayli emas. Ular o'zlari tortgan so'ngsiz ohlarning dudiga bo'yolib shu qiyofaga kirib qolganlar. Satrlarda qo'llangan o'ta mubolag'a san'ati muallif muddaosining ravshan ro'yobga chiqarishda qo'l kelgan. Zikri o'tgan lavhalar misralarda tasvirlangan voqealar makoniga ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Ulug' shoirning chizgilari muayyanlikdan mavhumlikka, yerdan samoga qarab yuz tuta boshlaydi. Oshiq uyining mo'risidan sizib chiqayotgan tutun samoga qarab o'rlaydi va osmonni qoplaydi. Falakdagi yog'du zulmat ichra yo'qola boradi. Yuzaga kelgan bunday hayratangiz manzara er yuzasida yurgan insonlar uchun ham izzsiz ketmaydi. Vahimali tutun barcha narsani o'z domiga tortgani va hamma yoqni qoraga bo'yagani uchun ham ular qorayib ko'zga tashlanadi. G'azalda radif bo'lib kelgan "go'yo" o'z vazifasini o'tay boshlaydi. Zulmatga hamrang qiyofadagilarning dilini hijron uqubatlari xufton qilgan. Ular go'yo motam libosiga burkanganlar. Biroq bundan ajablanmaslik lozim. Chunki qora rangdagi libos oshiqlar uchun ziynatdir...

To'rtinchi baytda Yer qo'zali va rivoyatlar orqali tasavvurdagina namoyon bo'luvchi afsonaviy hur — parilar bilan yonma — yon qo'yiladi. Yana tajohul — orifga, bilib — bilmaslikka



olish san'atiga murojaat etiladi. Ma'naviy san'atlar sirasiga kiruvchi tajohul – orif ijodkorlar muddaosini yuzaga chiqarishda qo'l keladi. Alisher Navoiy ham bu san'atning o'sha imkoniyatidan juda unumli foydalangan. Radif vazifasida kelgan "go'yo" aytganimiz badiiy – tasvir vositasi (san'at) foydasiga xizmat qilgan. She'rning qahramoni – oshiq o'z ko'ngli bilan qinaxonlik qiladi. Hur – parilarga moyillik ko'rsatgani uchun oshiq o'z yuragini "devonalik"da ayblaydi. Muallif nozik qochirim ila Odam Ato naslidan bo'lgan Yer go'zali tabiatidagi va'da xiloflikka ishora qiladi. Aslida esa mahbubaning yuragi ham ishq otashi alangasidan xoli emas. U ham o'sha ilohiy ne'mat olovida yonadi. Ammo, hayo va ibo, sharqona nazokat va iffat uning bardoshini toblantiradi. O'z or – nomusini, ayollik sharafini himoya qilish uchun sabr – u bardoshga tayanadi. Boz ustiga, oshiqni imtihondan o'tkazish, undagi muhabbatning rostligiga ishonch hosil qilish ishtiyoqi ma'shuqani yanada irodali, mustahkam bardoshli bo'lishga undaydi. G'azalning to'rtinchi bayti yer – u osmonni bir – biriga ulagan bo'lsa: beshinchi bayt orifona – ilohiy ruhni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Buning uchun ulug' shoir talmih san'atiga tayanadi. Mazkur tasviriy aslaha ijod ahliga tarixiy, afsonaviy, ilohiy voqea – hodisalar, hikoyat va rivoyatlarga murojaat qilish imkonini yaratadi. Yana turfa mazmun hamda g'oyaviy yo'nalishdan tarkib topgan asarlardagi qahramonlar taqdiri, voqealardan ham chimdim ishoralar olish huquqini beradi. Ana o'sha kichkina ishora orqali shoir katta hayotiy – ruhiy manzarani aks ettirishga erishadi. Ta'kid etganimiz baytda ham ayrimlari aytilgan hodisalar mavjud. Unda Iso payg'ambar va uning volidai muhtaramasi Bibi Maryam bilan aloqador voqealarga shama' qilish talmihni yuzaga chiqargan. Maryam – Iesus Xristosning onasi. "Injil" hamda "Qur'on"dagi ta'kidlarga ko'ra, u turmush qurmay, erkak zoti bilan yaqinlik qilmay, ilohiy nurdan homilador bo'lgan va Iso payg'ambar dunyoga kelgan. Shuning uchun nasroniylar o'z payg'ambarlarini xudoning o'g'li tarzida ham talqin qiladilar. Aslida unday deyish Allohga shirk keltirish bilan barobardir. Qur'oni karimning "Ixlos" surasi xabar beradiki, **Alloh tug'magan, tug'dirmagan, Azaliy hamda Abadiy mo'jizadir.** Shundan bo'lsa kerak, islomiy ta'limalotga ko'ra, Iso payg'ambar ham alayhissalom, uning tug'ilishi bilan bog'liq voqealarni Ilohiy

Qudratning mo'jizasi sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Qur'oni karim "Ol-imron" surasining qirq ettichi oyatida bu haqda yoziladi. "...Maryam: "Parvardigorim, menga odamzot tegmagan bo'lsa, qayoqdan menda farzand bo'lsin?"—dedi. Oллоh aytdi: "Shunday Oллоh uni xohlagan narsasini (o'zi xohlagan suratda) yaratadi. Qachon biron ishni iroda qilsa unga: "Bo'l!"—deydi. Bas, bu ish bo'ladi". O'sha oyati karimadagi ta'kidga ko'ra, tug'ilajak farzandning ismi sharifi "Al Masih binni Maryam" bo'lishi oldindan bashorat qilingan. Uning beshikdayoq so'zlashi, unga payg'ambarlikning nasib qilishi, Ilohiy kitobning (Injil) nozil bo'lishi, nafasining o'liklarni tiriltirish qudratiga ega ekanligi ham eslatganimiz bashoratlar sirasiga kiradi. Mumtoz adabiyotda yor labiga nisbatan qo'llaniladigan "Masiho dam" va shu bilan bog'liq iboralarning manbai esa ana o'sha oyati karimadagi ilohiy jumladir. Muqaddas Ilohiy kitobning "Ol-imron", "Niso", "Moyda", "Maryam", "Mo'minlar", "Saf", "Taqrin" suralarining bir qator oyati karimalarida Bibi Maryam va uning suyuqli farzandiga doir ibratli hikmat va xabarlarini o'qish mumkin. G'azalning beshinchi baytida yana an'anaviy ishqiy voqealarga ishora ketadi. Ma'shuqaga baxt kulib boqdi. Bibi Maryam singari Quyosh ko'rdi. Ya'ni yor vasliga vosil bo'ldi. Biroq sanalgan lavhayu manzaralar aslida sodir bo'lgani yo'q. "Go'yo" yordamida oshiq shularga pisanda qilayotir. Masalaning botiniy jihatiga qaytadigan bo'lsak, ulug' shoir Qur'oniy g'oyalarni targ'ib qilishdan tashqari, ishqning ilohiy ne'mat sifatida insonga inoyat qilinganligini satrlar mag'ziga singdirishga muvaffaq bo'lgan.

Oltinchi baytda nasihat mayli kuchli. Dunyo va uning mol—mulki mehr qo'yishga arzimaydi. Yuzaki qaraganda, bu gaplarning ishqqa daxlli yo'qday tuyuladi. Mazkur bayt yaxlit g'azal "badanida" begonasirab turganday ko'rinadi. Satrlarning ohangiga jiddiyroq quloq solinsa, manzara mutlaqo o'zgaradi. Ulug' shoir mavzuga teran nazar solgani uchun ataylab satrda "asbob" so'zini qo'llaydi. Holbuki, "olam asbobi"ning tarkibiy qismlaridan biri ishqdir. Oshiq hamma narsadan kechishi mumkin, ammo jismu joniga payvand pok tuyg'u—ishqdan bir lahza ham o'zini xoli tasavvur qila olmaydi. Bu o'rinda ishq ko'p qirrali tushuncha sifatida nazarga yetadi. Maqta'—oxirgi qo'sh misra shunday xulosaga kelish huquqini beradi. "Tabib ayturki,



ey nodon, bu darding bedavo derlar" baytini hirgoyi qilishni kushi ko'ramiz. Ammo, hamma vaqt ham uning mohiyatiga chuqurroq e'tibor qilmaymiz. Tahlil qilayotganimiz g'azalning mohimaviy baytida ishq va uning iztiroblariga aloqador yakuniy ma'no mujassam. Lekin ulug' shoir bu o'rinda dard manbai — bolakorini aniq ko'rsatadi. U — habib. Bu birgina so'zning talqinlari ko'p. Uni "yor, do'st, suyuqli, hamdam" kabi rangba — rang ma'nolarda qo'llash mumkin. Baytda ham so'zning ana shu jilolari ko'zga yaqqol tashlanadi. Habib — ma'shuqa, habib — Ollloh. Har ikkalasi ham oshiqdan yuz o'girsas, uning bag'rida paydo bo'lgan yaraga shifo bo'luvchi da'vo topilmaydi. Shundan bo'lsa kerak, zakovatli xalqimiz **"Yigitdan xudo qaytmasin"**, — deya munojot qiladi...

Shu o'rinda ishq va ma'rifatning yonma — yon turishini ta'kidlashni istar edik. To'g'ri, satrlarda mazkur so'z ko'zga tashlanmaydi. Ammo zarofatli ulug' shoir ishoralar yordamida, orillikka shama' qilish orqali o'sha hayotbaxsh g'oyalarni satrlar bag'riga singdira boradi. Ishaq faqat o'ldim — kuydimdangina iborat emas. Bolaligida **"Chor kitob"**lar orqali savod chiqargan Alisher Navoiy o'sha pandnomadagi mana bu satrlarni umr bo'yi yodida tutganligi tayin:

**Ma'rifat hosil kun, ey joni padar,  
To biyobi az xudoi xud xabar.  
Har ki orif shud xudoi xeshro,  
Dar fano bin az baqoy xeshro.  
Har ki o' orif naboshad, zinda nest,  
Qurbi Haqro loiqi arzanda nest.  
Har ki o'ro ma'rifat hosil nashud,  
Hech bo maqsudi xud vosil nashud...  
Orif on boshad, ki boshad Haqshinos,  
Har ki orif nest gardad nosipos,  
Hast orifro ba dil mehr — u vafo.  
Kori orif jumla boshad bosafos,**

("Chahor kitob", "Adib", Dushanbe — 1990, sah. 63).

Mazmuni: Ey farzand, ma'rifatli bo'lishga harakat qil. Ma'rifatli bo'lish — Xudoni bilishdir. Oriflik talabida bo'lganlar o'z



Tangrisini fanoda ko'radi. Bu esa baqoga — mangudikka yo'l ochadi. Oriflikka intilmagan banda o'likdir va uning Haq taolo oldida hech qanday qurbi bo'lmaydi. Kim umrini zoe o'tkazdi va ma'rifat egallamadi, hayotda uning hech bir maqsadi ro'yobga chiqmaydi. Orif inson Haqshunos — xudo boxabar va Egamning nazaridadir. Orif bo'lmaganlar Xudoning marhamatiga loyiq emas. Oriflar qalbi — mehr — vafo manbai. Shuning uchun ularning ishi hamisha rivoju ravnaqdadur (Forsiydan nasriy tarjima bizniki)... **Mulohaza qilib ko'raylik, bolalikning beg'ubor shuuriga singib, o'zlashib ketgan bu dono o'gitlar uni tark etadi-mi? Shunday poklik, bilimdonlik ruhida tarbiya ko'rgan odamdan o'g'ri yoxud qotil chiqadimi? Aslo! Iloho, ma'rifat nuri yurtdoshlarimiz qalbini maskan aylasin!...**

Yuqorida aytilganlar Hazrat Alisher Navoiy g'azalining ayrim qirralarini ochadi, xolos. Hali o'sha ohorli satrlarning pinhon qolgan ma'nolari ko'p. Ulug' shoirning o'zlari turkiy tildagi she'riy guldastalarini "Xazoyin ul — maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") atab ulkan marhamat qilganlar. O'sha bebaho ma'naviy xazina bag'ridagi nodir javohirlar bizning kelajak avlodimizga ham tatigulikdir...

## ISHQ — BEDAVO DARD...

/ Ma'lumki, mumtoz she'riyatning bosh mavzuini otashin ishq — muhabbat madhi tashkil qiladi. Alisher Navoiy muhabbatni oddiy insoniy muomala — munosabat doirasida cheklashga tarafdor emas. U bu mavzuni katta ijtimoiy hodisa sifatida tushunadi va talqin etadi. Alisher Navoiy tasviricha, ishq dardiga muhtalo bo'lish — halovatdan, rohat — farog'atdan kechish demakdir. Yoxud visol onlarining nash'asi yonida firoq lahzalarining achchiq iztirobi, kutish daqiqalarining intizorligi — yu mashaqqati, raqiblar hujumiga bardosh berish azoblari turadi. Ulug' o'zbek shoiri tasviridagi she'r qahramoni — oshiq ana shu murakkab ruhiy jarayonning barcha sinovlaridan o'tish uchun o'zini kamarbasta deb biladi / Shoirning ayni ana o'shanday xususiyatga molik mana bu forsiy she'rini olib ko'raylik:

**Mo ba kujo, zuhdu ibodat kujo?**  
**Mast kujo, taqviyu toat kujo?**  
**G`uncha ba zahm astu dilam dardmand,**  
**Dard kujo binu jarohat kujo?**  
**Az gulu sarvam digar, ey bog`bon:**  
**Dam mazan, on orazu qomat kujo?**  
**Koni namak n-oyad, ey dil, ba kor,**  
**Go`y, ki on koni malohat kujo?**  
**Xonaqohi zuhd zi mo shud ba tang,**  
**Shoh rahi dayri malomat kujo?**  
**Shayx riyo, piri mug`on may namud,**  
**Zarq kujo, go`yu karomat kujo?**  
**Fony agar be tu naxohad hayot,**  
**Kor chu sa`b omada, toqat kujo?**

(Alisher Navoiy. Asarlar, 15—jildlik. 5—tom, 1—kitob, 22-b.)

Forsiy she'rlarning nasriy bayoni ko`rsatilgan nashrda berilgan. Xuddi shunday ish ulug` shoir asarlari yigirma jildligida ham amalga oshirilgan. Shuning uchun biz takrordan saqlandik).

Ko`chirilgan g`azal, eng avvalo, vazning musiqiy va ravonligi, ijro ohangining ustida ekanligi bilan e'tiborni o'ziga qaratadi. Shuningdek, shoir tanlangan she'riy o'lchovga mos tushadigan ohangdor so'zlarni ham topa olgan. Ushbu g`azal yashovchanligini tayin etgan yana bir omil bor. U ham bo'lsa, g`azalning shakliy unsurlariga to'la mos tushuvchi mazmunidir. Darhaqiqat, mazkur she'r bo'liq g'oyaviy mazmuni bilan ham katta ahamiyat kasb etadi. She'rning bosh mavzuini muhabbat talqini tashkil qiladi. Alisher Navoiy ushbu g`azalida tazod—qarshilantirish she'riy san'atini (tasviriy vositalar ichra etakchi) ishga solgan. She'rning boshidan oxirigacha o'sha san'at g`azal nazokatini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Shu asnodda g`azalda dunyoviy va haqiqiy ishq madhi bir—biriga yonma—yon qo'yiladi. Bunday dadil va bo'liq fikrlarning XV asrda aytilishi Alisher Navoiy yuksak tafakkur va badiiy jur'atining baladligidan dalolat beradi...

G`azalda tazod bilan tajohuli orifona san'ati qorishiq keladi. Ya'ni bilib—bilmaslikka olish, atrofda sodir bo'layotgan voqea—hodisalar mohiyatini bila turib, so'rash, o'zini

gumrohlikka urish kabilarda aytilgan tasviriy vositalar namoyon bo'ladi. She'r mavzui oshiqona — orifona. Yoxud bu masalada ham qorishqlik amal qiladi. Ishq talqinida majoziylik va haqiqiy muhabbat vasfi yonma — yon turadi.

G'azalning bosh qahramoni — oshiq. Uning "gumroh"ligi she'r nazokatu ohangdorligini oshirgan. Musiqiylik — misralar qanotida keladi. Zuhd, ibodat, taqvo, toat, mastlik singari so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanilishidan tashqari, misralardagi orifona ruhni quyuqlashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchi baytda tasvir yo'nalishi "G'uncha" bilan bog'lanib qoladi. Oshiqni dardmand qilib, yuragiga jarohat va zaxm solgan ham o'sha — G'uncha. Uchinchi baytning birinchi misrasida sarvu bog'bonga ishora ketadi. Bunda laffu nashr san'ati alomatlari ko'zga tashlanadi. Ulug' shoir tabiiy hodisalarni yig'adi va oltinchi qatorda ularning ishq dargohidagi izohini "yoyadi": Oshiq dilini dardmand etgan ma'shuqaning gul g'unchasini eslatuvchi labi, anbarday xushbo'y va dilkash orazi, nozik va xushbichim qomatidir... Shuningdek, tuz koni va malohat manbai haqidagi ishoralar zamirida ham teran zohiriy hamda botiniy ma'nolar mujassam.

Beshinchi baytdan boshlab she'rning tasavvufiy jilosi yanada quyuqlashadi. Xonaqoh, malomatiylikning shoh yo'li, riyo, zarq (aldov, makru hiyla...), kashfu karomat bilan aloqamand shama'lar o'sha maqsad yo'lida xizmat qiladi. Shu o'rinda yana bir narsaga e'tibor bermoq lozim ko'rinadi: U ham bo'lsa, irshod (pir, murid, rahnamoning muridni Haq yo'lga boshlashi) ahlining tariqatga munosabatidagi yakrang bo'lmagan qarashlaridir. Darvoqe, tasavvuf kimlar uchundir qismat va boshqalar uchun esa zarqu riyo, munofiqlikni xaspo'shlash niqobi bo'lib xizmat qilgan. Bunday manzara islom va tasavvuf tarixining hamma bosqichlarida kuzatiladi. Ulug' shoir esa bunday munofiqlikka befarq qaramagan...

Muhimi shundaki, ta'kid etilgan xususiyatga molik misralar buyuk mutafakkir ma'naviy merosi uchun onda — sonda uchrovchi parchalar jumlasiga kirmaydi. Aksincha, Navoiy — Foniylar she'riy bisotining etakchi qismini tashkil etadi. An'anaga binoan g'azal janridagi she'rlarning deyarli ko'p qismi ishq — muhabbat talqiniga qaratilgan bo'ladi. Xuddi shunday g'oyaviy maylni biz Alisher Navoiyning o'zbek va fors — tojik tilidagi she'riyatida babbarobar his etamiz. Aslida, g'azalchilikdagi ana o'shanday an'ananing Sharq xalqlari badiiy so'z san'atida uzoq

asrlar davomida ustivor bo'lib turishi ayrim "takror" va "monandlik"larning manbaidir. Shu ma'noda, necha yuz yillar davomida sayyor timsollar, tashbeh va favqulodda qayroqi iboralar she'rdan she'rga ko'chib, yashab kelgan. Xuddi shunday monandlik, umuman, badiiy so'z san'atida, jumladan, nazmiy asarlar bezagi bo'lmish badiiy tasvir vositalarini qo'llashda ham namoyon bo'ladi. Zotan shu vajdan Sa'diy va Hofizlarning g'azaliyotida qo'llangan **Masiho, Sarv** (qomat), **Gul** (yuz), **Xizr. Shayx, Zohid. Rind, Ag'yor, G'uncha, La'l** (yorning labi va og'ziga nisbatan qo'llaniladi), **Noseh** (nasihatgo'y) **Muhtasib** (shariat ahkamlari ijrosini nazorat qiluvchi), **Xonaqoh, Gul, Bulbul, Sham', Parvona** kabi talaygina obraz, tashbih vositalari, tarixiy, afsonaviy, diniy shaxs hamda aqidlar ming yildan ziyodroq tarixi bo'lgan fors — tojik va o'zbek yozma adabiyotlari taraqqiyotining hamma davrlarida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, bu an'anaviy nazmiy ashyolar bugun aruzda ijod etilayotgan asarlar tarkibida ham tez — tez namoyon bo'lib turadi...

Modomiki shunday ekan, badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lib, o'zidan salmoqligina ma'naviy meros qoldirishga muayassar bo'lgan har bir qalam sohibidan to'la ma'noda, batamom yangi uslub, mutlaqo toza kashfiyotlar, u yoki bu she'riy shakl takomili uchun jiddiy islohotlar kutish u qadar to'g'ri bo'lmaydi. Bunday deyish bilan biz necha yuz yillar davomida bunyod etilgan go'zal badiiy asarlarni bir — birining shunchaki takrori demoqchi emasmiz, albatta. Chunki har bir ijodkor (agar u chindan ham iste'dod sohibi bo'lsa) adabiyot gulshaniga kichkina bo'lsa — da, nimadir qo'shishga intilgan. Bunday izlanishlar esa ko'pincha jiddiy ijodiy natijalarga olib kelgan. Tabiatda jilg'achalar irmoqlarni, irmoqlar tutashib yirik oqimni, ayni nahrlar esa daryolarni bunyodga keltirgani singari, adabiyotda ham o'sha mayda — mayda uslubiy jilolarning tashakkuli sifatida so'z san'atidagi mutlaqo toza va yirik yo'nalishlar, u yoki bu janr ravnaqidagi jiddiy o'zgarishlar vujudga keladi. Zero, taniqli tojik adabiyotshunosi professor R.Hodizodaning mana bu ta'kidi ham badiiy jarayondagi o'sha hodisalarning e'tirof qilinishi bilan qimmatlidir: **"Men qasddan "hofizona" va "jomiyona" deyman,** — deb yozadi professor R.Hodizoda Navoiy — Foniyning forsiy merosiga bag'ishlangan tadqiqotlaridan birida, — **zero, bu**



uslubiy mayl (Foniy she'rlarida Hofiz va Jomiy g'azallaridagiday ravonlik hamda mushtarak she'riy san'atlarning uchrashi ko'zda tutiladi—R.V.) garchi ularning nazmiy asarlarida ko'p uchrasa—da, ularni shu san'atkorlargagina tegishli deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bu hodisa (ya'ni uslubiy mayllar) g'azal janri taraqqiyoti muayyan davrining mahsuli sifatida o'rtaga kelgandir" (Hodizoda R. Az guzashta va hozirai adabiyoti tojik. Sah.59. Tarjima bizniki).

Bas, shunday ekan, Naoviy — Foniyning fors — tojik tilidagi she'riyati ustida mushohada yuritganda, masalaning ana o'sha jihatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Chunki zullisonayn shoirning forsiyda insho etilgan dilbar she'riyati ham g'oyaviy mazmun hamda badiiyat nuqtai nazaridan uning o'zbek tilidagi nazmiy bisoti bilan bermalol raqobat qila oladi...

## ASHKDAN OCHILGAN G'UNCHA....

"Devoni Foniy"dagi quyidagi g'azal ham yuksak shoirona mahorat mahsuli ekanligi bilan e'tiborga loyiqdir. She'r tahliliga o'tishdan oldin uning to'la matnini ko'chirish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

Omad bahori dilkashu gulhoi tar shukuft,  
Dilho az on nashot zi gul beshtar shukuft.  
Dil az sabohati ruxi xubat kushoda shud,  
Monandi g'unchae, ki ba vaqti sahar shukuft.  
Meoyad az guli chamani ishq bo'y xun,  
Go'yo. ki g'unchahosh zi xuni jigar shukuft.  
Gar xanda zad zi giryai, chashmam, ajab madon,  
Chun abr ashk rext guli toza bar shukuft.  
Soqy, bahor shud qadaham rez lab—balab,  
Xossa, ki az shukufa chaman sar—basar shukuft.  
Z—on naxli noz xanda ba ushshoqu vasl ne,  
Hamchun gule, ki az shajari besamar shukuft.  
Fony, ajab madon agar on gul shukufta ast,  
Az ashki abrsoni tu bishukuft, agar shukuft.

Shoir she'ning ibtidosidan intihosiga qadar tabiat va yor tasvirini yonma—yon tarzda olib boradi. G'azalda qo'llangan bunday nozik mahorat undagi hayotiy ruhni, ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qilgan. Aytish lozim, zikri o'tgan maylning kuchliligi Alisher Navoiyning nafaqat ushbu she'ri, balki, uning aksariyat g'azallari uchun ham xos fazilatdir. Tahlilga tortilgan g'azalda tadrijiylik ya'ni voqealandlik ustun bo'lib, uni yuzaga chiqarishda Bahor faslida gul g'unchasining ochilishi bilan bog'liq jarayonlar muhim ahamiyat kasb etgan. Bahor—tabiatning erka, yasharish, yashnash fasli. Uning nafasidan tabiat uyg'onadi, mulki borliqdagi mavjudot harakatga keladi, daraxtlar kurtak tugadi, qushlar nag'ma boshlaydi, ariqlar suvga to'lib oqadi. Alisher Navoiy ana shunday dilkash manzaraning maftuni bo'lib, uni she'rga soladi, o'zi tuygan katta zavqu shavqni kitobxonlari bilan birga baham ko'radi. Qizig'i shundaki, shoir Bahor fasli va ishq dardi o'rtasida yaqinlik ko'radi. Shuning uchun ham satrlarda ana shu ikki tuyg'u uyg'otgan his—hayajon yonma—yon tutib, yoritiladi. G'azal qahramoni atrof—muhitni sinchkovlik bilan kuzatadi, tabiat tuhfa etgan notakror va dilbar manzaradan sarmast bo'lib, zavqu shavqqa to'ladi, dili gul—gul ochiladi. Biroq satrlardagi ana shunday shavqangez lahzalar uzoqqa cho'zilmaydi. Shoir tabiatning nafis suratini chizishga xotima beradi. Uning evaziga mavzuning ijtimoiy mohiyatini ochish, o'sha vositalar yordamida davri jarohatlarini, umuman, insonning murakkab umr yo'lida kuzatiladigan ziddiyatli lavhalarini qalamga olish yo'lidan boradi. Alisher Navoiy—zakiy va hassos ijodkor. U tasvirda balandparvoz dabdaba hamda shaklbozlikning hukm surishiga dil—dilidan qarshi qalamkashdir. Shuning uchun ulug' shoir asarlarida hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat muvozanati masalalariga ham jiddiy e'tibor qilinadi. G'azal muallifi suyuqli qahramoni — oshiq dilining ochilishini ya'ni zavqqa to'lishini, yayrashini g'unchaning gulga aylanishi jarayoniga qiyoslaydi. Gul shoxlarida tugilgan g'uncha sahar chog'ida tushgan shudring va subhidamda esgan muloyim shabboda ta'sirida ochilib, nafis gulga aylanadi. Oshiqning dili ham misoli g'uncha. Uning ochilishi uchun mo'tadil shart—sharoit zarur. Ularning barchasi esa mahbuba qiyofasida mujassam. Mahbubaning chimmatini ko'tarib, xandon chehra

bilan oshiqqa nigoh tashlashi ana o'shanday mo'tadil muhit vazifasini o'taydi. G'azalning navbatdagi baytlarida gulning qizilligi va oshiqning jigar qoni, g'unchaning ochilishi uchun "turtki" bo'lgan yomg'ir tomchilari va alamzada yigitning ko'z yoshi, mevasiz daraxt va mahbubaning iltifotsizligi ana shu yo'sinda yonma – yon badiiy tarzda yoritiladi. Bularning barchasi, g'azalning nozik nafasoti, hayotiy mohiyati va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan...

Alisher Navoiy sohir qalamining sehrli etti bayt o'n to'rt misradan tashkil topuvchi ko'chirganimiz g'azalning birinchi bandi matlaida boshlanadi. She'rning yetakchi badiiy tasvir vositasi paralellizm tabiiy va insoniy holat hodisalarning yonma – yon tarzda badiiy gavdalantirish san'ati hisoblanadi. G'azalning birinchi baytida Bahor fasli va oshiq dilining ochilishi; ma'shuqaning xandon jamoli va tongda barq urib yaproq yozgan G'uncha (2 – bayt); chamandagi gullardan muattar bo'y o'rnida qon hidining anqishi va bunda jigar qonining suv (shudring) vazifasini ado etishi (3 – band); gullarning xanda otishida ko'z yoshlarining bulutdan uzilgan yomg'ir tomchilari xossasini bajarishi (4 – band); soqiyning qadahlarni limmo – lin. qilishi va gul «kosaya»larining shudringdan sarshor bo'lishi (5 – band); zaif buttadagi pajmurda gul va vasl nasib etmagan oshiqlarning so'lg'in qiyofasi (6 – band); nihoyat xotimada aytilganlarga yakun yasaladi: Foniy, agar chamanda g'arq ochilgan gullarni ko'rsang, buning uchun ajablanma, chunki ularning (gullarning) ochilishining asosiy omili sening (oshiqning) ko'z yoshlaridir. Ravshan bo'layotirki, ulug' shoir g'oyaviy niyatining ro'yobga chiqishida yana o'nlab she'riy san'atlar ko'makka kelib, forsiy g'azal nazokatini ko'targan.

## OSHIQNI DEVONA AYLAGAN GULBADAN...

"Devoni Foniy"dagi ixtiro (muxtare') g'azallar ichida voqeaband she'rlar ham talaygina ko'zga tashlanib qoladi. Mana, o'shanday xususiyatga molik g'azallardan biri:

**Rasid on parichehra mastona imshab,  
Zi masty maro soxt devona imshab.**

**Maro kulbai bexudiyu junun shud,  
Az on partavi ro` parixona imshab.  
Chi sham'e tajalli namud on, ki megasht,  
Maloyik ba davrash chu parvona imshab.  
Zi ganji visolash imorat paziruft,  
Maro kunji toriki vayrona imshab.  
Zi shavqi man vasli o` bud nazdik,  
Ki pur sozadam charx paymona imshab.  
Ba bomu daram az pai in tamosho,  
Furo' rexta xeshu begona imshab.  
Ba in nash'ai ishqu may gasht Fony,  
Hama umr devona, tanho na imshab.**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 — jild. 1 — kitob, 102 — bet).

Ko`rinadiki, ushbu g`azalning matlaidan maqtaigacha ishqiy kechinmalar, oshiqning g`oyat to`lqinli ruhiy olami qalamga olinadi. Matlada mahbubaning mastona (ya'ni mayda qadamchalar bilan raftor qilishi) yurib kelishi, buni ko`rgan oshiqning telbalarcha sa'yu harakatlari ustida gap boradi. Ikkinchi baytda o`sha murakkab ruhiy holatning teran tasviri davom ettiriladi. Oshiqning xaroba kulbasi yor jamolidan charog`onlashib, parixona tusini oladi. Uchinchi baytda oshiq kayfiyati haqida badiiy mushohada yuritiladi. Sham' bor joyda uning atrofidan parvonaning aylanishi tabiiy holdir. Shuningdek, rivoyatga ko`ra maloikalar ham yorug`likka talpinadi. Mahbubaning jamoli yorug`idan (sham' uning ramziy timsoli) sarmast oshiq parvona — yu maloyikalar vazifasini ado etadi. Ma'shuqasi shu'lasini atrofidan kapalakday aylanadi. To`rtinchi baytda yana oshiqning xaroba kulbasi haqida gap boradi. Mahbubaning tashrif buyurishi bilan oshiqning kulbasi o`z manzarasini o`zgartiradi, ko`rkamlashadi. Beshinchi baytda g`azal qahramoni — oshiq ruhiy kayfiyatining ziddiyatli tasviri chiziladi. Oltinchi baytda oshiq va ma'shuqa visol onlarining qo`ni — qo`shnilarga ta'siri borasida badiiy mushohada yuritiladi. Odatan, xonadonda xursandchilik yoki noxush holatlar yuz bersa, qo`ni — qo`shnilar unga sherik. Aniqrog`i, ular tamoshoga tayyor. Kimdir oshikdan, ba'zilar teshikdan, ayrimlari esa tomdan o`ziga qulay joy topib, sodir bo`layotgan voqea — hodisalarni kuzatadi.

Mahbuba qadamidan «obod boʻlgan» oshiqning xarobasi ham bu maqabem ana shunday tamoshogoh tusini olgan. Gʻazalning maqtalida oldingi baytlarda tasvirlangan voqealarga yakun yasaladi. Shu maʼnoda, maqta' gʻazalning xulosasi vazifasini ado etadi. Yor vasli va boda kayfiyati, ishqning hijronu iztiroblaridan sarxush boʻlish oshiq uchun mavsumiy, tasodifiy holat emas, balki, doimiy hamroh hodisadir. U umri boʻyi oʻzini ana shu yoʻlga baxshida etgan. Koʻrinadiki, Alisher Navoiy talqinidagi oshiq uchun bulhavaslik, qoʻnimsizlik, guldin gulga koʻchib yuruvchi kapalak holati batamom begona. Zotan, bunday betayin saʼyu harakatlar ulugʻ shoirning shaxsiy tabiati va ijtimoiy qarashlari uchun mutlaqo yotdir. Aksincha, buyuk mutafakkir gʻazallarida tasvirlangan oshiqning irodasi mustahkam. U oʻz eʼtiqodi va vaʼdasiga sodiq, maʼshuqaning barcha qiynoqu imtihonlariga bardosh berishga tayyordir...

Tuzilishiga koʻra, voqeaband boʻlgan bu gʻazal gʻoyaviy yoʻnalishi nuqtai nazaridan oshiqona – orifona sheʼr hisoblanadi. Yoki unda tasavvufiy ruh ancha baland. Misralardagi mastona, devona, junun, kulba, partav (yorugʻlik, nur, shuʼla), shamʼ, parvona, tajalliy, maloyika, vayrona, may, ishq kabi soʻz va istilohlarning zohiriy mazmuni bilan bir qatorda, irfoniy – botiniy talqinlari borligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Oʻsha ishoralar gʻazal "voqea"larini zamin – u samoga ulab qoʻyadi. Ulugʻ shoirning bunday gʻazallaridagi ishqni darrov majoziy yoxud ishqni ilohiyga ajratish yaramaydi. Chunki misralarda ishqning har ikki koʻrinishi ham qorishiq tarzda keladi. Ulugʻ shoirning qatʼiy ishonchiga binoan majoziy ishq riyozat va poklanish tufayli haqiqiy ishq maqomiga koʻtariladi. Shunday fazilat Alisher Navoyining oʻzbek tilidagi gʻazallarida yanada yorqinroq koʻzga tashlanadi.

Bu jihatdan uning mashhur "Kelmadi" radifli gʻazali alohida qimmat kasb etadi. Gʻazal xususida bahs boshlashdan avval uning toʻla matnini nazardan oʻtkazaylik:

**Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,  
Koʻzlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.  
Lahza – lahza chiqtimu chektim yoʻlida intizor,**

**Keldi jon og'zimg'a—yu ul sho'xi badxo' kelmadi.  
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,  
Ro'zg'orimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.  
Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,  
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.  
Ko'zlaringdin necha suv kelgay deb o'lturmang meni,  
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.  
Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam,  
Yo'lg'akim, avval qadam ma'shuqi o'tru kelmadi.  
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngling uyin,  
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 3—kitob. 336—bet).

To'la matni ko'chirilgan she'r—Alisher Navoiyning voqeaband g'azallaridan biri. Unda she'r qahramoni—oshiqning hijron damlaridagi iztirobi, ruhiy azoblari butun tafsilotlari va barcha murakkabliklari bilan aks ettirilgan. Yuqoridagi forsiy g'azal ham Navoiy—Foniyning voqeaband g'azallaridan biri hisoblanadi. Har ikkala she'rning ham mavzui bir. Ular—ishq—muhabbat tasviriga atalgan. Mazkur she'rlarning bosh qahramoni—oshiq. Biroq forsiy va turkiyda bitilgan bu g'azallar o'rtasida tafovut ham yo'q emas. Bunday xos uslubiy jilo she'rlarda tasvirlangan oshiqning ruhiy holati badiiy tasvirida ko'zga yorqinroq tashlanadi. "Imshab" ("Bu kecha") radifli fors—tojik tilidagi g'azalda oshiqning yor vasliga etishi oqibatida uning ruhiy holatida sodir bo'lgan xursandchilik kayfiyati qalamga olinadi. Mahbuba sinovlaridan sabr—matonat bilan o'tgan oshiqning bu shodiyona kayfiyati ortida yana muhabbat qiynoqlari turganligi ham misralarda ko'zga etadi. Zotan, u o'zini istiqbolida turgan navbatdagi hijron azoblariga shay tutadi. Aytilganlar nuqtai nazardan she'rning maqtai uning bosh qahramoni—oshiqning qasamyodiday aks—sado beradi. O'zbek tilidagi "Kelmadi" radifli g'azalda hijron azoblarini boshidan kechirayotgan qalbning lig'oni ayriча urg'u bilan yoritiladi. Mahbuba yor kulbasiga kelish uchun va'da beradi. Ammo ahd buziladi. O'z muhabbatiga sodiq oshiq esa mahbubaning kelishini intiqlik bilan kutadi. Shu yo'lda u halovatidan kechadi, uyquni tark etadi. Fig'oni falakka chiqqan oshiqning oshufta qalbi bular bilan ham taskin topmaydi.

Alamdan shoda — shoda koʻz yoshlari toʻkadi. Sheʼrdagi tasvir shu yoʻsinda davom etadi. Muhimi shundaki, oshiq oʻz soʻzida qatʼiy turadi, sevgilisidan qoʻl silkib ketmaydi. Ana shu nihoyasiz azoblardan bir lahza boʻlsa ham forigʻ boʻlish uchun mayga rujuʻ qiladi, ayni harakati bilan u alamzada qalbiga tasalli beradi. "Imshab" ("Bu kecha") radifli gʻazalda boʻlganidek, "Kelmadi" da ham mayga doir ishoralar masalaning zohiriy talqini hisoblanadi. Botinda esa maʼrifiy — irfoniy mazmun ustivordir. Shunday gapni majoziy hamda haqiqiy ishq bilan aloqador lavhalar haqida ham aytish oʻrinli koʻrinadi.

Ravshan boʻlayotirki, Alisher Navoiyning tojik va oʻzbek tilidagi gʻazallarida sabr—chidamli, ahdiga vafodor, bardoshli oshiqlar timsoli mahorat bilan chizilgan. Bunday oshiqlar tasavvuridagi mahbuba ham yengiltak, hoy—u havas shaydosi qizlar toifasidan emas. Ular sevgini yuksak darajada ardoqlaydi. Oʻzlariga ishq izhor qilgan yigitlarning aytganlariga osongina koʻnib, ularning etagini tutib ketmaydi. Aksincha, yigitlarni imtihon qiladi, ularni soatlab emas, kunlab kuttiradi, iroda va bardoshini sinovdan oʻtkazadi. Aslini olganda "Kelmadi" radifli gʻazaldagi "vaʼda xiloflik" tagida ham ana shu imtihon yotadi.

Xulosa shuki, otashin ishq talqinida ulugʻ shoirning turkiy va forsiy sheʼriyatida mushtarak jihatlar benihoya koʻp. Alisher Navoiyni birinchi navbatda ulugʻ insoniy fazilatlar qiziqtirgan. Ishqni inson feʼl—u atvoridagi noloyiq illatlarni poklash vositasi bilgan ijodkor qaysi tilda qalam surmasin, masalaning ana oʻsha jihatlariga alohida eʼtiborini qaratgan...

## YOGʻDI OʻT USTIGA QOR...

Har bir shoir qalamidan chiqqan sheʼr—avvalo, uning "daftari aʼmoli", yaʼni umr daftarining adabiy ifodasi hisoblanadi. Muallif oʻz jismida sinovdan oʻtkazgan "base achchiq—chuchuk"larni koʻngil va tafakkur xazinasidan chiqarib tashlay olmaydi. Ular qalb tubiga tushgan "choʻkma"lar misol "yashash va oʻzidan darak berishda" davom qiladi. Shuningdek, bir qarashda xususiy boʻlib koʻringan ayni holat—hodisalar zamonu zamondoshlar taqdiri qiyosida talay umumbashariy axloqiy—



ma'naviy, ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazarlarning tug'ilishi va saqlariga ko'chishida doyalik vazifasini o'taydi. She'riy qatorlarda "men" shaklida jamol ko'rsatgan o'sha fikrlarni o'qigan har bir o'quvchi esa ularni o'ziga daxldor bilishdan tashqari, o'z shaxsiy "dastari a'moli"ning chizgilari sifatida qabul qiladi. Shu tariqa, har bir inson zikri o'tgan jarayonlardagi yaxshi amallarga rioya etish, yomonlarini esa isloh yoxud bartaraf qilish payidan bo'ladi.

Shunday manzarani hazrat Navoiy adabiy tajribasida ham kuzatish mumkin. Jumladan, "kibar avoni", ya'ni qarilik davri quvonchu azoblari haqida badiiy mushohada etgan ulug' o'zbek shoiri o'sha ziddiyatli vaziyatni dilbar bir g'azalida quyidagicha umumlashtirib qoldirgan.

To yigit erdim, qarilarg'a ko'p erdi xizmatim,  
Qorig'on chog'da yigitlarga og'irdur suhbatim.  
Ne uchun bo'ldum kichik yoshlig'lar ichra ko'p saqil,  
Garchi ko'p zohirdurur sin kasratidin xiffatim.  
Vahki, damdin – damg'a mendin yorlarga' a ijtinob,  
Garchi kundin – kunga ortig'dur alarg'a ulfatim.  
Vahki, damdin damg'a mendin yorlarga' a ijtinob,  
Garchi kundin kunga ortiqdur alarg'a ulfatim.  
Gar taammul aylasam voqe', muhiqdurlar alar,  
Ne uchunkim, hech qolmaydur alarg'a nisbatim.  
Mushk chun kofur bo'ldi – yog'di o't ustiga qor,  
Xatti mushkin birla o'tlug' yuzga netsun rag'batim.  
Bog'aro sarvi sihi yonida bo'ldum eski tok,  
Bo'ldi tuz bo'ylug'lar ichra ham qadimdin ibratim.  
Ey ko'ngul, tut go'shae emdi ibodat qilg'ali,  
Qolmoq istar bo'lsang ellik yilg'i bo'lg'on hurmatim.  
Chunki ellik manzil o'tti umrdin, sokin bo'lay,  
Ne uchunkim emdi yo'q, sur'at qilurg'a quvvatim.  
Nettim ellik yilda juz isyonki, emdi netkamen,  
Yona ellik yilg'acha tuttumki bo'lsa muhlatim.  
Lutf etib, yo rabki, iymon boylig'i qilg'il nasib,  
Kim halok etmish amal muxlislig'idin xijlatim.  
Ey Navoiy, g'am emakim, bahr g'ufron ursa mavj,  
Tengri lutfidin ne mumkin juz umidi rahmatim

(Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 4 — jild, T.:, 1965, 217 — 218 — betlar).

Bu ulug' shoirning yirik — o'n bir baytli g'azallaridan biri. Satrlar ohangiga va shoir qalbiga quloq tutilsa, misralar bag'riga singdirilgan mazmun chuqur his etilsa, unda (g'azalda) muallifning bosib o'tgan umri sarhisobi badiiy ifodalanganini payqash qiyin emas. G'azalda "kibar avoni" manzaralari o'zining butun murakkabliklari bilan rangin adabiy talqinini topgan. Ohorli she'rda Navoiydek faylasuf shoirning sarhadsiz tafakkuri misralarga ko'chib, uning baytlarini hikmat darajasiga ko'taradi. She'rda ifodalangan mazmun — mohiyat shoir yashagan zamon quvonchi, dardu muammolarining badiiy umumlashmasiday aks — sado beradi, o'quvchini izidan ergashtiradi, uni jiddiy muhokama — mulohazaga chorlaydi.

Navoiyona dilbar satrlar sinchiklab nazardan o'tkazilsa, unda uch etakchi mavzu teran yoritilganining guvohi bo'lamiz. Dastlabki to'rt baytda otalar va bolalar o'rtasidagi munosabat qalamga olinadi. She'r qahramoni — ellikdan oshgan, muayyan hayotiy tajribaga ega bir shaxs. U yoshlardan e'tibor va ehtirom kutadi, ularning davrasiga munosib bo'lishga intiladi. Biroq dunyo ko'rgan bu insonning urinishlari sarobga aylanadi. U yoshlar bilan ulfatchilik qilishga qanchalik urinmasin, uning barcha sa'y — harakatlari teskari natija beradi: yoshlar undan shunchalik yiroqlashish payidan bo'lishadi...

Misralarda etakchi san'at sifatida ko'zga tashlanadigan tazod (qarshilantirish) aytilmoqchi bo'lgan muddaoni bo'rttirishda juda qo'l kelgan. Insoniyat tarix va taqdirida avlodlar o'rtasidagi axloqiy — ma'naviy, ijtimoiy — tarbiyaviy masalalardagi nomutanosiblik Navoiy davrigacha, ulug' shoir zamonida va undan keyin ham amal qilgan. Bugun ham katta avlod va hozirgi yoshlar o'rtasida o'sha muammolarni yo'q, deyish hayot haqiqatidan ko'z yumish bilan barobardir. Ular inson qismatidagi muayyan qonuniyat sifatida amal qiladi. Ammo har bir tarixiy sharoitning o'z mavzu va muammolari ko'ndalang bo'lib o'rtaga chiqishini ham nazardan soqit qilmaslik dardkor. Shu ma'noda, g'azalda ko'tarilgan masalalar bizga beqona emas va ular har birimizning taqdirimiz uchun ham daxldor sanaladi.

Beshinchi baytdan o'rtaga qo'yilgan masala yangi qirrasining badiiy talqini boshlanadi. Aniqrog'i, ana shu

misralardan avlodlar o'rtasida muvozanat buzilishining sabablari badiiy tadqiq etiladi. SHoir tasvirdagi keskin ruhni kuchaytira boradi: "Mushk chun kofur bo'ldi..." (yillar mushkni kofurga aylantirdi). Mushk — to's qora rangdagi xushbo'y modda. Uning badiiy adabiyotda ko'p qo'llanilishi ma'lum. Ma'shuqaning **sochi, zulfi, xoli, xatti** unga o'xshatiladi. Mazkur satrda ham u she'r qahramonining yoshlikdagi holatini ifodalab kelayotir. Kofur — oq rangdagi xushbo'y modda. Badiiy adabiyotda ko'proq oq rangni ifodalab keladi. Bu o'rinda ham rang, ham hidni anglatayotir. Mushkning rangi kofuriy bo'ldi, ammo xushbo'yligi o'zgarmadi. Alqissa, "yillar tim qora sochimni oqartirdi" degan xabarni shoir ana shunday bo'yoqdor va nozik ifodalagan.

Misraning ikkinchi qismi yanada shiddatliroq tus olgan: "yog'di o't ustiga qor..." Parchadagi "o't" iyhom san'ati uchun asos bo'lgan. O't — mayin maysa, ko'klik: ma'juziy ma'noda — boshdagi soch. Yoshlik yillaridagi soch — u soqolning ko'p va mayinligi sabzani eslatadi. Erta kuzakdagi o'roqdan keyingi o't ham o'shanday manzaraga kiradi. Maysa ko'rkiga ko'z tegdi — uning ustini qor qopladi. Yoshlik o'z o'rnini mo'ysafidlikka bo'shatib berdi: sochu soqolning mushkfom tarovati farzandu nevaralarga ko'chib, bobo meros kofuriy rang, nuroniylik kibar avoni ramzi sifatida tantana qiladi. "O't" ayni zamonda ikkinchi jiloda — olov ma'nosida ishlatilgan. Ishq va yoshlik harorati yuzga ta'sir o'tkazgan va yor chehrasi shu'la tusini egallagan.

Shoir o'xshatish va o'xshatilmishlarni qatorlashtiradi. Navbatdagi misralarda navqiron sarv va eski tok ko'chati yonma — yon qo'yiladi. E'tiborli tomoni shundaki, ulug' shoir keksalikka tegishli tashbehlarni tanlashda ijodiylikka urg'u beradi. Mevali daraxtlarga ishora qiladi. Bunday mayl tasodifiy emas, albatta. Chunki kibar avonining fayzu shukuhi, viqoru tamkini, saviya va salmog'i ibratli amallar, qoldirilgan ma'naviy namara bilan belgilanadi...

G'azaldagi yana ikki jihatni alohida ta'kidlash bilan kifoyalanamiz.

Inson tabiati qiziq: u hayotining ma'lum davrida go'yo eru osmonga sig'may, oxiratni xayoliga keltirmay yashaydi. Ba'zan uvolu savob haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Yosh ulg'ayib borgani mayin ana o'sha "o'zligidan ketish" jarayoni chekinib, inson tabiatini xudojo'ylikka moyillik egallay boshlaydi. Kibar sinnida

bu holat yanada teranlasha boradi.

Islomiy ta'limotdan bizga bir haqiqat ravshan: e'tiqod tilda emas, dilda yashaydi. Agar u rost va sidqiy bo'lsa, soqol — mo'ylov qo'yish, libosni almashtirish, ijtimoiy foydali mehnatdan uzilib, kechayu kunduz ibodat bilan mashg'ul bo'lish, Qur'on tilovatini tirikchilik manbayiga aylantirishga hech qanday hojat yo'q. Zohirdagi soxta xudojo'ylik, botindagi yolg'onning po'rtanasini pinhon tutolmaydi. Yana Alloh hamma narsani bilguvchi, baholovchiroqdir...

Tahlil qilinayotgan g'azal qahramoni ham ibodatga mayl ko'rsatadi. Aslida, u tabiatan xudojo'y va ellik yildan ziyodroq umri davomida toat — ibodatni kanda qilmagan. Misralardagi ayrim ishoralar kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Nega ulug' shoir talqinidagi qahramon toat — ibodatga yanada ko'proq vaqt ajratmoq uchun alohida go'sha ixtiyor etib qoladi? Baytda bu haqli savolning javobi ham keltirilgan: "ellik yilg'i bo'lg'on hurmatida qolmoq istagida" u shunday qarorga keladi. Dunyoga hirs qo'yish esa nafs ammora uchun keng yo'l ochib beradi va u odamni o'zlik qiyofasidan ancha yiroqlashtiradi. Tabiiyki, bunday sa'y — harakatlar savobdan ko'ra, gunohning ko'proq qanot yoyishi uchun qulaylik yaratadi.

Dunyo siru asroridan etarli xabardor g'azal qahramoni uchun yuqoridagi haqiqat ayon. Shundan bo'lsa kerak, u ibodat dargohidan panoh izlaydi. Uzlatni qo'msab qoladi. Bunday urinishning esa izohlari ma'lum: namozu niyoz va Xudoga tavakkal qilib yashash insonni parhezkorlik sari boshlaydi va nojo'ya harakatlardan ihota qiladi. "Sur'at uchun" etarli "quvvat"ning yo'qligi kibar avonidagi sokinlikning sabablaridan yana biri sifatida ko'rsatiladi. Qiyosan olganda, bu mulohazaga qo'shilish mumkin.

Alisher Navoiy shaxsiy hayotida kibar sinnining keyingi o'n yili turli jismoniy xastaliklarning xuruji tufayli ancha og'ir kechgan. Shundan bo'lsa kerak, g'azal qahramoni o'z jismoniy quvvatining kamayganidan shikoyat qilishga majbur bo'ladi...

G'azalning oxirgi uch bayti alohida ahamiyatga molik. Avvalo, bu satrlar — she'rning nekbittalik g'oyalari singdirilgan xulosasi. Ana shu yakundan she'r qahramoni — mutafa.kir shoirning uch ulug' niyati ham joy olgan: ortda qolgan ellik yildan ziyodroq umr isyon (Xudoning buyruqlarini to'liq bajara olmaslik) bilan, dunyo asrorini bilib — bilmay o'tib ketdi. Ammo, bordiyu

yana ellik yil yashash nasib etsa, g'azal qahramoni aqli quyilib, katta hayotiy tajriba va saboq hosil qilingan bir holatda qolgan umrini o'zining oldingi gunohlarini yuvishga, ezgulikka baxsh etmoq orzusida ekanligini ma'lum qiladi... Buning uchun u yaratgandan iymon boyligini tilaydi. Inson uchun iymon — eng oliy ilohiy ne'mat. U kishi qalbining noyob javohiri, gavhari yaktosidir. Iymoni butun va pok qalb sohibining o'rni arshi a'loda, u zaminning har qanday nodiru noyob xazinalaridan baland turadi.

G'azal intihosida tavba — tazarruga yuz burgan she'r qahramoni o'z inon — ixtiyorini Allohga topshiradi va undan lutfu ehson tilaydi...

Navoiyona baland shavq bilan yozilgan ayni she'rning tahlilini yana va yana davom ettirish mumkin. Ammo, bayon qilganimiz ayrim mulohazalar ham ulug' shoirning shu dilkash g'azalni yaratishdan ko'zlagan maqsad — muddaosini keng o'quvchilar ommasiga etkazib, ularning axloqiy — ma'naviy balog'atiga jiddiy ta'sir ko'rsata oladi, deb o'ylaymiz...

Eng muhimi, bu mo'jaz asarda buyuk mutafakkining tarjimai holiga daxldor bo'lib ko'ringan lavhalar, amalda xususiylikni tark etib, umumiylik sari yuz tutadi. Undagi ishoralar esa "o't ustiga qor yog'ishi" day bir jarayonni boshidan kechirgan insonlarga ham tegishli ekani shundoq ravshanlanib qoladi. Tabiiyki, **Kibar yoshidagi** insonlar moddiylikdan, nafs xohishlaridan yiroqlashish, iymon gavharini mahkam tutish sari moyil bo'la boradi. Aniqrog'i, ulug' shoir shunga da'vat etadi. Ayni otashin chaqiriq esa barcha davrlar, jumladan, bizning zamonamizda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.



## QIYIQCHA BIR BAHONA...

Alisher Navoiy "Xazoyin ul – maoniy" yig'ma devonlari nashrlari ichida professor Hamid Sulaymon nusxasi har jihatdan mo'tabarligi bilan ajralib turadi. Fidoyi navoiyshunos olim sa'yu harakatlari bilan bunday ulkan ish 1959 – 1960 – yillarda amalga oshirilgan, xilma – xil jadvalu rasmlar hamda lug'at bilan ta'min etilgan holda bosmadan chiqarilgan. Hamid Sulaymonning ulug' shoir she'riyati ilmiy – tanqidiy matnini yaratishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasining samarasi sifatida yuzaga kelgan ushbu nashrda Alisher Navoiy nazmiy merosini uning muhiblariga imkon qadar benuqson yetkazishga harakat qilinganligi bilan ham diqqatni tortadi... Yig'ma devonning to'rtinchi kitobi – "Favoyid ul – kibar" ("Keksalik davri foydalari")da 373 – g'azal mavjud. Yetti bayt, o'n to'rt misradan tarkib topuvchi mazkur she'r yaratilish davri nuqtayi nazaridan ulug' shoir hayotining tufuliyat (bolalik) bosqichiga daxldor bo'lib, aslida "**G'aroyib us – sig'ar**" ("Yoshlik g'aroyibotlari") devonidan joy olmog'i lozim edi. Professor Hamid Sulaymon kitobga yozgan so'z boshisida masalaning bu jihatini alohida ta'kid bilan qayd qilarkan, bunday hodisa "**Navodirush – shabob**" ("Yigitlik davri nodirliklari") hamda "**Badoe' us – vasat**" ("O'rta yosh badiiyati") devonlari uchun ham xos ekanligini uqtirib o'tadi. Aruz vaznining **ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun)** shu'basidan bitilgan g'azal (Hamid Sulaymon nashridan joy olgan 3132 she'rlar barchasining vazni jildlarda keltirilgan "Ilova"larda to'la aksini topgan) o'ynoqi va ravon ohangi bilan diqqatni tortadi.

Mana, o'sha misralar:

**Yog'lig'in, eykim tikarsen, igna mujgonimni qil,  
Naqsh etarda tori oning rishtai jonimni qil.  
Istasang torin qizil yoxud qaro qilmoqqa rang,  
Qo'z qarosin hal qilib, ko'zdin oqar qonimni qil.  
Gar desang haryon qizil gullar qilay nusxat anga,  
Ko'ksim ochib, toza qonlig' dog'i hijronimni qil.  
G'unchalar gul yonida tikmak taxayyul aylasang,**

**Anga nusxat ko'ngul otlig' zori hayronimni qil.  
Gar desang har yon pari shakli namudor aylayin,  
Vah, ne nav' aytay vale manzur jononimni qil.  
Qilsang ul yog'lig' aro bir she'r ham yozmoq havas,  
Anda har yon naqsh bu nazmi parishonimni qil.  
Ey Navoiy, kimki bir yog'liqni tiksa yor uchun,  
Muzdi jonim javhariyu naqdi imonimni qil**

(Alisher Navoiy. Xazoyin ul — maoniy. IV jild. "Fan", Toshkent, 1960, 278 — bet).

Tadrij san'ati (voqealarning muayyan ketma — ketlikda rivojlantirishga asoslanuvchi badiiy tasviriy vosita) asosida qurilgan g'azal tuzilishiga ko'ra **yakpora** bo'lib, unda ma'shuqaning boshidagi qiyiqcha munosabati bilan mahbubaning **suratu siyratiga** daxldor aksariyat jihatlar qalamga olinadi. Ulug' shoirning ayni balog'at pallasida vujudga kelgan g'azalda oshiqona lavhalar o'ta sinchkovlik, nazokat va mahorat bilan badiiy ifodasini topadi. Shunday shoirona topqirlik g'azal matlasidanoq nazarga tashlanadi. Oshiq o'z mahbubasiga murojaat qilarkan, unga dilida tugilgan shaxsiy takliflarini bir — bir bayon qiladi: Agar senda qiyiqcha to'qish zarurati paydo bo'lsa, igna o'rnida mening mijgonlarimni, unga naqsh (gul) solmoq shavqi tug'lsa, jonim rishtalarini (torini) berishga tayyorman! Misralarda to'quvchilik kasbi bilan aloqador o'sha jarayon izchil davom etadi. Tabiiyki, gul yuzli sanamning boshidan joy olishga loyiq qiyiqcha (yoxud oshiqqa tuhfa otiladigan ro'molcha) rangin bo'lmog'i lozim. Shuni hisobga olgan ulug' shoir matlada boshlangan mavzuni izchil davom etadi. Qizil yoxud qora rishtalar (iplar) lozim bo'lsa, tashvishlanma, ko'zim qorachig'ini eritib, qora naxlar (torlar) va qon yoshlarimdan esa qizil rangdagi iplar (rishtalar) hosil qilish mumkin.

Ko'rinadiki, tasvir ta'sirchanligi payidan tushgan hassos shoir **mubolag'a, o'xshatish, tanosib** va yana bir qator she'riy san'atlarga ham murojaat qiladi. O'z o'rnida va me'yorida ishga ko'lingan o'sha tasviriy aslahalar (vositalar) tufayli misralarning mazmuni bo'liqlik kasb etishdan tashqari, ular nafis bir manzarani suratga keltiradi. Uchinchi baytda esa o'sha mayl yana shiddatli tus oladi. Qiyiqchada qizil gullarni aks ettirish urfiyatda an'anaviy



hodisa. Ayni haqiqatni nazarda tutgan oshiq mahbubasidan tasmollab so'raydi: Bordi — yu qiyiqchada qizil gullardan nusxa ko'chirmoqchi bo'lsang, ovora bo'lib o'tirma, kelib mening ko'ksimni ochu hijroningdan laxta — laxta qonga aylangan bag'rim dog'larini o'sha matoga ko'chira qol!

Ravshan bo'layotirki, ulug' shoir shunchaki san'atpardoqlik qilayotgani, ma'shuqaning tashqi qiyofasi tasviriga maftun bo'lib, mohiyatni, siyrat yoxud ishqning poklovchilik fazilatini esdan chiqargani yo'q. Alisher Navoiy qaysi yoshda bo'lmasin, ishq uning uchun aysh — ishrat vositasi bo'lmay, insonni balog'atga, poklanish, kamolot pillapoyalari sari etaklovchi fazilat ekanligi yorqin nazarga tashlanadi. Buni yuqorida ayrimlarini qayd qilganimiz lavhalar misolida ham ko'rish mumkin. Gulzorda, gul shoxlarida ochilganlari qatorida g'unchalarning bo'lishi ham ayon. Ana shu kichik hayotiy lavhani nazardan qochirmagan ulug' shoir ishq oshiqlik tasvirida undan mohirona foydalanadi. Gul g'unchasi va oshiq yuragi tuzilishida muayyan monandlik tuyugan muallif g'azal to'rtinchi baytini o'sha manzara asosida qo'radi. Hayotda barcha orzulariga erishgan sidqiy oshiq'larni topish muyassar bo'lmaydigan hodisa. Ularning o'sha qavat — qavat armonlari yurak atalmish mo'jizaning qatlamlarida sirligicha qolib ketadi. Shunday manzara gulzordagi g'uncha qismatida ham kuzatiladi. Bag'oyat topqirlik ko'rsatgan ulug' shoir o'xshatish va o'xshatilmishni satrda nihoyatda o'rinli qo'llay olgan va masalaning bir uchi sevishganlarning siyratiga ham bog'lanib qoladi. Beshinchi baytda hayotsevarlik tuyg'usi baland. Islomiy — ilohiy manbalarda ulug'lanadigan huru parilarga doir qarashlarga zid bormagan Alisher Navoiyning mayli Yor go'zali tarafidadir. Ya'ni suratu siyrat muvozanati teng turadigan, botiniy olami mukarram ayol "yuz tuman nopok erdin yaxshiroq" (Alisher Navoiyning o'z ta'biri)dir. Oltinchi — xotimadan avvalgi bayt ham hayotiyligi bilan diqqatni tortadi. Ma'shuqalarning o'z sevgililariga tuhfa qilinadigan ro'molchalarida ular nomlarining bosh harfi, she'riy misralarning yozilishi ham udumga aylangan. Shuni nazarda tutgan ulug' shoir faxriya (iftixor, o'z ash'origa baho berish, undan qoniqish) san'atiga daxl qiladi. Agar o'sha ro'molchada she'r yozishni istasang, mening parokanda misralarimni naqsh etgin! G'azalning xotimasi matlaiga (boshlanmasiga) to'la munosib bo'lib tushgan. Kimki pok ishq izhori ramzi sifatida bir qiyiqcha tikmoqchi bo'lsa, uning mehnat

haqi uchun pokiza tiynatli oshiqqlarning joni va iymoni munosibdir. Gʻazalning boshidan oxiriga qadar tabiat va ishqu oshiqlik bilan aloqador manzaralarni yonma—yon tasvir etgan ulugʻ shoir gʻoyat goʻzal sanʼat asari yaratib qoldirishga muvaffaq boʻlgan. Biz vorislarning vazifasi esa oʻsha hayotbaxsh misralarni koʻzlariga surtib mutolaa qilish, uning umrboqiy mohiyatidan oʻzimizning maʼnaviy—axloqiy olamimizni nurafshon etishdan iboratdir.

## ISHRAT MAYI IZTIROBLARI...

Qadimiy anʼanalarga ega Sharq gʻazalchilik maktabi Alisher Navoiyga qadar shakllanish jarayonini boshidan kechirdi. Uning janriy tabiati va mavzular olamida muhim unsurlar vujudga kela boshladi. Shunday mayl gʻazal tuzilishida ham koʻzga tashlanadi. Bosh mavzuini ishqu oshiqlik mojarolari tashkil etadigan gʻazallar tuzilishiga koʻra ikki yoʻnalishda (**parokanda va yakpora**) rivojlanib keldi. Parokanda gʻazallar janrning mavzu va gʻoyalar olamini boyitishda qoʻl kelgan boʻlsa; yakpora (musalsal, voqeaband, "syujet"li) sheʼrlar badiiyat hamda tafakkur teranligini taʼminlash yoʻlida xizmat qilib keldi. Alisher Navoiyning ikki ming olti yuzdan ziyodroq (2600) turkiy gʻazallari ichida yakpora sheʼrlarning goʻzal namunalari ham talaygina topiladiki, ulardan biri sharhini sizning eʼtiboringizga havola qilamiz. Ulugʻ shoir "**Gʻaroyib us—sigʻar**" ("Yoshlik ajoyibotlari") devonidagi oʻn ikkinchi gʻazal **oshiqona—orifona** mayli, sheʼr qahramoni maʼnaviy—ruhiy olamini goʻzal badiiy aks ettirishi bilan diqqatni tortadi.

**Ne xush boʻlgʻay ikovlon mast boʻlsoq vasl bogʻinda,  
Qoʻlum boʻlsa aning boʻynida—yu ogʻzim qulogʻinda.  
Dami vasl ichra volihligʻ bila ruxsorim egnida,  
Yana bir dam niyoz—u ajz ila boshim ayogʻinda.  
Tutub gohi zanaxdonin mukarrar aylasam bot—bot,  
Koʻrub gullar ochilgʻon bodadin ruxsori bogʻinda.  
Shimib yutsam gahi hayvon suyidek zavqdin koʻrgach,  
Tarashshuh bodadin gul yafrogʻi yangligʻ dudogʻinda.**

Gahi ko`z surtarimda, yo`qsa har yon shodlig` ashkim,  
Gul uzra qatra shabnamlar kibi siymin saqog`inda.  
Gahi bexudlug`umdin seskanib tutsam adab rasmi,  
Belida chirmashurda shavqning ifroti chog`inda.  
Ne kelsa tongla kelsun, bir tun usruk yotsa ham xushtur,  
Kishi gul chog`i bir gul xirmonin tortib quchog`inda.  
Qachon davron manga bir bo`yla ishratni ravo ko`rgay,  
Ki, o`rganmish meni o`rtarg`a hijron dardu dog`inda.  
Navoiy, sen kimu ishrat mayi bilmasmusenkim, it,  
Agar qon ichsa ham boshi keraktur o`z yalog`inda

(Alisher Navoiy. Asarlar. 15 — jildlik. 1 — jild. T.:1963, 87 — bet).

G`azalning matlai (birinchi bandi) ancha shiddat bilan ibtido topadi. She'r qahramoni — oshiq dilidagi orzusini ro`yi rost oshkora qilib qo`yadi. Bayt mazmunini durustroq mulohaza qilib ko`rmagan o`quvchi bir lahza bo`lsin, hayratga tushishi mumkin. Chunki birinchi qatorda mastlik haqida gap borsa, ikkinchi misrada nojo`ya harakatlarga (qo`l bo`yinda va og`iz quloqda!) ishora ketadi. Yoqa ushlar mumkin, sharqona odob, iffatu nomus qaerda qoldi? Aslida misralarning mag`zi chuqurroq chaqilsa, bularning shunchaki oshiqona orzu ekanligi ayonlashib qoladi. She'riy qatorlarda kelgan so`zlar aksariyatining zulma'nayn — botiniy — ichki ma'noga egaligi nazarda tutilsa, ulug` shoirning maqsadi yanada oydinlashadi. Sharq g`azalchiligida shakllangan hukmron uslubiy jiloga ko`ra she'rda ma'shuqa ko`rinmaydi, uning haqidagi barcha xabarlar oshiq tilidan keltiriladi. Tahlil qilayotganimiz baytda ham o`sha mayl yaqqol seziladi. Ikkinchi bandeda oshiq o`z dilini yanada «kengroq» ochadi. Ma'shuqaning kutilmagan "tashrifi"dan, vaslning (diydorning) muyassar bo`lganidan sarosimaga tushgan oshiq nima qilishini bilmaydi. Uning tabiatida ojizlik o`zidan darak beradi. Nochor ahvolda qolagan she'r qahramoni yalinish, yolvorishlar bilan boshini yorning oyoqlariga qo`yadi. G`azalning misraidan misrasiga o`tgani sayin tagma`nosi bor so`zlar ko`payib, ular o`zidan "xabar" bera boshlaydi. "Vasl bog`i", "volihlig'", "niyozu ajz" kabi birikma — yu so`zlarni zaminiy mahbubaga nisbatan qo`llash u qadar odatiy holat emas. Shunday ekan, misralarda bo`y ko`rsatadigan mahbuba erdan samoga ko`tarila boradi. Buning

uchun chin sevgi, sadoqat va poklik asosiy vosita vazifasini o'taydi. Ya'ni ishq majoziy **"dili poku tili poku o'zi pok"** oshiq tufayli haqiqiy (ilohiy) ishq maqomiga ko'tarila boradi...

Ravshan bo'layotirki, "jimjimador" bo'lib ko'ringan uslubiy jilolar zamirida ulug' maqsad yotadi: Ishq – ilohiy ne'mat, mahbuba – hayot guli. Bunday samoviy mo'jizalarga hoyu havas, shahvoniy hirs ehtiyoji sifatida munosabatda bo'lish gunohi azimdir. Uchinchi baytda ma'shuqa surati chizgilari tasviri bilan tabiat manzarasi badiiy ifodasi yonma – yon tutiladi. Gulzorning anvoiy gullari yor jamoliga qiyoslanadi. Darvoqe, ma'shuqaning bejirim chehrasi gulshanning rango – rang shukufalariga (ochilgan gullariga) o'xshatiladi. Ma'shuqaning oppoq baqbaqalari, "chehra gulzoridan" tomgan tomchilar (ter tomchilari) oshiqni mast qilgan "boda"dir. Qarang, bu o'rinda to'kin ayshu ishrat dasturxonini va boda yo'q. To'la ma'noda, ishq va u bilan aloqamand murakkab ruhiy jarayonlar nafis san'atkorlik bilan qalamga olingan, xolos. To'rtinchi bayt ma'shuqa labi tasviriga bag'ishlanadi. Misralardagi "shimib yutmoq", "Hayvon so'yi", "zavq", "tarashshuh", "gul yafrog'i", "boda" – ma'shuqaning dudog'iga (labiga) aloqador. Oshiq ma'shuqaning lablaridan mazza qilib so'rish orzusida. Bu uning uchun "hayvon so'yi"dan, Xizrga nasib bo'lgan mangulik baxsh etadigan obi hayotdan – da lazzatliroqdir. Ulug' shoir misralarga zeb berishda nazokat ko'rsatadi. Mahbuba labini shimishdan hosil bo'ladigan tuyuqlik bilan gul yaprog'idan olinadigan tomchilar – gu'ob mingari oshiqqa zavq (kayf) beradigan bodadir. Ulug' shoir sehrli qalami kuchi tufayli butun nozikliklari bilan tasavvurga sig'dirish dushvor bo'lgan badiiy manzara chizilgan. Shuningdek, inson jismu fe'lu atvori va tabiat hodisalari o'rtasida mavjud bo'lgan teran robita misralarda badiiy ifodasini topgan. Alisher Navoiy talqinida mulki borliq va inson, inson va mulki borliq – egizak tushunchalar, ularni bir – biridan judolikda tasavvur qilish sira – sira mumkin emas. Shundan, ulug' shoir g'azal bandlariaro mantiqiy aloqadorlikni kuchaytira boradi. Buning uchun "shodlik ashklari", "gul yaproqchalari ustidagi shudring tomchilari", "saqog'dagi ter donachalari" yordamga keladi. Beshinchi baytdagi "siymin saqoq" birikmasi tasvirlangan manzaraga zeb va aniqlik baxsh etgan. "Siymin" – kumushsimon iborasi bilan ulug' shoir ma'shuqa jamolining ko'p jihatlarini nazarda tutgan:

Kumush – qimmatbaho ma'dan, uning rangi tiniq, bu ma'dan tovlanishi bilan ko'zni qamashtiradi va sirti bejirim silliqdir. Ayni fazilatlar ma'shuqaning baqbaqasida ham mujassam. Yuqorida ayrimlari sanalgan lavhalar go'yo oshiqning tushida kechadi. G'azalning oltinchi bayti o'shanday xulosaga kelish uchun etarli asos bera oladi. Yuqorida tahlil qilganimiz baytlarda Sharq xalqlari adabiyotida keng istifoda qilingan tanosib, o'xshatish, mubolag'a, tamsil, talmeh singari o'nlab san'atlar mohirona ishga solingan. Ettinchi bayt ham o'shanday fazilatlardan xoli emas. Avvalo, bu misralarda she'r qahramoni – oshiq ancha hushyor tortib qoladi, o'z mastligini tan oladi va shunday xitob qiladi: Boshimga ne balolar yog'iladigan bo'lsa, ertaga kelsin – bilib, bilmaslikka olish (tajohilu orifona) san'ati. U bu kecha mastlik holatida mazza qilib uxlamog'chi. Baytning ikkinchi qatoridagi "gul" va "gul xirmani" majoziy ma'noga ega va ular mahbubaning o'xshatilmishlari vazifasida kelayotir. "Shakkok" oshiq gul faslida gul xirmanini eslatuvchi ma'shuqani quchog'ida olib yotmoqchi. G'azalning sakkiz va to'qqizinchi baytlarida norozilik hamda ginaxonlik mayli baland. Oshiq uzrxohlik va shikoyatga o'tadi, o'ziga shafqatni ravo ko'rmagan davrondan dod deydi: Axir uning yuqorida sanalgan ushalmas orzulari sarobga aylanadi – da! Oshiqning istiqbolide ishrat o'rnida hijronning dardu dog'lari qatorlashib keladi. G'azalning maqtaida – xulosada it timsoliga ishora ketadi. Shuningdek, irsolu masal – xalq maqol, hikmat va qayroqi iboralarini misralar mag'ziga singdirib yuborish san'ati ishga solingan: **"Ko'rpangga qarab oyoq uzat"**, **"o'z haddingni bilib ishla"** kabi maqollarga xos mazmun baytga singdirilgan. Shuningdek, itga tegishli maqol ro'yi rost aytib qo'yilgan. Do'ppini olib qo'yg'an oshiq o'ziga – o'zi hisob berayotir: Vasl tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat – hodisalar shunchaki xayol ekan, bosar – tusaringni bilmay, haddingdan oshib nima qilarding? Axir it uchun bayramona nasiba (taom) hisoblangan qon oltin idishda emas, balki, o'z yalog'ida beriladi – ku!?

Mana, ko'chirganimiz yakpora g'azalning bir muncha jo'nlashtirib so'zlangan qisqacha mazmuni. Oshiqning bir lahzalik ruhiy – ma'naviy holati tasviri bahonasida ulug' shoir qancha gaplarni o'rtaqa tashlagan. Muhimi, ma'shuqa jamoli va suhbatidan benasib qolgan oshiq undan qo'l siltab, boshqasi

izidan tushayotgani yo'q. Ma'rifiy g'oya o'z maqomida turibdi. Zaminiy – samoviy mahbuba ishqidagi hijron iztiroblari oshiq earmastligining boisi edi. Zero, ishq Alloh marhamati ekan, u ulug'lanmog'i, hoyu havasdan, o'tkinchi illatlardan poklanmog'i, vafu va sadoqat shevasi ularning hamma – hammasidan baland kalmog'i zarur!

## YOR LABI–TIRIKLIK MANBAYI...

Navoiy – Foniyning boshqa bir ixtiro g'azalida mahbubaning ma'naviy dunyosi tasviriga alohida urg'u beriladiki, bunga qanoat hosil qilmoq uchun g'azalning to'la matnini to'chirish foydadan xoli emas.

**Hast alif guftem on bolo bared az mo suxan,  
Peshi on badxo'y natvon guft alif bolo suxan.  
Yak suxan go'yad zi vaslam bo hazoron intizor,  
Gar chi n-oyad z-o' dar oyini visol, illo suxan.  
Murda budam , yak suxan guftiyu ruham toza shud,  
Kay Masiho inchunin guftaast ro'hafzo suxan?  
Gar labat jon xost, justam dar baho bo'se maranj,  
Jomi may z-on ro', ki gardad az suxan paydo suxan.  
Xush nameoyad suxan az kas ba go'sham dar xumor,  
Soqiyo, digar mago' dar gardishi sahbo suxan.  
Dar suxan ma'niyu dar ma'ni suxan, nabvad, xamo'sh,  
Peshi rindon to ba kay izhori ma'ny bo suxan.  
Foniyo, tanho ba xilvat yak suxan doram ba yor.  
Z-on, ki chun xilvat shavad nabvad maro tanho suxan.**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 – jild, 2 – kitob, 202 – bet).

Keltirilgan g'azalda ta'kidga sazovor ikki holatning borligini alohida qayd qilishga to'g'ri keladi. Ulardan birinchisi, yor oq'zidan chiqadigan so'zning latif, mazmundor va nazokatli bo'lishiga daxldordir. Shuning uchun shoir mahbuba so'zini "to'likka jon bag'ishlash xususiyatga molik bo'lgan" ilohiy Iso natasidan ham baland qo'yadi. Masalaning ikkinchi uchi so'zdagi

ma'no jilosiga bog'lanadi. Alisher Navoiy uchun dilkash ma'nosi bo'lmagan so'z pisand emas. Ulug' shoirning bunday qat'iy mayli uning asarlari o'rtasidan qizil ipdek o'tib turadi. Gap mahbubaning so'zi haqida borar ekan, shoir yana o'sha tanyach ifoda uslubiga amal qiladi. Uning tasviricha, go'zal mahbuba sharqona nazokatga mos latofatli, dilkash va shirin so'zlar aytishi zarur. Shundagina u surat va siyrati dilkash, latofatli go'zallar qatoridan joy olishga sazovordir. Ana shunday g'oya Alisher Navoiyning aksariyat ishqiy g'azallarida yorqin nazarga tashlanadi.

Navoiy – Foniq qalamiga mansub ixtiro g'azallar mavzu va g'oyalar olamining boyligi bilan uquvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Salohiyatli shoirning fors–tojik tilidagi asarlari majmuasida **"Ahli zamon shikoyatida"**, **"Olam ahli jafokorligi xususida"**, **"Ahli zamon bevafoqligi haqida"** sarlavhalari ostida o'nlab she'rlar joylashtirilgan. Shoirning bunday misralari uning bevosita norozilik kayfiyati aks ettirilgan g'azallari hisoblanadi. Biroq bu o'rinda alohida diqqatga molik nuqta ana o'sha shikoyatga tegishlidir. Madaniy merosga lenincha munosabat tamoyillari amal qilgan yillarda ayni ishoralarning shohlarga, ijtimoiy tuzumga qaratilganligi xususidagi talqinlarning hukmronlik qilganligi hech kimga sir emas. Modomiki, bugun hamma narsani o'z nomi bilan aytish imkoniyatiga ega ekanmiz, zikri o'tgan shama'larni ham jiddiyroq o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. O'sha ishoralar zamirida inson tabiatidagi illatlarning qalqib yuzaga chiqqanligidan zorlanish bor emas—mi? Fikrimizcha, masalaning ana shu qirralarini ham nazardan yiroqlashtirmasligimiz lozimday ko'rinadi...

Shu ma'noda, shoirning har ikkala yo'nalishga daxldor satrlarida ham kishilar o'rtasidan mehru vafoning ko'tarilganligi, oqibat, sabru bardosh, qanoat, rahmu shafqatning tobora kamayib borayotganligidan shikoyat mayli kuchliroqday nazarga etadi. Mana, ayrim misollar:

**Ba mehri charx natvonam, ki binam baski bar mardum,  
Namudam mehribony, yoftam nomehriboniho**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 – jild, 1 – kitob, 20 – bet).

Yoki:

**Xush on kase ki du chashmi xud az on zamon po'shid,  
Ki bori ahli zamonro ba-din bahona nadid.  
Buvad ba qatli tuvva motami tu, pas zi chi ro',  
Falak ba ro'z kabo'du ba shab siyah po'shi**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 – jild, 1 – kitob. 296 – bet).

Ko'chirganimiz she'riy parchalarning birinchi baytida charx varag'idan mehru sadoqat so'zlarining o'chganligidan norozilik bildirilsa; ikkinchi parchada esa o'sha norozilik kayfiyati yanada chuqurlashadi. Satrlarda tasvirlangan qahramon o'zi yashayotgan davrning xilma – xil nayranglaridan to'ygan. U endi fusunkor bu zamon va uning nobakor odamlariga ochiq ko'z bilan qarashga ham botinolmaydi. SHuning uchun u atrofida sodir bo'layotgan voqea – hodisalardan ko'z yumish, o'sha noxush manzaralarni ko'rmaslikni afzal deb biladi. Alqissa, satrdan – satrga she'r qahramonining iztirob va alam tug'yonlari alangalanib boradi...

Shoir o'zi yashagan davrning ko'zu qulog'i. U atrofda yuz berayotgan har bir voqeani sinchkovlik bilan kuzatadi, tarqalayotgan gaplarni hushyorlik bilan eshitadi. Ana shu ko'rgan – kechirganlarini badiiy umumlashma sifatida asarlarida aks ettiradi. Ayni ana shunday manzarani biz Alisher Navoiyning turkiy va forsiy she'rlarida ham ko'ramiz. Shoir satrlarida harakat qiluvchi qalbi uyg'oq qahramon o'zi yashayotgan nayrangboz davr va uning ahli o'rtasida turli – tuman illatlarning kuchayganligi, ko'z yoshi va qon to'kilishlarining avj olayotganligidan noliydi. Hatto bu voqealarning tez – tez yuz berayotganligidan fig'on chekadi. Aslida Alisher Navoiy misralarida badiiy umumlashma tarzida yoritilgan bunday lavhalar mavhum narsalar bo'lmay, ularning barchasi o'z hayotiy zaminiga egadir. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, o'sha lavhalar neqizida XV asr ikkinchi yarmining buhronli chizgilari yotadi. Shoirning topqirligi va mahorati shundaki, u ana o'sha lavhalarni go'zal hamda rangin satrlarda badiiy gavdalantirib qoldirgan...





## LA'L-XOM XAYOLLARNI PISHIRUVCHI OTASH...

Taniqli fors — tojik shoiri Usmon Muxtor G'aznaviyning:

**Musulmon kushtan oin kard chashmi nomusulmonash,  
Ba no'gi novaki mujgon, ki purzahrast paykonash,—**

matlali qasidasi soʻz san'atkori yashagan davrda ogʻizga tushib, katta shuhrat paydo qiladi.\* Darhaqiqat, mazkur matla' ham mazmun va ham badiiyat nuqtai nazaridan katta mahorat mahsuli hisoblanadi. Zamon jafolarini koʻrsatish uchun shoir musulmon va kofirlar hamda oshiqu ma'shuqa oʻrtasidagi munosabatlarga murojaat qiladi: Mahbubaning kofir koʻzlari (joduga boy, tim qora shahlo koʻzlar) oshiq joni qasdiga oyoqqa turdilar. Musulmonlarni oʻldirishni odatga aylantirgan kofir ma'shuqa buning uchun kipriklarini ishga soladi. Chunki uning **kipriklari uchi zaharlangan novaklar—nayzalar** singari saf tortganlar. Qarang, ma'shuqaning kipriklari tigʻiz, uzun, qop—qora degan xabarni uquvchiga yetkazish uchun shu qadar koʻp tashbehlariga murojaat qilinadi.

Birin—ketin fors—tojik adabiyotida bu asarning turfa javobiyalari vujudga kela boshlaydi. Shunday qilib, ijodiy musobaqa maydoniga **Adib Sobir Termiziy, Amir Mu'izziy, Sayid Hasan G'aznaviy, Xoqoniy Shervoniy** singari yetuk iste'dod sohiblari kirib, o'sha qasidaga benazir javobiyalar bitishadi. Qizigʻi shundaki, bu an'ana XV—XVI asrlarga qadar yashab keladi. Biroq keyingi asrlarda faoliyat koʻrsatgan qalamkashlar Usmon Muxtor G'aznaviy qasidasiga emas, balki, Xoqoniy Shervoniy madhiyasiga javob aytishadi. Albatta, bunday adabiy hodisaning turlicha izohlari boʻlishi mumkin. Biroq o'sha izohlardan qat'iy nazar, **Sayfiy Isfarangiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Urfiy Sheroziy, Sidqiy Buxoriy, Muhammad Fuzuliy** singari o'nlab soʻz san'atkorlarining Xoqoniy Shervoniyning

\* 1081/ 82—1249 /50 йилларда яшаб фаоллиг курсатган бу шоирнинг тўла номи Ҳақим Баҳоуддин ибн Умар бўлиб, дастлаб "Усмон" тахаллуси билан шеърлар ёзган. Кейинчалик у "Мухтор Газнавий" унвони билан шухрат қозонган.

adabiy ta'sir zaminida yaratilgan javobiyasiga bitilgan tatabbu' – qasidalarini bunyodga keladi. Yuqorida aytilgan gaplar va keltirilgan adabiy dalillar ikki muhim fikrni o'rtaga tashlash imkonini beradi. Birinchidan, qasidachilik maktabi o'z taraqqiyoti tarixida javob aytish, nazira bog'lash, tatabbu' qilishning hayotbaxsh ta'siridan ilhomlangan. Ana shu omillar bu she'riy shaklning mislsiz tashakkulini ta'min etgan. Ikkinchidan, adabiyotlararo aloqa va o'zaro ta'sir rivojida sayyor mavzu va voqealar bilan bir qatorda alohida olingan she'riy janrlarning ham belgisi o'zini hamda hissasi g'oyat muhimdir.

Alisher Navoiy badiiy adabiyotning inson taqdiridagi ijtimoiy vazifasiga g'oyat yuksak baho beradi. Shuning uchun ham uning qalamidan chiqqan asarlar g'oyaviy – badiiy baquvvatligi, insonsevarlik ruhining balandligi bilan diqqatni jalb etadi. Shu gapni ulug' shoirning tatabbulari xususida ham aytish mumkin. Avvalo ta'kidlash joiz, Alisher Navoiy to'g'ri kelgan asarga tatabbu' qilmagan, albatta. Buning uchun u fors – tojik va o'zbek adabiyoti ma'naviy xazinasini sinchkovlik bilan ko'zdan o'tkazgan. Voqea bo'larli asarlarnigina tanlab, ularga javob aytishga jizm etgan. Misol tariqasida birgina dalilni ko'zdan kechirish kifoya.

Amir Xusrav Dehlaviyning **“Daryoyi abror”** falsafiy qasidasi o'z zamonida, shuningdek, so'nggi asrlarda ham anchagina shov – shuvga sabab bo'lgan. Natijada Hindiston, Xuroson, Movarounnahr va Eronning zabardast forsigo'y shoirlari bu qasidaga javob aytish, tatabbu' qilish uchun o'zlarida jur'at his qilishgan.

Ana shu vosita bilan Sharq xalqlari adabiyotida qisqa bir davr ichida **“Daryoyi abror”** tavrda tug'ilgan o'nlab qasidalar yaratilgan. O'sha ijodiy musobaqa badiiy so'z san'ati tarixiy taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ham qizg'in davom etadi. Oradan ko'p fursat o'tmay, faqatgina Hirot adabiy muhitining o'zida **Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Lujjatul-asror”, Sulton Mahmud Mirzo, Shayxim Suhayliy, Kamoliddin Binoiy, Abdusamad Badaxshiy** singari etuk ijod sohiblarining javobiya – qasidalarini vujudga keladi. Shunday ijodiy bahslashuvdan chetda qolishni istamagan Alisher Navoiy o'sha tavrda **“Tuhfat ul-afkor”** qasidasini yaratadi. Bunday ijodiy musobaqalarning yakuni bo'lgan asarlarning nomida, vazn, qofiya va radifida

uyg'unlik, ohangdoshlik sezilsa — da, ularni loqaydona taqlid mahsuli sifatida qabul qilish va baholash to'g'ri emas. Negaki, o'sha she'rlarning barchasida an'anaviylik zamirida ijodiylik, yangilikka intilish ruhi yorqin nazarga tashlanadi. Aniqrog'i, ijodkorlar garchi an'anaviy she'riy unsurlarni qabul qilishgan bo'lsa — da, ularning har biri o'sha tayyor qolipga o'zicha yangi ruh va jon bag'ishladi. Shunday ekan, bunday she'rlarda har bir muallifning o'z nuqtai nazari, orzu — o'yi, dardu armoni, nozik tuyg'u va hayotiy — xayoliy qarashlari ifodlangan bo'ladi.

Aytilgan gaplar tasdig'ini Alisher Navoiyning "Tuhfat ul — afkor" qasidasidan ham topish mumkin. Ulug' shoir umr bo'yi Xuroson davlatining osoyishtaligini ta'min etish, uni obod, xalqini tinch va farovon ko'rish istagi bilan yashadi, shu yo'lda vaqt sarfladi, kurashdi, zaxmat chekdi. Shoirning fikri va talqinicha, ko'zlangan o'sha shirin maqsad hamda tadbirlarni faqat bir yo'l — markazlashgan davlat va uning boshida adolatli shohni qo'yish orqaligina amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ham ulug' shoir asarlarida qayta — qayta davlat va uning idora usuli, taxt va uning hukmroni masalalari ustida qizg'in mushohada yuritadi. Turli yo'llar va vositalar orqali o'sha dolzarb muammolarga murojaat qiladi, uning xilma — xil qirralarini aks ettirishga erishadi. Alisher Navoiyning xoh katta, xoh kichik hajmli nasriy yoxud nazmiy asarlari bo'lsin, ularda podshoh timsolining gavlalantirilishining siri ham ana shundadir. Alisher Navoiy ijtimoiy hayotda ham o'sha izlanishini davom ettirdi. Uning tasavvuriga binoan, davlatchilik tarixida ikki xil podshoh bor: **biri odil va ikkinchisi zolim**. Xuroson davlatini qirq yildan ziyodroq muddat ichida zakovat bilan boshqargan Sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiy nigohida odil podsholarning yorqin vakilidir. U mohir sarkarda (jangda bir paytning o'zida ikki qo'li bilan birday qilich chopadigan), tadbirkor, nekbin va adolatpesha davlat arbobi, salohiyatli shoir, zarif she'rshunos, yuksak odamiylik fazilatlarini o'zida mujassam etgan saxovatli insondir. Ana shunday tarixiy lavhalar zaminida shoir asarlarida muhabbat va nafrat, zamonadan norozilik tuyg'ulari shakllanib, kuchayib boradi. O'shanday ziddiyatli chizgilarni uning "Tuhfat ul — afkor" qasidasida ham his etish mumkin. Ustozlar tomonidan davlat va uning sardori — podshoh masalasining qalamga olinishi Alisher Navoiy uchun to'la qo'l keladi. U go'yo an'anaviy mavzuda javob

aytish jarayonida o'zi yashab turgan davrning illatlarini qalanga olishga, qalbida yashab kelayotgan teran g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarishga muvaffaq bo'ladi.

Shoir talqiniga ko'ra, jamiyatdagi nohaqlik va riyokorliklarning boshida podshoh turadi. Davlatda hukm suradigan adolatsizliklarning ham asosiy sababchisi shu podshohdir. "Tuhfat ul-afkor" qasidasining podshohga qaratilgan nafratangez satrlar bilan ibtido topishi tagida ham ana o'sha tuyg'u yotadi.

**Otashin la'le, ki toji xusravonro zavar ast,  
Axbare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.  
Shah, ki yod az marg n-orad z-o'st vayronii mulk,  
Xusravi be oqibat xusri bilodu kishvar ast.  
Qaydi zinnat masqati farru shukuhi xusravist,  
Sheri zanjiry zi sheri besha kamsavlattar ast.  
Lozimi shohy naboshad xoly az dardi sare,  
Ko'si shah xoliyu bongi g'ulg'ulash dardi sar ast.  
Bo dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az on-k,  
Har ki gone`shud ba xushku tar shahi bahru bar ast...**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 – jild, 2 – kitob, 346 – bet).

Alisher Navoiyning bu satrlari mag'zida ikki his yashirin: Shoir zamon hukmroniga pand-nasihat qilarkan, uni to'g'ri yo'lga boshlamoqchi bo'ladi. Ammo muallifning ana shu nasihati zamirida keskin tanqid aralash bashorat ham aks ettirilgan. Ayni paytda mazkur she'riy qatorlar o'z muallifining katta badiiy jasoratidan ham guvohlik beradi. Bunday baland jur'at va shiddat shoirning yuqorida keltirganimiz keskin tanqid ruhi bilan aytilgan satrlarida yorqin namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy qasidasiga shuhrat keltirgan, unga yashovchanlik hadya qilgan omillardan yana biri badiiy nafosat va shijoat bilan aytilgan fikrlarning nozik, go'zal, bo'yoqdor va nazokatli tarzda ifodalanishidir. Masalan, shohlik ramzi bo'lgan yoqut toj (aniqrog'i, tojga qadalgan qubba) bilan laxcha cho'g' o'rtasida yaqinlik his etgan shoir, ularni yonma-yon tutib tasvirleydi. Chindan ham bu ashyolar o'rtasida tashqi ko'rinishi nuqtai nazaridan monandlik bor. Ammo ular jamiyatdagi vazifasi

jihatidan bir — biriga batamom qarama — qarshidir.

Toj — bezak, mulkdorlik, dabdaba belgisi. Olov esa kuydirish, hayotdagi xom narsalarni pishirish uchun xizmat qiladi. Shoirning mahorati shundaki, bir — biriga mutlaqo zid boʻlgan ana oʻsha ashyolarni “oʻzaro kelishtiradi”, ular oʻrtasida shakliy monandlik koʻradi va oʻzi aytmoqchi boʻlgan jiddiy siyosiy hamda ijtimoiy muddaoni ishoralar yordamida kitobxonga boʻrttirib koʻrsatishga erishadi. Tojda oʻrnatilgan choʻgʻdek yonuvchi laʼl shunchaki bezak, goʻzallik nishonasi emas balki uning tafakkurida charx urib yuruvchi turli xom xayollarni pishirish uchun xizmat qiluvchi vosita — laxcha olovdir...

Qasidaning matlaidan boshlangan ana shunday hujumkorona ruh uning keyingi satrlarigacha oʻshanday shiddat bilan mantiqiy rivojlantiriladi. Muallif taʼkidiga binoan, shoh andishali, uzoqni koʻradigan, qiladigan ishlarini koʻz oldiga keltira olishi, uni muhokama qila bilishi shart. Aks holda, uni va taxtini jiddiy fojealar kutadi. Qasidaning ikkinchi baytida shular xususida muhokama yuritiladi. Bu oʻrinda ham badiiylik, mantiqiy pishiqlik, topqirlik singari mahoratga aloqador noyob fazilatlar shoirga koʻmakka keladi. Oʻsha olijanob xususiyatlar vositasida shoir mazkur satrlarda ham boʻyoqdor va etarli asosini topgan fikrlarni badiiy ifodalashga erishadi. Soʻz oʻyini (iyhom) va talmech badiiy sanʼatiga tayanqan qasida muallifi birgina ishora bilan telba va andishasiz shoh taqdiridan fol ochadi, uning taʼbirini latif bir jiloda aytishga muayassar boʻladi. Yaʼni shoshma — shosharlik bilan harakat qilgan podshohning (Xisrav) boshiga Xisrav Parvizning (“Farhod va Shirin” dostoni etakchi qahramonlaridan biri) fojeasi tushadi, mulki qoʻldan ketib, oʻzi oʻlimga mahkum etiladi. Alisher Navoiyning badiiy ustakorligi shundaki, u baytdan — baytga koʻchgani sayin boʻliq mazmun va badiiyatni kuchaytirib boradi. Shoir tasavvuridagi ibratli pedshohning koʻzi toʻq, nazari baland va u mol — dunyoning quli emas. Zotan bunday fazilatlarga ega boʻlgan mulk sohibi barcha zamonlar uchun, jumladan, Alisher Navoiy davrida ham ushalmaydigan, kitoblardagina namoyon boʻluvchi shirin orzu edi.

“Tuhfat ul — afkor” qasidasini varaqlashda davom etar ekanmiz, unda nafaqat podshohlar, balki faqehlar — qonunshunoslar, qozilar, ilmiga amal qilmagan ulamo (va h.) shaʼniga aytilgan odilona tanqidiy fikr — mulohazalarga ham duch kelamiz. Muhimi shundaki, ulugʻ shoir qayerda, kim haqida fikr

yuritmasin, u hamma yerda ham xalq manfaati, uning istak va xohishi, yurt farovonligini hisobga oladi, o'sha talab – tamoyillar nuqtai nazaridan mushohada yuritadi. Buyuk mutafakkirning adabiy faoliyatidagi bunday yetakchi ijobiy hodisalar uning "Tuhfat ul – afkor" qasidasida ham yorqin nazarga tashlanadi. Qasida muallifining talqinicha, u yashagan zamon qonxo'rlikni o'ziga kasb qilib olgan. Shundan bo'lsa kerak, chor tarafdan jaf va qon hidi anqiydi. Hatto bunday manzara tabiatga, o'simliklar dunyosiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Nafis so'z o'yini va mubolag'a san'ati ishga solingan quyidagi satrlarda o'shanday tuyg'u ustundir.

**Gunbazi axzar, ki xunrezist korash, dur nest,  
Bargi hino axzar omad, lek rangash ahmar ast.**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 – jild, 2 – kitob, 348 – bet).

Bunday favqulodda tashbehli satrlar ijodkorlik qon – qoniga singgan qalamkashning yuksak badiiy mahorati va topqirligidan so'zlaydi. Ayrim kunlarda tabiatda Quyosh botishi oldidan osmon bir go'shasining shafaqqun bo'lishi hodisasi kuzatiladi. Ko'chirganimiz baytda o'shanday manzaraga ishora bor. Birinchi satrda **ko'k** yoxud **moviy** va **shafaq** (qip – qizil) ranglar yonma – yon tutiladi. Shu ishoralar yordamida "falak tabiatida qonxo'rlik illati bo'lmaganida, nega moviyini qon rangi bilan almashtiradi?" – tarzidagi katta ijtimoiy savol ko'ndalang qilib qo'yilgan. Ikkinchi satrda esa o'sha mazmunga yanada quvvat beriladi: Bu tasodifiy holat emas, albatta. Hino o'simligi tabiatida ham shunday manzara kuzatiladi. O'sganida uning yaproqlari ko'm – ko'k. Biroq quriganda, qo'l yoxud oyoqqa xamir qilib qo'yilganda, yashil hino qon rangini oladi. Qarang, katta ijtimoiy fikrning pardapo'sh, ayni zamonda, o'ta badiiy shaklda berilishi ham o'sha mo'jizakor mahorat tuhfasini hisoblanadi. Masalaga yuzaki qaraganda, shoir nigohi ko'k gumbazi.hino o'simligi va uning xossasini ifodali aks ettirishga qaratilganday tuyuladi. Biroq tabiatda kuzatiladigan hayotiy lavhalar vositasida zamon yovuzligi va uning jirkanchligini yanada oshirishga hissa qo'shgan amal sohiblarini fosh etish ulug' shoirning tayanch maqsadi hisoblanadi. Alisher Navoiy qalamining sehri, tafakkuri teranligi "Tuhfat ul – afkor" qasidasining shu ikki satri misolida

ham yorqin namoyon bo'ldi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy asarlari kitobxonda nafaqat shoir yashagan davr haqida tushuncha hosil qiladi, balki, unga tabiatshunoslikdan ham bilim berib, tasavvurini yanada kengaytirishga hissa qo'shadi. Shundan bo'lsa kerak, ushbu qasida besh asr davomida nazm shinavandalarning e'tiborini o'ziga tortib keladi. "Tuhfat ul—afkor" turli asrlarda yaratilgan tazkira va tarixiy asarlarda Alisher Navoiy fors—tojik tilidagi adabiy merosining gultoji sifatida yashab keldi. Hatto, sobiq sovet navoiyshunosligida Navoiy—Foniy merosini o'rganishning debochasi ham ana shu she'riy asar bilan boshlanadi. Shuningdek, "Tuhfat ul—afkor"ni o'zbek kitobxonlariga etkazish, ular uchun mazkur qasidani o'z ona tillarida o'qish imkoniyatini hozirlash sohasida ayrim ishlar amalga oshirilgan. Bunday sharaflı vazifani taniqli adabiyotshunos A.H.Hayitmetov ado etdi (ushbu qasidaning 134 misrasi shu olim tomonidan o'zbekchalashtirilib, sharhu izohlar bilan e'lon qilingan. Qarang: "Sovet O'zbekistoni", 1966 —yil 15 — iyul).

Alqissa, "Tuhfat ul—afkor" ulug' Navoiy mo'jizaviy qalamining nodir yaratmasi sifatida she'riyat muhoblari qalbida yashashda davom etayotir...

## TATABBU'—SHARTLI ISHORA...

Alisher Navoiyning tatabbu' g'azallarini nazardan o'tkazar ekanmiz, uning javobiya aytish an'analaridan anchagina chetga chiqqanligining guvohi bo'lamiz.\* Ulug' o'zbek shoirining bunday harakati ko'proq mavzuning rang—barang, badiiy bo'yoqdor va ravon qirralarini kashf etish, o'z maqsad—muddaosini ifodalash uchun urinishida ravshan namoyon bo'ldi. Buning uchun Abdurahmon Jomiy va Alisher Foniyning bittadan g'azallarini qiyosiy tahlil qilib ko'rish foydadan xoli bo'lmaydi.

Abdurahmon Jomiy:

---

\* Tatabbuga luqatlarida "pайравлик қилиш, изидан тушиш, жавоб айтиш, эттириш" тарзида шарҳлар берилади.

Rezam zi mija kavkab be mohi ruxat shabho,  
 Torik shabe doram bo in hama kavkabho.  
 Chun az dili garmi man bugzasht xadangi tu,  
 Az bo`sai paykonash shud obilaam labho.  
 Az baski giriftoron murdand ba ko`i tu,  
 Bodash hama jon boshad, xokash hama qolabho.  
 Az tobu tabi hijron guftam suxani vaslat,  
 Bud in hazayon, ore, xosiyati on tabho.  
 To dast barovarui z-on g`amza ba xunrezy,  
 Bar charx ravad har dam az dasti tu "Yo rabho".  
 Shud nasx xati yoqut, aknun hama ra'noyon,  
 Ta'limi xat az la'lat girand ba maktabho.  
 Jomy, ki pai mazhab atrofi jahon gashty,  
 Bo mazhabi ishq i tu gasht az hama mazhabho.

(Abdurahmoni Jomi. Asarhoi muntaxab dar panj jild. Jildi 1, Dushanbe, 1964, sah.12).

#### Navoiy-Foniy:

Be ro`i tu shud tira az ashk maro shabho,  
 Ravshan nashavad shabho, be moh zi kavkabho.  
 Az tiragii hajrat shud ro`zu shabam yakson,  
 K-az shab siyaham ro`z ast v-az ro`z siyah shabho.  
 Ushshoq, ki az hajrat gardida tihi qolab,  
 Boz az labi jonbaxshat jon raft ba qolabho.  
 Be qaddi tu dar bo`ston har shox, ki purbarg ast,  
 Morest, maro k-az vay ovexta aqrabho.  
 Yak qatra may, ey soqy, bas kard mayam, lekin,  
 Z-on may, ki turo gardad oluda ba on labho.  
 Man masti sharob, ey dil, zuhhodu g`ami kavсар,  
 Dury buvadam z-eshon az durii mashrabho.  
 Dar dayri mug`on, Fony, yak jom chu zad aknun,  
 Yak jomi digar xohad bo nolayu "Yo rabho".

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 - jild, 1 - kitob, 38 - bet).

Mazkur g`azalni Tojikiston fanlar akademiyasi akademigi A.M. Mirzoyev Navoiy - Foniyning Jomiy g`azaliga tatabbui





sifatida (Qarang: A.Mirzoyev. Alisheri Navoy va Abdurahmoni Jomy. Dushanbe, "Irfon"—1968, sah.46—47) keltiradi. Biroq "Devoni Foniyy"ning Toshkent nashridagi sarlavhada "**Tatabbui Mir**" tarzida ketgan. Amir Xusravning "Osori muntaxab"ida (Dushanbe, 1975) esa yuqorida ko'chirganimiz g'azallarning uslub, radif va g'oyaviy—ma'naviy ruhiga monand ikki she'r mavjud. Amir Xusrav, Jomiy, Navoiy Foniyyning eslatganimiz g'azallari solishtirilganda, ular o'rtasida har jihatdan yaqinlik borligi aniqlandi. Ammo vazn va ohangdoshlik nuqtai nazaridan Navoiy—Foniyy g'azali Jomiy she'riga birmuncha yaqin turadi. Fikrimizcha, shu dalil misolida adabiyotlararo (yanada aniqrog'i, asarlararo) aloqa va o'zaro ta'sirning doira bo'ylab harakati ko'zga tashlanadi. Ya'ni, Amir Xusrav g'azaliga Jomiy va Jomiy she'riga esa Navoiy—Foniyy tatabbu' qilgan ko'rinadi.\* Shu tarzda mantiqiy yakunga kelish mumkinki, izdoshlik an'anasi va shartlilik zanjiri o'z harakatini asrlarosha rangba—rang ko'rinishlarda davom ettirgan. Ikkinchidan, "Devoni Foniyy"dagi sarlavhalarni hamma vaqt ham katta ishonch bilan qat'iy tarzda qabul qilmasdan, ularga tanqidiy munosabatda bo'lish, chog'intirish, aniqlash zarurligini esdan chiqarmaslik lozim. Navoiy—Foniyy forsiy devoni ilmiy—tanqidiy matnining yaratilishigina bunday chalkashliklarga nuqta qo'yishi mumkin...

Tahlil uchun tanlab olingan har ikkala g'azalning ham mavzui bir—ishqu oshiqlik. Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning o'ynoqi bu g'azaliga javob aytishga jazm etar ekan, uning tayanch mavzuini saqlash bilan bir qatorda, qofiyalarini ham deyarli aynan takrorlashga harakat qiladi. Navoiy—Foniyy g'azalida qo'llangan ikki qofiyadosh so'zgina (**aqrabho**, **mashrabho**) Jomiy she'rida uchramaydi. Masalaga she'rning shakliy unsurlari nuqtai nazaridan e'tibor qilinadigan bo'lsa, bu g'azallarda go'yo o'sha ikki so'zdan boshqa tafovut yo'qday ko'rinadi. Ammo an'anaviy mavzu talqini, bayotiy lavhalarni tanlash, uni she'rga kiritish, shoirning o'rtaga qo'yilgan g'oyaviy niyati jihatidan har ikki g'azal muqoyasa qilinadigan bo'lsa, ular o'rtasida jiddiy shakliy—g'oyaviy farqlar borligi ochiq—oydin ko'zga tashlanadi. Yuqorida ko'chirganimiz she'rlarning matlaida

---

\*Yuqorida ba'ён қилинган мулоҳазаларга таъиниб биз Жомий ва Навоий — Фониий газалларини қиёсий йўсинда ўрганишни асосим топдик.

ham gap g'azal qahramoni — oshiqning ma'shuqadan ayriliq damlaridagi ruhiy holati ustida boradi. Ammo, ana o'sha holat (Hijron iztiroblari) tasvirida ham o'ziga xoslikka intilish alomatlarini yaqqol zuhur etadi. Abdurahmon Jomiy she'ri matlaida mahbuba jamoli oyga, uning shaydosi bo'lgan oshiqning ko'zidan oqqan yoshlar esa yulduzlarga nisbat beriladi. Oshiq kechalari yorini intiq kutadi, va'dasiga zid "harakatlar" qiluvchi mahbubaning hajrida behad ko'p ko'z yoshi to'kadi. Ana shu iztiroblari tufayli uning qalbini zim — ziyo zulmat qoplaydi. Alisher Navoiyning misralarida ham ayrimlari tilga olingan o'sha lavhalar saqlanadi. Ya'ni yor jamoli oyga, oshiqning ko'zidan oqqan ashklar yulduzga qiyoslanadi. Aslida bu tashbehtar Sharq xalqlari adabiyotida tasvirlanadigan muhabbat mavzuining doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Jomiy va Navoiygacha va ulardan so'ng ham ayni an'anaviy o'xshatishlar o'sha yo'lda beminnat xizmat qilib keldi. Lekin sinchkov ijodkorlar qalamida zikri o'tgan an'anaviy tashbehtarining yangi — yangi olmos qirralarini kashf etishga intilish mayli ham amal qiladi. Shunday urinish Alisher Navoiyning yuqoridagi baytida ko'zga tashlanadi. Aniqrog'i, Navoiy — Foniylar Jomiy g'azalidagi tashbehtni saqlagani holda, uni yangicha jiloda o'z o'quvchilariga taqdim etadi...

Navoiy — Foniylar talqinidagi oshiq ham zo'r rag'bat bilan o'z mahbubasini kutadi, biroq undan darak yo'q. Hijron iztiroblari qirdobida qolgan oshiq behad ko'p yosh to'kadi, uning qalbini xufton qorong'uligi qoplaydi. Shoir ana shu tun qorong'uligi va oshiq qalbining xiraligi o'rtasida vobastalik ko'radi. She'rda ta'kidlangan ayni ikki manzaraning badiiy tasviri chuqurlashib boradi. Alisher Navoiy tasviriga binoan, oshiq yuragining xiraligi tunga (shomga) ta'sir ko'rsatib, uning yanada qorong'ulashib qolishini, zulmat quyug'ligini ta'min etgan. Buyuk Alisher Navoiy tabiat qonuniyatlari, osmon jismlari, sayyoralar va ularning harakat hamda holatidan g'oyat teran xabardor so'z san'atkoridir. Uning asarlaridagi sarhadsiz qaydlar o'shanday xulosa chiqarish asosini beradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, she'r muallifi tasvir talabiga mahliyo bo'lib, hayot haqiqatining buzilishi, mazmun butunligiga dog' tushishi uchun yo'l qo'ymaydi, qat'iy me'yorga amal qiladi. Tabiat qonuniga ko'ra, tunning yog'duli bo'lishi ko'pincha oyning harakat va holatiga bog'liqdir. Oyning shu'la sochishi uchun imkon bo'lmagan samoda yulduzlar ham ko'rinmay qoladi. Bu haqiqat ulug' o'zbek

shoiri uchun oshno. Shoir qalamga olgan mavzu, tasvir uchun tanlangan she'r qahramoni — oshiqning ma'naviy—ruhiy kayfiyati ham o'shanday manzarani taqozo etadi. Oshiq o'z suyuqli mahubasini intiq va intizorlik bilan kutadi. Mahubadan darak bo'lmagach, hijron azobida qolgan jabrdiyda oshiq dardli fig'on chekadi, behisob ashk to'kadi. Uni ana shunday tang ruhiy—ma'naviy holatdan faqat mahubagina chiqara olishi mumkin, xolos...

Shoir ayrimlarigina eslatilgan lavhalarni badiiy bo'yoqdor ifodalash uchun yana samo, oy, yulduzlarning harakati, xossalari va ularga doir rivoyatlarga murojaat qiladi. Bir jihatdan u shunday yo'l tutishga majbur. Negaki, Alisher Navoiyning ruhiy dunyosiga ta'sir etgan, uni javob aytishga undagan g'azalda o'sha sayyorlar ishtirok etadi. Sharq xalqlari adabiyotida javobiya aytishning talab — tamoyillari ham ularning imkoni boricha saqlab qolinishini taqozo etardi. Qayd etilgan ikki maqsad hosilasi sifatida maydonga kelgan misralar badiiy fikrlash jihatidan juda go'zal va ijodiy chiqqan. Abdurahmon Jomiy g'azalidagi "Behisob yulduzlar bo'lsa — da, tunim qorong'u" tarzida aks ettirilgan mazmunni tashuvchi misra Alisher Navoiyning sehrli qalami tufayli "Oysiz tun yulduzlar bilan yorug' bo'lolmaydi" sifatida aks—sado beradi. To'g'ri, har ikkala so'z san'atkori she'riy qatorlarida ham so'zlarni o'ynatish (asl va ramziy ma'nolarini kashf etish) san'atining kuchli ifodasi nazarga etadi. Buni misralardagi birgina "kavkab" (kavkab — yulduzlar, ko'z yoshi) so'zi misolida yorqin ko'rish mumkin. Ammo Alisher Navoiy misrasida takrordan qochish bilan bir qatorda, g'oyaviy niyatning aniq ifodalanishiga (chunki yulduzli tunlarning nursizligiga sabab oydin) intilish mayli yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ravshan bo'layotirki, an'anaviy mavzu, timsol va tashbehlar muayyan ijodkorning mavzuga yangicha yondashuvi mayliga monelik qilolmas ekan. Alisher Navoiyning g'azali matlaida ibtido topgan uslubiy "mustaqillikka" ega bo'lgan bunday harakat she'r maqtaiga qadar izchil davom etadi. Abdurahmon Jomiy g'azalida matladan so'nggi baytda ma'shuqa suratining ayrim belgilari chiziladi. Xususan, mahubaning oshiqni maftun qiluvchi paykoni — kipriklari va u keltirgan jarohatlar tasviri o'ziga xos urg'u bilan beriladi.

Alisher Navoiy g'azalida esa she'rxon o'zgacha manzaraga duch keladi. Ulug' o'zbek shoiri matlada kelgan oshiq ruhiy olami

tasvirini undan keyingi misralarda rivojlantiradi. Aniqrog'i, ma'shuqa hijroni uyg'otgan iztirob azoblarining davomi sifatida beriladi. Oshiq uchun ma'shuqasiz o'tgan damlar, uning kecha yo kunduzligidan qat'iy nazar, xufton zulmatiga teng. Ko'rinadiki, Alisher Navoiy baytlarida matla' bilan mantiqan uzviylik, vobastalik mavjud. Ayni choqda, Jomiy g'azalidagi bayt mazmunidan tafovutli jihatlari ma'lum bo'lib qoladi. Tahlil qilinayotgan har ikkala g'azalda ham she'r qahramoni boshiga ishq olamso'z solgan turli savdolarning badiiy ifodasi davom etadi. Abdurahmon Jomiy g'azalining uchinchi baytida mahbubaning surat va siyratiga aloqador fazilatlar madh qilinadi. SHoir talqinidagi yor xushbichim va dilbar, sitarasi (yulduzi) issiqqina. Shuning uchun uning maftunlari ko'p. Muhimi, unga shaydo bo'lganlar oddiygina oshiqlar bo'lmay, balki, ishq mulkining haqiqiy fidoyilaridir. Ular o'z bisotidagi hamma narsani, hatto, jonu qalbini ham ishq yo'lida nisor etishga tayyor...

Alisher Navoiy tasviridagi oshiq va ma'shuqa ham yuqorida aytilgan sifatlardan xoli emas. Biroq ulug' o'zbek shoiri Abdurahmon Jomiy g'azalidagi qofiyalarni aynan saqlagani holda, she'r qahramoni kayfiyati, ruhiy olami tasvirini chizishda ijodiy yo'l tutadi. Aniqrog'i, oldingi baytlarda bo'lgani kabi, tahlil etilayotgan misralarda ham o'z uslubiga, tasvirdagi uzviylikka rioya qiladi. Shoir uchun matladagi hajr go'yo mantiq markazi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, g'azalning so'nggi misralaridagi fikr rishtalari o'sha markazdan boshlanadi va shu markazga borib tutashadi. Aytilgan fikr tasdiqini g'azalning uchinchi baytida ham ko'rsa bo'ladi. Bu o'rinda gap ana o'sha hijronga bog'lanadi. Mahbuba hajri dastidan oshiqlar qalbdan judo bo'ldilar. Ya'ni jon bilan vidolashadilar. Qo'ldan ketgan ko'ngilni qaytarish, unga jon ato etishning iloji bor. Biroq bunday qiyin ishni faqatgina ma'shuqa uddalay oladi, xolos.

Ravshan bo'layotirki, mazkur baytda ham ma'naviy pir va murid qalami tuhfa etgan misralar o'zgacha mazmun, ayricha ma'no tashiydi. Aslida bundan — da mutlaqo boshqacha holatni tasavvurga keltirish ham qiyin. Chunki har bir inson o'zicha bir dunyo va uning atrof — muhitda kechayotgan voqea — hodisalarga o'z mustaqil nigohi mavjud. Yuqorida nazardan o'tkazilgan jarayonlarni bu ikki buyuk so'z san'atkorining tahlil qilinayotgan g'azallarining keyingi to'rt baytida ham ko'ra olamiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, amalga oshirilgan engil

tahlillar shohid, "Devoni Foniyl"da har bir g'azaldan oldin kelgan sarlavhalar (ixtiro g'azallar bundan mustasno) o'ta nisbiy mohiyat kasb etadi. Bunday ta'kidning isbotini keyingi sahifalardagi qiyoslardan ham ravshan ko'ra olamiz...

## RINDI OLAMSO'Z SHE'RIYATI UYG'OTGAN LAZZAT...

Alisher Navoiy ijodida chuqur iz qoldirgan so'z san'atkorlaridan yana biri Xoja Hofizdir. Hofiz — dilbar she'riyat meros qoldirgan ijodkor. Uning o'ynoqi, yuksak mahorat bilan aytilgan bo'liq mazmunli she'rlari Sharq — u G'arbda dovuq taratgan. Shuning uchun ham Hofizga ergashish, undan o'rganish, uning she'rlariga javob aytish, tatabbu' qilish, muxammas bog'lash badiiy so'z san'ati mulkida tabarruk an'ana sifatida yashab keladi. Ana shunday ulkan ijodkor ma'naviy merosi Alisher Navoiy e'tiborini ham o'ziga tortadi. Shu boisdan ham **"Navoiy Hofizni dohiy san'atkorlardan biri deb tanigan, u bilan bir umr qiziqqan, o'z poetik ijodida uning eng ilg'or g'oyaviy — badiiy an'analarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirgan"** (Hayitmetov A. Alisher Navoiy Xoja Hofiz haqida. "O'zbek tili va adabiyoti". 1971, 5 — son, 12 — b.).

Alisher Navoiy adabiy merosida Xoja Hofiz tavrada, uslub va ta'sirida bitilgan asarlar salmoqli o'rinni tashkil etadi. Ulug' shoirning Xoja Hofiz she'rlariga aytgan javobiyalari uning fors — tojik tilida bitilgan g'azallarining yarmidan ko'pini (237 g'azaldan ziyodroq) tashkil etadi. Zero, ulug' o'zbek shoirining o'zi ham **"Muhokamat ul-lug'atayn"** asarida "Devoni Foniyl" tarkibidagi she'rlar aksariyatining Xoja Hofiz tavrada ekanligini alohida qayd etadi.

Alisher Navoiy Hofiz she'riyatiga ayricha ixlos va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi, undan o'rganib ilg'or adabiy — badiiy an'analarini ijodiy davom ettiradi, unga yangiliklar qo'shgan holda kelajak avlodlarga meros qoldiradi. Biroq Alisher Navoiy Xoja Hofizga hech qachon taqlid qilib, bu etuk so'z san'atkori ilgari surgan hayotbaxsh g'oyalarni aynan takrorlagan emas...

Ulug' o'zbek shoiri uchun mavzuga yangicha

munosabatda bo'lish, an'ana zamirida o'z so'zini aytish, davri jarohatlarini zukkolik bilan ilg'ash va navoiyona badiiy umumlashtirish bosh mezon bo'lib xizmat qilgan. Buni biz Navoiy Foni va Hofiz bittadan she'rlarining qiyosiy tahlili jarayonida yanada yorqinroq ko'rishimiz mumkin.

### Hofiz She'roziy:

Dil saropardai muhabbati o'st,  
Dida oinadori tal'ati o'st.  
Man, ki sar bar nayovaram ba du kavn,  
Gardanam zeri bori minnati o'st.  
Tuvu to'bivu movu qomati yor,  
Fikri har kas ba qadri himmati o'st.  
Gar man oludadomanam, chi ziyon,  
Hama olam guvohi ismati o'st.  
Man ki bosham dar on haram, ki sabo,  
Pardadori harimi hurmati o'st.  
Davri Majnun guzasht, navbati most,  
Har kase panj ro`za navbati o'st.  
Fikri zohir mabin, ki Hofizro,  
Sina ganjinai muhabbati o'st.

(Hofizi She'rozy. Muntaxabi g'azaliyot. Dushanbe, 1967, sah.46).  
Ushbu g'azal Hofiz g'azaliyotining yangi nashrida (1991) jiddiy kalbiy o'zgarishlar bilan berilgan. Oldingi nashrida g'azalning baytlari soni 7 yoxud 14 misra edi. So'nggisi esa 11 bayt, 22 misradir).

### Navoiy-Foni:

Dar dilam otashi muhabbati o'st,  
Obi chashmam zi dudi furqati o'st.  
Nest dudi dilam ba hay'ati sarv,  
Az dilam rasta sarvi qomati o'st.  
Labi la'lash, ki shud mayoluda,  
Chashmam oluda xun zi hasrati o'st.  
Raxshash abri baloyu lam'ai na'l,  
Dar gahi po'ya barqi ofati o'st.



**Gar zalilam ba ishq—u may, ey Shayx,  
In mazallat ham az mashiyati o`st.  
Bandai piri dayram, ey zohid,  
Ki farog`am zi durdi suhbatı o`st.  
Foniyo, dilbari xaroboty,  
Ki fano hosilash zi xidmati o`st.**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 — jild, 1 — kitob, 122 — bet).

Alisher Navoiy Hofiz g`azallariga javob aytar ekan, ayrim o`rinlarda nazirachilikning barcha shakliy talablariga rioya qiladi. Shu qatorda javobiya aytish uchun tanlab olingan she`rning misralar miqdorini saqlab qolish ham bor. Ma`lumki, Hofiz g`azallarining ko`pgina qismi etti va to`qqiz baytlidir. Alisher Navoiy masalaning ana shu tomonini ham diqqat markazida tutgani holda, etti va to`qqiz baytli tatabbular yaratgan. Jumladan, yuqorida keltirilgan she`rlarning har ikkalasi ham etti baytli hisoblanadi. Ulug` o`zbek shoiri Hofiz she`riyatiga qiziqib, uning izidan borar ekan, u **“rindi olamso`z”** (Navoiy Hofizni shunday ataydi) g`azallariga payravlik qilishda rang ba rang vositalarga suyanadi. Alisher Navoiy ayrim tatabbularida an`anaviy nazmiy unsurlar — qofiya, radif, timsol va tashbehlarni saqlab qolgani holda, g`azalning g`oyaviy ruhini o`zicha yo`naltirgan bo`lsa, boshqa she`rlarida yanada yangicha uslubiy jilolarga tayanadi.

Masalan, Navoiy — Foniyning Jomiy g`azaliga aytgan javobiyasida asliyatda ishlatilgan deyarli barcha qofiyalarning saqlab qolingligining guvohi bo`lgan edik. Hofiz g`azaliga qilingan yuqoridagi tatabbuda esa ana o`sha an`anadan ma`lum darajada chekinish holatlari sodir bo`ladi. Chunonchi, Alisher Navoiy Hofiz g`azalida qo`llangan ikki qofiyadosh so`zni saqlagani holda, qolganlarini o`zgartirgan. Buning boisi, Navoiy — Foniyning o`z she`riga mutlaqo yangi ma`no va g`oyalarni olib kirganligida namoyon bo`ladi. Ravshan, ulug` shoir shakl uchun mazmunni qurbon qilish tarafdori emas. Darhaqiqat, Foniy Hofiz g`azalida foydalanilgan sakkiz qofiyadosh so`zdan atigi bittasini (muhabbati) saqlab qolganligida ham o`sha harakat kuzatiladi.

Ulug` o`zbek shoirining tatabbu' — g`azalida uchraydigan yangilik faqat shundagina iborat emas, albatta. Foniy misralarida

uning shaxsiy kuzatishlari, serqirra dunyoqarashi chuqur iz qoldirganki, shubhasiz, ular gʻazal oʻhorini koʻtarishga hissa boʻlib qoʻshilgan Hofiz gʻazalining matlaida gap muhabbat xususida boradi. Biroq fors shoiri talqinidagi muhabbat birmuncha mavhum, umumlashma tarzda yoritiladi. Hofiz gʻazalidagi faqru lano, ilohiy muhabbat bilan bogʻlanadigan lavhalar Navoiy — Foniylar sheʼrida ham maʼlum darajada saqlanadi. Ammo **“Sheroz sehrgar”** iga izdoshlik qilgan ulugʻ oʻzbek shoiri oʻsha anʼanaviy sheʼriy aslahalarni oʻzicha navoiyona jiloda talqin va tasvirlashga harakat qiladi. Yana ahamiyatli jihati shundaki, Navoiy — Foniylar gʻazalida dunyoviylik kayfiyati birmuncha boʻrtibroq koʻrinadi. Mazkur masalada garchi har ikki ijodkorning tayanch gʻoyaviy yoʻnalishida mushtaraklik boʻlsa — da, ularning uslubi va dunyoqarashida kuzatiladigan oʻziga xoslikni esdan chiqarmasligimiz lozimki, oʻsha jihat dunyoga keladigan satrlarda oʻzidan darak berib turadi va misralardagi ijodiylikning asosiy omili boʻlib xizmat qiladi.

Abdurahmon Jomiy gʻazaliga qilingan tatabbuda boʻlgani kabi, bu oʻrinda ham Alisher Navoiyning voqeabandlikka ishtiyoq bilan qaraganligini his qilish qiyin emas. Buning uchun ulugʻ oʻzbek shoiri sheʼrida qoʻllangan dalillarning xossalariga va mantiqan uzviylikka amal qiladi. Shu zaminda, Alisher Navoiy aksariyat gʻazallarida bir — biriga mazmunan aloqador baytlar vujudga keladi. Bunday misralarda gapdan gap tugʻiladi. Jumladan, Hofiz Sheroziy gʻazaliga qilingan tatabbuning matlaʼ va undan soʻnggi baytida shunday holat namoyon boʻladi. Tatabbuʼ — gʻazal matlaida ishq va uning iztiroblari xususida gap boradi: Oshiqning dili lov — lov yonadi, goʻyo unda laxcha choʻgʻ bor. Uning koʻzlaridan qatra — qatra yosh oqadi. Buning boiskori ham ishq. Maʼshuqa firoqida oshiqning choʻgʻdek yongan yuragidan tutun chiqadi. Oʻsha tutun uning koʻzlariga taʼsir qilib yoshini shashqator qiladi. Qarang, ikkigina misrada qanchalik teran mazmun mujassam. Ayni satrlarda sheʼr qahramonining ziddiyatli ruhiy holati ham ancha taʼsirchan yoritilgan. Biroq, shoir oʻz gʻoyaviy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qila olishi mumkin boʻlgan ayrim soʻz va narsalar (ashyolar) bilan matladayoq “xayrlashib” qoʻya qolmaydi. Aksincha, ularni sharhlash, yangi — yangi maʼno qirralarini chizishda davom etadi. Shunday lavhalardan biri “dil tutuni” dir. Shoir ikkinchi baytni ana



shu ibora asosida quradi. Buyuk mutafakkir ko'ziga she'r qahramoni — oshiq qalbidan chiqayotgan tutun o'zgacha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Odatan, tutunning samoga ko'tarilishi rang ba rang manzaralarda amalga oshadi. Aniqrog'i, o'sha jarayonda xilma — xil holat va ko'rinishlar hosil bo'ladi. Ana o'shanday oddiy hayotiy hodisadan Alisher Navoiy nafosat topadi. Zikri o'tgan topilmani bo'yoqdor, nafis va ta'sirchan qilib kitobxon hukmiga havola etadi. Shoirning talqinicha, oshiq dilidan toshib, osmonga o'rlayotgan narsa oddiy tutun emas, sarv ko'rinishidadir. Aslida u oddiy sarv daraxti ham emas. Oshiq dili zaminida ma'shuqaning sarv misol qomati o'sib, osmonga bo'y cho'zmoqda. Qarang, qanday nozik, ta'sirchan va mahorat bilan o'rtaga qo'yilgan rangin tasvir bu!

Alisher Navoiy badiiy so'z san'atining jamiyat oldidagi vazifasini keng ma'noda tushunadi va talqin etadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, u asarlarida quruq va balandparvoz gaplar aytishdan ko'ra, foydali, samimiy, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan mulohazalarni o'rtaga qo'yish yo'lidan boradi. Ulug' o'zbek shoiri ijod maktabi uchun hal qiluvchi tamoyilni tashkil qiluvchi bu holat, uning tatabbu' — g'azallarida ham yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, tahlil qilayotganimiz g'azalda ma'shuqa suratining ayrim alomatlarini qalamga olinadi. Yorning labi ko'proq muallifning diqqatini jalb etadi. Odatan, lab haqida gap ketganda, u albatta, la'l va aqiqqa (bu o'rinda rang va qiymat diqqat markazida tutiladi) nisbat beriladi. Navoiy — Foniylar g'azalida ham o'sha an'ana saqlangan. Biroq Navoiy uni birmuncha kuchaytirishga intiladi. Mahbubaning la'lsimon labi mayga bo'yalgan. La'l qizilroq, may esa qip — qizil, demak, yorning labi to'q qizil rangda hamda o'ta jozibali bo'lib ko'rinadi, oshiqqa. Shu o'rinda adabiy hayotda mavjud bo'lgan yana bir nozik jihatni ham eslatishga to'g'ri keladi. G'azal muallifi yor labining qizilligini shunchaki, eslatib qo'yishi ham mumkin edi. Biroq u hayot manbayi bo'lgan (oshiq uchun) mahbuba labining qizilligini eslatish bilan birga, uning mayga bo'yalganligiga ham urg'u beradi. Ayni kichkina, hatto, e'tibor qilishga arzimaydigan nuqta ikki jihatdan she'r nafosatini oshirishga xizmat qilgan. Birinchidan, shoir tasviridagi jonbaxsh labning joziba quvvatini ko'tarishga ko'maklashgan. Negaki, quruq bo'yoqdan ko'ra, obdor rang, qaqragan labga nisbatan namli lab dilkashroq, jozibroq bo'ladi. Ikkinchidan, zikri o'tgan birgina ishora bilan

shoir tahlil qilinayotgan bayt so'nggi misrasida aytilishi lozim bo'lgan fikr uchun mo'tadil zamin hozirlagan.

Alisher Navoiy misralarida tilga olingan jism bo'laklari hamda ashyolarning holat va ko'rinishlarini tartibli ( mantiqiy ketma — ketlikda) va mutanosib bo'lishiga erishish uchun ham astoyidil intilgan. **Mayolud lab** va **qonga to'lgan** ko'z holatining tasvirida buni yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. Shuningdek, ayni satrlarda mumtoz she'riyat uchun xos bo'lgan turli ishoralarda zamon illatlarini "qistirib" o'tish hodisasi ham ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, alam hamda hasratdan qon talashgan ko'zlar tasviri ostida o'shanday ishoralar yotganday tuyuladi. Alisher Navoiy yashagan XV asrning ikkinchi yarmi, xususan, uning so'nggi yillarida hasrat ham, zulmu haqsizlik ham avjiga chiqqan, nohaq tahqiru haqoratlar, qon to'kishlar kuchaygan edi. O'zi yashagan davrning ilg'or fikrli, yuksak e'tiqodli mutafakkiri Alisher Navoiy uchun o'sha jarohatlarning barchasi og'ir ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun u hayotda erisholmagan niyatlarini, orziqib kutgan bashoratlarini qog'ozda, turli qahramonlar faoliyati timsolida, rang ba rang ishoralarda yozib qoldirish uchun harakat qilgan. Shoirning Shayx va zohidga murojaati, mayni ulug'lashi, mavjud hayotdan etak qoqib, fanoni qo'msashida ham o'sha norozilik kayfiyati yotadi. Alisher Navoiy tatabbu' — g'azallarida nazarga tushadigan bunday o'rinlar buyuk mutafakkir yashagan zamon bilan izohlanadigan lavhalar bo'lib, o'z ijodkorining nekbinligi, ijodiy mushohada yuritishga, mehnatkash xalq tarafida turib uning manfaatlarini himoya qilganligidan so'zlaydi...

## TOSHNI HAM TITRATGAN HIJRON...

Ma'lumki, har qanday ustoz ijodkorning hamma she'rlari o'zining g'oyaviy yo'nalishi, mazmuni, badiiyati nuqtai nazaridan bir saviyada bo'lmaydi. Ana shu adabiy haqiqatni hisobga olgan Alisher Navoiy tatabbu' uchun she'rlarni qattiq saralash yo'lidan boradi. Qalb torlarini chertishga, qitiqlash va vujud — vujudini jumbushga keltirishga yaroqli g'azallargagina javobiya aytishga kirishadi. Uning bunday ijodiy izlanishi Shayx Sa'diy g'azaliyotiga

munosabatida ham oydin namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, fors — tojik adabiyoti gulshanining bu xushovoz bulbuli tilidan chiqqan mana bu o'ynoqi g'azal har qanday shaxsni, qalamkashni o'ziga maftun etmay qo'ymaydi, albatta.

**Bigzor, to bigir`yam, chun abr dar bahoron!  
K—az sang nola xezad ro`zi vidoi yoron!  
Har k—o` sharobi furqat ro`ze chashida boshad,  
Donad, ki saxt boshad qat'i umedvoron.  
Bo sorbon bigo`ed ahvoli obi chashmam,  
To bar shutur nabandad mahmil ba ro`zi boron!  
Bigzoshtand moro dar dida obi hasrat,  
Gir'yon chu dar qiyomat chashmi gunohkoron.  
Ey subhi shabnishinon, jonam ba toqat omad,  
Azbaski der mondy chun shomi ro`zadaron!  
Chandin, ki barshumurdam az mojaroi ishqat,  
Ando'hi dil naguftam, illo yak az hazoron.  
Sa'dy, ba ro`zgoron mehre nishasta bar dil,  
Berun nametavon kard illo ba ro`zgoron!  
Chandam kunam hikoyat, sharh in qadar kifoyat,  
Boqy nametavon guft, illo ba g`amgusoron.**

(Sa'dii Sherozy. Muntaxabi g'azaliyot. Dushanbe, 1977, sah.282).

Foniy — Navoiyga Hazrat Sa'diyning shu g'azali yoqqan, uning ilhomini jo'shdirgan, ijodiy musobaqa maydoniga da'vat etgan. Natijada ulug' o'zbek shoirining quyidagi javobiya g'azali paydo bo'lgan. O'sha she'r xususida yaxlit tasavvur paydo qilish uchun har ikkala she'r matnini muqoyasa qilish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun quyida Navoiy — Foniy tatabbu' — javobiya g'azalining ham to'la matnini ko'chiramiz:

**Soqy, hayot baxshad chun bodi navbahoron,  
Chun abr raxti hasti k—ash so`i ko`hsoron.  
Xotir suxan shunav kun, daftar ba may garav kun,  
Dar tavri faqr nav kun oyini komgoron.  
Bod az Maseh damzad, lola ba ko`h alamzad,  
Xush bod k—o` qadam zad on so` ba xayli yoron.  
Makun ba mayparasty, devonagiyu masty,**

**Gu, shav zi rangi hasti sharmanda hushyoron.**  
**Zuhhod shud nishona, dar mehnati zamona,**  
**Az bodai mug`ona xushvaqt maygusoron.**  
**Budam ba ro`z xurram v-az ro`zgor beg`am,**  
**K-o`, ey rafiqi hamdam, on ro`zi ro`zgoron.**  
**Fony buvad ba shevan, k-az davri charxi purfan,**  
**Ham do`st gasht dushman, ham jumla do`stdoron.**

(Alisher Navoiy. 5 – jild, 2 – kitob, 184 – bet).

Yuqorida to`la matnlarini ko`chirganimiz mazkur g`azallar nazirachilik qoliplariga sira sig`maydi. Hech ikkilanmay, ularni **nazirayi benazir** yoxud maromiga etgan chinakam ijodiy she`rlar deyish mumkin. Avvalo, g`azalning tashqi belgilariga razm qoladigan bo`lsak, Navoiy – Foniylar Shayx Sa`diy g`azalidagi ikki qofiyadosh so`zni ("**Yoron**", "**ro`zgoron**") saqlagan, xolos. Tatabbu' bog`lanayotgan g`azal sakkiz baytdan iborat. Javobiya esa etti baytni tashkil qiladi. Bu o`rinda jindak bo`lsa – da chekinish ham mavjud. Navoiy – Foniylar ijodiylikka intilgan. Shayx Sa`diy g`azalining matlai oshiqning hijrondan iztirobi bilan boshlanadi: Qo`y, bahorning sersuv bulutlari misol to`yib yig`layin. Chunki yoru do`stlardan judolik kuni boshimga tushganda, nafaqat, men, hatto toshdan ham nola sadosi chiqadi. Qarang, qanday rangin, ta`sirchan, shoh bayt. Navoiy – Foniylar esa g`azal boshlanmasidanoq uning g`oyaviy mavzui ruhini o`zgartirib yuboradi. Ulug` o`zbek shoirining tatabbu' – g`azali soqiyga murojaat bilan ibtido topadi. Matladagi soqiy zimmasiga uning imkoniyatlaridan – da katta yuk yuklatilgan. Shunga ko`ra, soqiyni mayxonada turib qadah tutuvchi shaxs timsoli sifatida tasavvurga sig`dirish qiyin. Fikrimizcha, bu o`rindagi Soqiy olamlar sohibi qiyofasida namoyon bo`ladi. Soqiy, uning borligi ko`ngillarga xush yoqadi, navbahor shabbodasidek barcha mavjudotga hayot – huzur bag`ishlaydi. Shuning uchun suvidan bo`shagan bulutlar tog`larga tomon yurganidek, ko`ngil butun borligi bilan Unga (Soqiyga) intiladi. Ko`rinadiki, an'anaviylik ulug` o`zbek shoirini batamom siqib qo`ymagan. U qalbiga cho`g` tashlagan g`azaldan zavqlanadi. Ammo, o`sha g`azal qobig`iga o`ralashib qolmay, ijodiy kengliklarga intiladi. Shayx Sa`diy g`azalida matladan boshlangan hijron nidolari g`azalning boshqa

satrlariga ham ko'chadi. Bir kungina ayriqliq — furqat sharobini tatib ko'rgan odam, shirin orzularidan voz kechishining naqadar mushkul ekanligini yurak — yurakdan his eta oladi. Navoiy — Foniyning matlaida soqiy haqida gap ketgan edi. Parchaning keyingi misralari may va u bilan bog'liq holatlar tasviriga qaratilgan: Xotira jilovini yangicha yo'naltir, So'z tinglashga mayl paydo qilgin, May uchun hatto daftarni ham garovga qo'y. Kutilgan maqsad va baxtning ro'yobga chiqishi uchun faqru fano tarzini ham yangicha yo'lga sol...

Ko'rinayotirki, tahlilga tortilgan ikki g'azal inson ruhiy holatining ikki qarama — qarshi qutblarini teran ifodalashda davom qiladi. Shayx Sa'diy g'azali matlaida ko'ringan **bulut — u yomg'ir** misradan misraga ko'chib, she'r satrlarini mantiq rishtalari bilan tutashtirishga xizmat qiladi: Sorbonga ayting, ko'z yoshlarim yomg'irdek quyilib kelmoqda. U tuya ustiga odam o'tiradigan kajavani (mahmilni) o'rnatish tashvishiga tushmasin. Chunki tepadan quyilib turgan yomg'ir paytida bu yumushlarni bajarish yurakka sig'maganidek, ko'zda shashqator ashk bilan safarga chiqmoq ham kishining ko'ngliga xush yoqmaydi... Ma'lumki, o'zining yigirma yillik umrini jahongashtalik tashvishlari bilan o'tkazgan Shayx Sa'diy uchun yo'lning ayanchli azob — uqubatlari o'chmas xotira edi. Ular dunyo ko'rgan shoirning qalbi tubiga tushgan cho'kmalar sifatida asta — sekin adibning badiiy yaratmalariga ko'cha borgan. Navoiy — Foni g'azalida hayot shavqi, undan sarxushlik kayfiyati tasviri davom qiladi.

Hassos shoir o'z kuzatishlarini nafis va badiiy o'ramda ifodalashga ruju' qiladi. Sharq she'riyatining an'anaviy aslahalarini ishga soladi. Beshinchi misradagi "Maseh dam" o'shalardan biri hisoblanadi. Maseh — Iso payg'ambarning laqabi hisoblanadi. Ilohiy aqidalarga binoan Iso alayhissalom nafasining o'tkirligi bilan barcha rasulu nabilardan ajralib turgan. O'sha hayotbaxsh va karomatli nafas, hatto, o'liklarni tiriltirish qudratiga ham ega ekan. Sharq she'riyati allomalari tarafidan shu fazilat yorga — ma'shuqaga ko'chirilgan. Foni — Navoiy esa tahlil qilganimiz misrasida g'azaliyot olamida shakllangan o'sha adabiy odatga rioya qilgan. Ma'shuqa tarafidan esgan shamol bag'rida ajib tuhfa bilan esdi. U (shamol) mahbubaning hidi va Maseho misol nafasini o'zi bilan keltirdi. Bunday holat hijron olovida

yonmoqda bo'lgan oshiqning boshiga yana yangi tashvishlar soladi. Uning yuragi qonga aylangan... Bayt uzra tanosib san'atini kuchaytirgan shoir oshiqning qonli yuragi va lolazor tusini olgan tog'ning manzarasi o'rtasida yaqinlik tuyadi. Satrlarda qo'llangan o'xshatish va o'xshatilmish g'azal matlaidayoq mantiqiy asoslanadi. Unda navbahor haqida ishora mavjud. Tabiiyki, bahorning kelishi lolazorga zamin yaratadi. Baytning ikkinchi misrasida savol — javob san'atiga murojaat qilingan. Ayni misralarda san'at ichra san'atga ruju' ham nazarga yetadi. Alamlar qirdobida qolgan oshiq shabbodani yo'qotib qo'yib, uni izlashga tushadi. Aslida bularning barchasi uchun oshiqning sarxushlik holati aybdor. Ma'shuqaning muattar hidini olib kelgan nasim oshiq dimog'ida o'rnamashib turibdi. Bilib — bilmaslikka olish — tajohuli orif badiiy san'ati tavsiya etilayotgan lavhalarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ulug' shoir oshiqni vasvasalar azobidan qultiradi. Sarxushligi tarqala boshlagan oshiq nasimning ushshoq to'dasi tomon yo'l olganligidan taskin topadi...

Ravshan bo'layotirki, har ikkala g'azalning keyingi misralarida matlaning ruhi va g'oyasi rivojlantiriladi. Shayx Sa'diy g'azalining to'rtinchi bayti aytilganlar jihatidan katta qiziqish uyg'otadi. Hijron jafolari oshiqning diydalariga hasrat yoshlarini handam etdilar. Qiyomat kuniga qadar bu holat davom qiladiganday tuyuladi, she'rxonda. Fors — tojik adabiyotining buyuk siymosi Sa'diy hazratlari mahoratini ishga soladi, satrlarda oshiq nolayu fig'oni tasvirini tobora kuchaytiradi. Hajr to'g'ushidagi sevishganlar "nasiba" sining yangi — yangi qirralarini ochishda shiddat ko'rsatadi: "Ey kechalarni bedor o'tkazuvchilarning tongi (ya'ni ma'shuqa), jonim halqumimga keldi, sababi senga ayon: Ro'za tutadiganlar shomligi (iftorligi) misol kechikding". Shayx Sa'diyning ishora va badiiy topilmalari qoyat nogahoniy, ular she'rxonni fikrlashga, hayotiy udumlar ustida bosh qotirishga majbur qiladi. Yuqorida mazmunini bayon etganimiz baytda ham shunday ishora bor: ma'shuqaning va'dalashgan joyga kechikib kelishi ro'za tutuvchilar kechki nonushtasining (iftorligining) o'z muddatida berilmasligiga o'xshatiladi. Bunda ma'no bor. Chunki kun bo'yi ochlik va changoqlik azoblariga (xususan, ro'za yoz oylariga to'g'ri kelgan sharoitda) chidagan odam uchun kechiktirilgan har bir daqiqa o'z azob bilan kechadi. Ayni holatni oshiq qiyofasida — ruhiy

holatida ham his etmoq mumkin. Shoir to'liqlik (goh shiddatli, ba'zan mo'tadil) tasvirni davom etadi: **"Ishqning mojaralaridan qanchalik so'zlamayin, illoh, ishongin, dilda yotgan azoblarning mingdan birini ham tilga chiqara olmayman. Sa'diy, tirikchilikka bo'lgan mehr dil tubiga cho'kkanday, endi uni illoh, zamona va uning odamlariga oshkor qilishning iloji yo'q. Yana qancha sharhu hikoyatlar qilaman, shu aytganlarim ham kifoya. Chunki g'amzadalarga shuning o'zi ham etib ortadi..."**

Ko'rinadiki, Shayx Sa'diy g'azalning keyingi misralarida mushohada maydonini kengaytirib yuborgan. Satrlarda ifodasini topgan ishoralarning bir uchi shoir yashagan zamonning uqubatlariga daxldor bo'lib qoladi. Zikri o'tgan holat — hodisalar Navoiy — Foniylar tatabbu' — g'azalida ham oydin ko'zga tashlanadi: **"May va mayparastlikdan devonalik va mastlik qilasan: Aytchi, hushyorlar oldida sharmanda bo'lishdan qo'rqmaysanmi? Zohidlar zamona mehnatlariga go'yo nishon bo'ladilar. Mayxo'rlar esa mug'larcha may ichishdan xushnuddirlar. Kunlarimdan xurram va ro'zg'or tashvishlaridan beg'am edim. Ey, hamdam do'stim, qani o'sha baxtiyor kunlaru tirikchilik..."** Baytda zohidlik va mayxo'rlik bir — biriga qarama — qarshi tushunchalarday nazarga etadi. Ayni masala mumtoz adabiyotning katta mavzui. Uni yo'l — yo'lakay hal qilish, xolisona munosabat bildirish imkondan tashqari, albatta. Muammo pishiq echimiga muhtoj, jiddiy tadqiqotlarni taqozo qiladi. Zikri o'tgan mas'uliyatni his qilgan holda, ayrim xomaki fikrlarni aytish ham joiz ko'rinadi. Zuhd — u zohidlik yaxshi fazilat. Insonning zohiran va botinan pok yurishi, yaramas ishlardan uzoq turishi, ikki olam podshohi — Alloh yodi bilan yashashiga nima etsin! Aytilganlar zohidlarning bosh harakat dasturi hisoblanadi. Bularning barchasi yaxshi. Ammo qayd etilganlar safida zohidlarni badnom qilgan illatlar ham qatorlashib turadi. Ularning eng kattasi — tama'girlik va riyo. Zuhd ahli barcha harakatlarini ko'z — ko'z qiladi, el nazarida amalga oshiradi. Holbuki, sidqan e'tiqod namoyishkorlikni yoqtirmaydi. Yana ahli zuhd jannat tama'ida toat — ibodat bilan shug'ullanadi. **Axir, Alloh hamma narsani ko'ruvchi va biluvchidir. Uning nazaridan chetda qoladigan hech narsa bo'lmaydi...** Fikrimizcha, ana shu nuqtada islomiy ta'limot va zohidlik o'rtasida ziddiyat yaqqol

ko'zga tashlanadi. May va mayxona ahlining (rindlarning) esa ichki olami mustahkam, urinishlari harqanday umidvorlikdan mutlaqo yiroqdir. Narigi dunyoda do'zax yoki jannat nasib bo'ladi — mi? Masalaning echimi Parvardigorning hukmidadir! Bu va shunday ta'kidlarda mantiqiy mo'tadillik baland. Mayning talqiniga munosabat esa yangi kuzatishlar zimmasidadir...

Navoiy — Foniylar xarxi kajraftor jafolaridan fig'on chekadi. Chunki rafiqlar dushmanga aylanadi, o'zlarini do'st tutuvchilar ham ayniydilar. Ravshan bo'layotirki, Navoiy — Foniylar g'azalining oxirgi satrlarida ham mushohada jilovi erkin qo'yiladi. Muhokama doirasi kengayib boradi. Mazmun rishtalari oshiq va ma'shuqa mojarolari doirasidan chetga chiqib, ijtimoiy — siyosiy, falsafiy — irfoniylar g'oyalar tarafdori bo'lgan o'zbek shoiri zamona jafolari, illatlaridan zorlanadi. Aytilganlar yana bir manzarani oydinlashtirib borayotir. Navoiy — Foniylar garchi o'z g'azaliga **"tatabbuylar Shayx"** deb sarlavha qo'ygan bo'lsa — da, u ijodiy va erkin yo'l tutgan. Shayx Sa'diylar g'azalidan bahra olib, o'zining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilgan, g'oyat dilqash va dilbar g'azal yaratgan. Ustoz ijodkor g'azali bahona, o'z dardlarini badiiy javdalan tiruvchi g'azal she'r yaratib avlodlarga meros qoldirishga muyassar bo'lgan...

## BULBUL — NOLON, GUL — YOQA VAYRON...

Mir Shohiylarining o'ynoqlari va dilbar g'azallariga Abdurahmon Jomiy, Navoiy — Foniylar, Soib Isfahoniylar, Urfiylar Sherziylar, Bobo Fig'oniylar singari zabardast so'z san'atkorlari javobiylar — tatabbular yaratganlar. Jumladan, "Devoni Foniylar"ning professor Hamid Sulaymon nashrida **"Tatabbuylar Mavlono Shohiylar"** sarlavhasi ostida uch g'azal keltiriladi. Mazkur g'azallar Amir Shohiylar va Alisher Navoiylar o'rtasidagi yozishmalarining insoniylar muomala — munosabatdan ijodiy hamkorlik, ustozu shogirdlikka tutashib ketganligidan so'zlaydi. Ustozlar va ularning adabiy merosiga hamisha sadoqat tuyg'usi bilan qaragan Alisher Navoiylar Mir Shohiylarining **"choshnilik va salosatli"** she'riyatiga ham katta ixlos qo'ygan, undagi lutf, rang, hayotiy ohang va bo'liqlar ma'nolarga maftun bo'lib, ta'kid qilingan

jihatlarni takomiliga etkazish ilinjida javobiyalar aytishga ruju' qo'ygan edi. Aytilganlarga qanoat hosil qilish uchun Mir Shohiy va Alisher Navoiylarning bittadan g'azallarini qiyoslab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

### **Mir Shohiy:**

**Id astu xalq har taraf domankashon bo yori xud,  
Miskin mani be sabru dil hayron shuda dar kori xud.  
Ham murg` nolon dar chaman, ham gul darida pirahan,  
Har kas ba yore dar suxan, man bo dili afgori xud.  
Aqlam ki budi rahnamun, xandid bar ahli junun,  
Man niz mexandam kunun bar ahli da'vodori xud.  
Gar rozi dil naguftame, dar xoku xun kay xuftame,  
Ham bo tabibe guftame holi dili bemory hud.  
Dar jon darun on tundxo' doim ba dil dar guftugo',  
Bechora man mahrum az o`chun dida az didori xud.  
Tu ham chu gul domankashon rafta ba gashti bo'si on,  
Peshi tu miskin bog`bon sharmanda az gulzori xud.  
Shohy, zi xubon zad nafas, aftod dar domi havas,  
Chun andaleboni qafas dar monda az guftory xud.**

(Gulshani adab. Namunai nazm iborat az panj jild. Jildi 3, "Irfon": Dushanbe – 1977. Sah.190).

### **Foniy-Navoiy:**

**Fasli bahoru har kase bo sarvi gulruxsory xud,  
Man bo dili chun g'uncha xun dar furqati dildori xud.  
Gul bo jamoli dilkusho, bulbul ba o`daston saro,  
Qumri ba lahni jonfizo, man bo fig`oni zori xud.  
Gulshan jamol orasta, sarv az tarab barxosta,  
Man hamchu bulbul kosta az nolai bisyori xud.  
Shud g'uncha har so`jilvagar, ishvakunon gulbargi tar,  
Sad xori hajram dar jigar, begulbuni gulbori xud.  
Koram ba sina tuxmi g'am, boram zi chashm obi nadam,  
Dar ishq bosham dam-badam, hayroni korubori xud.  
Bar tan xarosham to ba kay, soqy gar orad jomi may,  
Marham niham az loi vay bar sinai afgori xud.**





## **Giryon ba peshash jon dihad, v--az mehnati jon vorahad, Ro`ze ki Fony sar nihad bar xoki poi yori xud**

(Alisher Navoiy. Asarlar. 5 — jild, 1 — kitob, 302 — bet).

Mir Shohiyning to'la matnini ko'chirganimiz g'azali etakchi mavzui nuqtai nazaridan oshiqona, etti baytli. Shoirning "Gulshani adab"da kelgan va nashr etilgan to'plamidagi deyarli barcha g'azallar shu hajmda. Ko'rinadiki, Mir Shohiy ixcham va shirin so'zlashni yoqtirgan, shunga intilgan. Foni—Navoiy qalbini rom etgan nuqtalardan biri sarbadorlar shirinkalom shoiri g'azaliyotining o'sha dilpisand fazilati bo'lsa, ajab emas. Eslatilgan aqidadan kelib chiqqan ulug' o'zbek shoiri ham o'z g'azaliyotida lirikiy siqqlikka intilgan, etti baytli javobiya — g'azal yaratgan. Mir Shohiy she'ring matlai id — hayit shodiyonasi lavhalari tasviri bilan boshlanadi. G'azalning matlaidayoq Amir Shohiy tazod she'riy san'atiga murojaat qiladi. Yana ta'kidga sazovor o'rni shundaki, g'azal muallifining tarjimai holiga doir ishoralar ham ularda ko'zga tashlanadi. Buni dilbar she'rning boshlanma misralaridayoq kuzatamiz. To'g'ri, Amir Shohiy tarjimai holini e'tibordan soqit qilgan kitobxon nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan she'rda gap go'yo oshiq va ma'shuqa haqida ketayotganday tuyuladi. Oshiqning xandon qiyofasidan ko'ra g'amli, alamli, hasratli, dardchil holatini yoritish aksariyat Sharq shoirlarining asarlarida ko'zga tashlanadigan an'anaviy hodisadir. Lekin Mir Shohiyning o'z hayotini tanholikda, ayolu farzandlarsiz (ayni lavhalar Alisher Navoiyning umr yo'lini esga soladi), laqirona o'tkazganini nazarda tutgan nazm shinavandasi uchun matlanning ikkinchi satri muallif yuragining shaxsiy nidosi bo'lib eshitalishi turgan gap. Chunki id — bayram kunini har bir inson shodu xurramlik va oila ahli bilan nishonlashga, yoru do'stlari davrasida xushchaqchaq o'tkazishga harakat qiladi. Mir Shohiy g'azali matlasining birinchi misraida shunday kayfiyat hukmron. Ammo miskin oshiq — shoirning yuragiga yuqoridagiday bayramona kayfiyat sig'maydi. Chunki u tanho. She'r qahramoni qalbida shodlikdan ko'ra, alam tuyg'usi kuchli. Uning bilan dardlashadigan ahli dil esa topilmaydi. U taqdirining bunday telba — teskari qilmishidan hayron bo'lishdan bo'lak chora topolmaydi. Ravshanlashayotirki, ikkinchi misra mazmun va ruhiy

yo'nalishiga ko'ra, she'r matlaining birinchi satriga hamohang emas. Ikkinchi jihatdan, shunday tasvir uslubiga urg'u berish butun g'azalning ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qilgan. Foni — Navoiy tatabbu' — g'azalining matlai Mir Shohiy she'rining boshlanmasiga ohangdosh. U tabiatda yangilanish, uyg'onishning debochasi — bahorning kirib kelganligi, uning insonlar qalbiga hadya etgan shavqu zavqi haqidagi xabar bilan ibtido topadi. Alisher Navoiy g'azalining tug'ilishida ijobiy turtki bergan Mir Shohiy she'rida kuzatilganidek, matla' misralarini tazod san'ati bilan bezamaydi. Bunday ruhiy kayfiyat nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan g'azallar bir — biridan ancha farq qiladi. Biroq she'rlarni inson tabiatidagi ikki yo'naltiruvchi tuyg'u — quvonch hamda alamning yonma — yon kelishi bir — biriga yaqinlashtiradi. Matlaining birinchi satrida (Foni — Navoiy g'azalida) bahor fasliga uyg'un ko'tarinki ruhiy olam qalamga olinadi. Ikkinchi misrada **"g'uncha laxta — laxta qonga aylangan yurak"** holatida namoyon bo'ladi. Uning boiskori — oshiq boshiga furqat azobini solgan ma'shuqadir. Shundan bo'lsa kerak, satrda ma'shuqa jafolaridan zorlanish etakchilik qiladi. Ana shunday manzara har ikkala g'azalda ham izchil davom etadi. G'azallarning keyingi satrlarini matlalarda ifodalangan mazmun o'zaro tutashtirib turadi. Mir Shohiyda hayitga yarashiqli manzaralarning badiiy ifodasi davom ettiriladi. Chamanlarning fayziga fayz qo'shilgan, qushlarning xonishi avjida. Gullar shodlikdan "yoqalarini chok — chok etgan", oshiq — ma'shuqalarning suhbat qo'r topgan. Faqat she'r qahramoni — oshiqning dili afgor — zim — ziyo zulmat qo'ynida eziladi. Foni — Navoiy g'azalining keyingi satrlari matladagi bahor nashidasidan rang va ohang olganday sururli davom etadi. Gulning jamoliga jamol, zebiga zeb qo'shilgan. Bundan bulbulning vaqti xush. U yanada jozibali nola boshlaydi. Qumrining jarangdor sayrashi bulbulga jo'r bo'lib tabiatda ayricha tarovatni vujudga keltiradi. Shunday quvnoq sadolar yonida yuraklarni tirnovchi mungli ohang ham yo'q emas. Bu shunday kunda ham yori yonida bo'lish sharafiga erisha olmagan baxti qaro oshiqning fig'onidir. Foni — Navoiy fors — tojik adabiyoti boshqa arboblari g'azallariga qilgan tatabbularida bo'lganidek, Mir Shohiyga payravlik qilishda ham o'zining sinashta tasvir uslubiga sodiq qoladi. Bunday holatni butun g'azal davomida an'anaviylik zaminida ijodiylikning barq

urishidan his qilish qiyin emas. O'z g'azalini (Navoiy – Foniyl) yangi, tutilmagan adabiy lavhalar, hayotiy kuzatishlar, badiiy bo'yoqlar, chuqur ma'no – mazmun, ilohiy – irfoniy mayl bilan mukammallashtirishga intiladi. Mir Shohiy g'azalida qo'llangan radif va she'riy vaznni saqlagani holda, qofiyadosh so'zlarning anchaginasini yangilaydi. Qofiyaga payravlik payidan tushib, mazmunning qurbon bo'lishiga yo'l bermaydi. Muhimi, tatabbu' – g'azalning mag'z – mag'ziga chinakam insonparvarlik, hayotsevarlik g'oyalarini singdirgan. Alqissa, navoiyona donishmandlik ziyosi badiiy mahorat tarovati tahlil uchun tanlangan g'azal satrlarini nurlantirib, o'sha ohorli satrlarga ayricha nafosat va nazokat baxsh etadi...

## KOFIR KO'ZLAR NEDIN QIZARDI?

"Devoni Foniyl" Toshkent nashri birinchi kitobi (Asarlar. 15 jildlik, 5 – jild) boshlanishida shunday g'azal joylashtirilgan. U ulug' shoirning "Muxtare'" g'azallari sirasiga kiradi. To'qqiz baytdan tarkib topgan an'anaviy (tuzilishi va zohiriy shakliyl belgilariga ko'ra) g'azal aytarli ayricha fazilatlariga ega emas. Balki, u asrlar davomida Sharq she'riyatida shakllangan an'anaviy andozalar zaminida vujudga kelgan. Ammo g'oyaviy yo'nalishi, badiiyati nuqtai nazaridan Alisher Navoiyning eng sara turkiy g'azallari qatorida turishga sazovor forsiy she'rlaridan biri hisoblanadi. Unda "**sustlik va furudlik**" (Bobur Mirzo iboralari) alomatlari deyarli sezilmaydi. "**Yuz eshitishdan bir ko'rish afzal**", – deydi turkiyda so'zlashuvchi birodarlarimiz. "**Shunidan kay buvad monandi didan**", – deydilar forsiygo'ylar. O'sha hikmatlariga amal qilib, g'azal matnini keltiramiz:

Guli ro'yat, ki zohir gashta rangi yosamin o'ro,  
Chi boshad k – az may gulrang sozy otashin o'ro.  
Namedonam zi may shud surx chashmi kofirat, yoxud,  
Libosi ol po'shondy ba qatli ahli din o'ro.  
Maro ham g'unchai dil bishkufad chun on dahan har gah,  
Zi xay shabnam chu binshinad ba gulzori jabin o'ro.  
Chu aksi suratat dar boda zohir gasht natvonad,

**Ba—din son obu range soxtai naqqoshi Chin o`ro.**  
**Ba muknat chun Sulaymon ast piri mayfurush, inak,**  
**Zi har xum olame digar shuda, zeri nigin o`ro,**  
**Chu avji rif'atash az osmon bigzasht, az on ma'ny.**  
**Gado gashtand shohoni hama ro`i zamin o`ro,**  
**Bahoristoni getiro gule emin kujo yobi.**  
**Ki navbad sarsari bodi xazon andar kamin o`ro**  
**Az on dur aftad az vay, k—az baroi chorai vaslash**  
**Makon ta'in namoyad zohidi xilvatnishin o`ro,**  
**Daromad dar xaroboti fano, ey dil, digar Fony.**  
**Zi ahli tavbavu taqvo nago`y ba'd az in o`ro.**

(O`sha kitob. 30 — bet).

Rasmona g`azal o`z matlaiga ega. "O`ro" radif bo`lib, "yosamin", "otashin", "din", "jabin", "chin", "nigin", "zamin", "kamin", "xilvatnishin", "az in" so`z va jug`rofiy atamalari ohangdoshlikni (qofiyadosh so`zlarni) tayin etgan. YAna aniqroq aytilsa, odatiy g`azallar singari matla' o`zaro qofiyalanib, undan keyingi toq misralar ochiq va juft qatorlar matlaga ohangdosh (a—a—b—a—v—a—g—a va hokazo) bo`lib kelgan. G`azal o`z maqtaiga ega. Xotimada an'anaga binoan shoir taxallusi joylashtiriladi. Butun g`azal bag`riga musulmon olami she'riyati uchun xos bo`lgan taomildagi nazmiy aslahalar ishga solingan. Ayrimlarga aytilgan jihatlar faqat ko`chirganimiz g`azalga tegishli xususiyat emas. Ular bugungi kun g`azaliyotida ham ko`zga tashlanadi. Alisher Navoiyning ko`chirganimiz g`azali mavzui nuqtai nazaridan oshiqona. Bugungi urfga ko`ra, so`rash mumkin: unda qanday ishq va kimning ishq'i haqida gap boradi?

O`rtaga qo`yilgan savolga darhol javob aytishning qiyinligidan tashqari, aniq va rad etish dushvor fikrni bayon qilish ham to`g`ri bo`lmas. Buning izohlari esa ayon. To`lg`oq qiynoqlaridan joni halqumiga kelgan onani birinchi galda kimning tug`ilishi (o`g`ilmi, qizmi?) emas, tezroq va eson — omon qutilish, farzand to`rt muchchasining butligi qiziqtiradi. Haqiqiy she'r ham **mening tasavvurimda yozilmaydi, balki, o`ziga munosib iztiroblari bilan tug`iladi. Yoniq yurakning dardli nidosi tarzida dunyoga keladi. O`shanday she`rlar sho`x jilg`aning yugurik oqimi misol quyilib keladi.** Samoviy inoyal muyassar bo`lgan, dili bilan tili bir, rostni ham, yolg`onni ham

dadil ayta oladigan, qo'li haromga mayl ko'rsatmaydigan insonlargagina unday umrboqiy she'rlar nasib qiladi. Bunday misralar salmog'ini yarashqlik toshu tarozuda tortuvchi hakam belgilaydi. Shundan bo'lsa kerak, unday misralarda ichki ehtiros, ohang, nogahoniy mushohadalar sobit turadi.

Alisher Navoiyning sehrli qalami tuhfa qilgan asarlar ana shunday betakror jarayonning ma'naviy ne'matlaridir. Bas, **men uning misralarida ilohiy ishqni ko'raman**. Inson taqdirining ana o'sha marhamatdan xoli sohillarini esa topib bo'lmaydi. To'g'ri, biz ba'zan eslatilgan jarayonlarni turlicha ataymiz. Ammo to'qnashuv nuqtasi esa yagona. Yoxud poklikka asoslanuvchi, insonning vujud—vujudini o'rab olgan ishq haqida gap ketar ekan, unday muhabbatni tasnif qilishga zarurat qolmaydi. Chunki o'sha fazilatga chulg'angan ma'shuqa **"sidqu yonishlari, pokiza muhabbati"ning o'zi ilohiy mo'jiza bo'lib, "ilohiy ishq—haqiqiy ishq" maqomidadir** (Fariduddin Attor. Ilohiynoma. T., 1993, 29—bet).

Aytilganlar matni ko'chirilgan g'azalga ham tegishli. Biri ikkinchisini inkor yetmaydigan ishq talqini misralar bag'riga harorat, shavq olib kiradi. Matladayoq shiddat, voqea va holatlarni zidlashtirish san'ati—tazod yaqqol ko'zga tashlanadi. Ohangdoshlikni ta'min etgan **"yosamin", "otashin"** so'zlari tabiatidan o'shanday qarama—qarshilik nafasi taraladi. Misralarda go'yo gul haqida gap ketadi. Aslida, gul mahbubaning sifatlovchisi. Gul gul hajrida yosaminga (bu ham gulda!) o'xshab qoladi. Ya'ni rangi za'faron. Misralarda yasharish, yashnashdan ko'ra xazon, so'lish mayli balandroq. Shunday bo'lishiga qaramay, hali oshiqning umid uchqunlari so'nib bitmagan. Gul—ma'shuqa jismiga harorat olib kirishning iloji bor. Gulrang—qizil may uning uchun **"obi hayot"** vazifasini o'tay oladi. Shunday qilinganda, maygun lablardan sharob (bo'sa) hadya etilganda, yosamin rangli chehraning **"otashin"** (shu'la rangli, qizil) qiyofaga kirishi hech gap esam...

Shu o'rinda satrlarda hayotiy bir masalaga ishora borligini ham aytish joiz. Maydan sarxush odamning jismida harorat ko'tariladi va bu o'zgarish uning chehrasida o'z aksini topadi. Yuzlari qizarib, yonoqlari yal—yal tovlanadi. Yosaminni **"otashin"**ga aylantiruvchi omillardan biri ana shudir. Ayni ishora g'azal misralariaro tanosubni vujudga keltirish xizmatini ham

o'taydi. Matladan boshlangan qizillik haqidagi ishoralar keyingi baytlarda rivojlantiriladi. Satrlarda hodisa va voqealarni yonma — yon qo'yish san'ati ancha faollashadi. Maydan qizarish va ishq iztiroblaridan jismida tug'yon kuchli oshiqning ruhiy ko'rinishlari yuzlashtiriladi. Misralarning zebi va bo'yog'ini quyuqlashtirishda tajohuli — orifin — bilib, bilmaslikka olish san'ati ko'makka keladi. She'r qahramoni xayolan ma'shuqa bilan suhbat quradi. Uning jodu ko'zlari (kofir ko'zlar) qizilligi sabablarini o'smoqchilab so'raydi: Ko'zlaring may haroratidan bu qadar qizardilarmi? Yoxud oshiqlar joni qasdini o'ylab, ularga gulgun (ol) libos kiydirdingmi? Aslida atrofda kechayotgan voqealar oshiq uchun u qadar notanish ham emas.

Ulug' shoir mahoratining yana bir qirrasini ta'kidlash lozim. Misralar uzra hayot va badiiy haqiqat muvozanati teng tutiladi. Rang, holat, ta'kidlar o'rtasida qilcha ham zidlik alomatlari ko'zga tashlanmaydi. Buni ikkinchi baytdagi **qizil libos, qon talashgan ko'zlar, lolagun sharob, qatl jarayonida oqadigan qon** misolida yanada ravshanroq ko'ra olamiz. To'rtinchi misradagi **"ahli din"** iborasi muallaq turganday tuyuladi. Ikkinchidan, uning dahriylik bilan aloqasi yo'q. Har ikki holat ham misra tabiati uchun tasodifiy emas. Oshiqu ma'shuqalarning **"dahriyligi"** esa o'ta nisbiy tushunchadir. Ishq jazaba qilgan joyda oshiqni boshqarish jilovi qo'ldan chiqadi. Mutasavviflar ta'biricha, ishq va aql bir o'zanga sig'maydi. Ishq esa o'z po'rtanasi, jazabasi bilan go'zal. U boshqarilsa, ohorini yo'qotadi...

Yuqorida ta'kid etganimiz singari haqiqiy ishq — insonga ko'rsatilgan ilohiy inoyat. Uning ziynati poklikdir. Dinning ham Alloh va poklikdan o'zga ilinji bo'lmaydi. Ravshan, zohirdagi ziddiyat teran mushohadadan o'tkazilishi va har ikkala holat zamiridagi yakranglik pishiq ilg'anishi lozim. Bunday o'rinlarda tom ma'nodagi dinga qarshilik xususida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ulug' shoir shuurining ana shunday o'ta nozik va girdobli tuyg'ular iskanjasida bo'lishidan qat'iy nazar, g'azalning qurilishi bilan aloqador nuqtalarga qat'iy amal qilinadi. Matladan taraladigan ishq nuri misralar uzra mazmun zanjirini hosil qilishda davom etadi...

Shunday gapni ikkinchi va uchinchi baytlar o'rtasidagi uzviylik misolida ham aytish mumkin. Yana o'sha rang — qizil

bilan bog'liq jarayonlar o'zgacha jiloda uchinchi baytga ko'chadi. Dil g'unchasi nim ochilgan. Bu o'rinda g'uncha — ma'shuqaning mitti og'izchasi, gulzor — uning dilkash chehrasi, gul — gul tovlanuvchi yanoqlariga ishoradir. Shularning barchasi bir baytdagi manzaraning badiiy ifodasi hisoblanadi. Ularning har qaysisi misralarda o'z joyini topgan va mantiqiy — hayotiy muvozanat talablariga to'la mos bo'lib tushadi. Tahlil qilinayotgan baytda gulzor hamda ma'shuqa jismining yuz qismidagi o'zgarishlar tasviri yonma — yon davom qiladi. Guncha o'z — o'zicha ochilmaydi. Tabiiy ta'sir — issiqlik, tong saharda tushgan mayin shudring, mayin esadigan yoqimli shabboda o'sha jarayonni tezlashtiradi. Oshiq joni qasdiga qilich qayragan ma'shuqa chehrasidagi ruhiy jilolar ham ta'sirsiz, o'z — o'zidan o'zgarishlarga uchramaydi. Oshiqning jismida hijron va ma'shuqaning dil o'rtar jamoli iztiroblari tufayli vujudga kelgan holat — gulzordagi shabnamning g'unchaga ko'rsatgan ta'siriga qiyoslanadi. O'shalar ma'shuqaning chehrasida nim tabassum indiradi va uning og'izchasi nim ochilganday bo'ladi. Misralardagi "xo'y" — ter, "jabin" — manglay (majoziy ma'noda mahbubaning jamoli) so'zlari ham alohida e'tiborga muhtoj. Zaiflashgan oshiq jismini qoplagan ter ma'shuqa chehrasining qizilligi — quvonchiga bo'sdir. Ularning zamirida esa ishq imtihonlari, shahvat hirsidan xoli muhabbatning qalqib yuzaga chiqishi yotadi. Shu tariqa baytlararo aloqamandlik shartiga qat'iy rioya qilinadi.

G'azalning beshinchi baytidan boshlab mushohada maydoni yanada kengayib boradi. Tabiat ko'rki, undagi o'zgarishlar **"yasharish va xazonning boiskori mo'jizaviy kuch"** — Allohga tegishli ishoralar ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalaning bunday tus olishi misralarni qon va jon bilan ta'min etgan ishqqa ham daxldordir. Ya'ni ishqning ilohiy ne'mat ekanligiga ayricha urg'u beriladi.

Ayrimlarga aytilgan murakkab tabiiy — ruhiy jarayonlarning o'ta nozik va nafis ifodasi yuksak mahoratning samarasi ekanligi shubha tug'dirmaydi. Shuningdek, Bobur Mirzo «Boburnoma»sida qayd qilganidek, hech qanday **"sust va furud"**lik uchun bo'shliq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz...

## "SITTAI ZARURIYA"DA TATABBU'...

"Sittai zaruriya" Alisher Navoiyning nisbatan kam o'rganilgan va etarli darajada ommalashmagan asarlari sirasiga kiradi. Forsiyda yaratilgan bu qasidalar turkumi haqidagi ayrim ishoralar ulug' o'zbek shoirining o'z asarlarida ko'zga tashlanadi. Shunday ixcham ma'lumotlarni "Muhokamat ul-lug'atayn"da o'qishimiz mumkin. Unda ulug' shoir "Sittai zaruriya"ni tashkil etuvchi **"Ruh ul-quds"** ("Pok ruh" – 132 bayt), **"Aynul-hayot"** ("Hayot bulog'i" – 106 bayt), **"Tuhfat ul-afkor"** ("Fikrlar tuhfası" – 99 bayt), **"Qut ul-qulub"** ("Qalb ozuqasi" – 120 bayt), **"Minhoj un-najot"** ("Qutulish yo'li" – 138 bayt), **"Nasim ul-xuld"** ("Jannat shabbodasi" – 129 bayt) qasidalarining yaratilishiga turtki bergan ijodiy omillar haqida (Alisher Navoiy. Asarlar. 15 – jildlik, 14 – jild, Toshkent – 1968, 121 – 124 – betlar) sharqona nazokat ila mulohaza yuritadi. Shunday bo'lsa – da, "Devoni Foniyy" tarkibidagi she'rlar singari "Sittai zaruriya" ham oradan o'tgan yuz yillar davomida unchalik shuhrat paydo qila olmadi. Mazkur forsiy devondan joy olgan g'azallar ko'pchiligining tatabbu' ekanligi, jumladan, "Sittai zaruriya" qasidalari aksariyatining ham fors – tojik adabiyoti ulug' siymolari she'rlariga nazira yo'sinida bunyod etilganligi bu dilbar asarlar shuhratiga soya solgan ko'rinadi. Hatto Zahiriddin Boburday noziktab' iste'dod sohibi ham "Boburnoma"sida "Devoni Foniyy" haqida **"ba'zi abyoti yomon emasdur, vale askari sust va furuddur"** ("Fan", Toshkent – 1960, 233 – bet), – deb yozgan edi. fikrimizcha, Bobur Mirzoning qitig'iga tekkan jihat har bir g'azaldan oldin **"Dar tavri Shayx"** ("Shayx tavrida"), **"Dar tatabbui Xoja"** ("Xoja tatabbuida") tarzidagi sarlavhalar bo'lishi lozim. Tabiiyki, bunday ishoralarning mohiyatini teran ilg'ash esa qiyosiy tahlilni talab qiladi. Bobur Mirzoda bunday imkoniyat yo'q edi. **Turkiy she'riyat olamining Sheri-Navoiy** merosi bag'rida shunday asarlar borligini zakovatli shoir va sarkarda hazm qila olmagan va o'sha kayfiyatini "Boburnoma"da muhrlab qoldirgan.

**Turkiy she'riyat dunyosi "Yo'lbarasi"ning "Sher"ga qilgan bunday "hamla"si** o'z – o'zidan ravshanki, izsiz ketmadi. "Boburnoma"ning XVI asrning 30 – yillaridan boshlangan



jahoniy shuhratini nazarda tutadigan bo'lsak, "Devoni Foniya" va "Sittai zaruriya"ga tushgan soyaning tayanch sabablaridan biri ayonlashib qoladi. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning bunday tanti e'tiroflari ulug' shoir boshiga yog'ilgan noo'rin malomatlar uchun ham turtki berdi. Sharqshunoslikda bu daho so'z san'atkoriga nisbatan qo'llangan **"tarjimon", "taqlidchi"** tamg'alari zamirida ham ana o'sha **sharqona zarofat, darveshona xoksorlik, ustozga ehtirom, beg'ubor halollik yotadi.** Masalaning zikri o'tgan nozik jihati asrimizning 20 – yillaridayoq teran sharqshunos E.E.Bertels tomonidan kashf etilgan edi. Zakovatli olim "Lison ut – tayr" va Farididdin Attorning "Mantiq ut – tayr" dostonlarini qiyosiy tahlillari jarayonida Alisher Navoiyning yuksak salohiyatiga odilona baho berish bilan yuqoridagi tamg'alarni jiddiy inkor etdi.

Navoiyshunoslik yutuqlari ko'rsatadiki, ulug' shoir tomonidan **qo'llangan bunday sarlavhalar o'ta shartli uslubiy jilo bo'lib,** uning sehrli qalami tuhfa qilgan satrlar mutlaqo yangi ijodiy – badiiy yaratmalardir. Ayni ta'kid "Sittai zaruriya"ga ham daxldor bo'lib, bu ishda shu haqda ayrim mulohazalarimizni bayon etishga urinib ko'ramiz.

"Sittai zaruriya" va uning matniga bo'lgan qiziqish asrimizning 60 – yillaridan jonlana boshlandi. Bunda taniqli navoiyshunos olim, professor H.Sulaymonning xizmatlari beqiyos kattadir. Olim "Devoni Foniya"ning dunyoning bir qator qo'lyozma xazinalarida saqlanayotgan nusxalarini aniqladi va ularning suratlarini qo'lga kiritishga muvassar bo'ldi. Professor Hamid Sulaymonning matniy qiyoslaridan ayonlashdiki, "Devoni Foniya"ning Parij Milliy kutubxonasida 285 – raqami ostida saqlanayotgan nusxasi tugalligi bilan ajralib turar ekan. Bunday ta'kid "Sittai zaruriya" qasidalar turkumiga ham tegishlidir. Ana shu nusxani asos sifatida qabul qilgan matnshunos olim 1968 yilda ilk marta **"Adabiy meros"** to'plamining birinchi kitobida (192 – 282 – betlar) **"Sittai zaruriya"**ni arab va joriy yozuvlarda nashr ettirdi. Oradan chorak asr o'tkazib bu yo'lni tojik adabiyotshunosi Ali Muhammadiy davom ettirdi. Olim "Devoni Foniya"dan ixcham bir saylanmani Parij Milliy kutubxonasi nusxasi asosida nashrga tayyorlar ekan, ilk marta shu to'plamga **"Sittai zaruriya"** va **"Fusuli arbaa"** ("Yilning to'rt fasliga bag'ishlangan to'rt forsiy qasida") turkumini ham (Qarang: Amir Alisher Fony. Devoni forsiy. Muntaxab, "Irfon", Dushanbe – 1993, sah.208 – 286. Arab

alifbosida) kiritdi. Yuksak badiiyati namunasi sifatida Bobur Mirzo tomonidan e'tirof etilgan "Tuhfat ul – afkor" esa ulug' shoir asarlari 15 jildligining 5 – jildiga (5 – tom, 2 – kitob, Toshkent – 1965, 346 – 363 – betlar) kiritilgan va mazmuni o'zbek tilida berilgan edi. Mazkur qasida Ustoz Sadridin Ayniy e'tiborini ham jalb qilgan va uning "Tojik adabiyoti namunasi" tazkirasiga (Moskva – 1926) kiritilgan. "Tuhfat ul – afkor"ning birmuncha qisqartirilgan she'riy tarjimai 1966 yilda professor A.Hayitmetov tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik bu tarjima olimning "Tabarruk izlar izidan" (Toshkent – 1979, 142 – 150 – betlar) kitobiga kiritildi. Shuningdek, "Sittai zaruriya"ning ikkinchi qasidasi "Aynul – hayot" haqida Manzura Qodirovaning sho'ro mafkurasi ruhi bilan yo'g'rilgan yirikkina maqolasi "Adabiy meros" to'plamining birinchi kitobida (1968, 117 – 131 – betlar) e'lon qilindi. Tadqiqotchilar R.Vohidov va M.Mahmudovlarning "Ma'naviyat – komillik saodati" kitobida ham (Toshkent – 1997, 139 – 151 – betlar) mazkur qasidalar haqida qiziqarli mulohazalar bayon etilgan.

Sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida, turmush va udumida tabarruklashgan raqamlar behad ko'p uchraydi. Shulardan biri olti raqami. Sitta – olti demakdir. Alisher Navoiy ijodiyotida ham shu an'ananing ijodiy takomili yorqin ko'zga tashlanadi. Jumladan, ulug' shoirning "Lison ut – tayr" dostonida o'qiyimiz:

**To'rt unsur, etti ko'k, olti jihat –**

**Nodiru oliy asosi koinot.**

**Barchadin ashrafki, ul inson erur,**

**Kim kamolida xirad hayron erur.**

(Alisher Navoiy. Lison ut – tayr. Toshkent – 1991, 221 – bet).

Inson – Yaratganning oliy xil'ati. U – mukammal mo'jiza maqomidagi yaratma. Ayni paytda o'ta murakkab xil'at. Uning mohiyatini anglash uchun har qanday donish ham o'jizdir. Mavjudotning boru butligi ham uning hukmidadir. Hazrat Navoiy nuqtai nazaridan **"olti jihat"** ham inson tasarrufida. Bu – katta in'om. Alqissa, kichik ishora – katta tuhfani yuzaga chiqarayotir. Mulohazamizga oydinlik kiritish uchun nufuzli lug'atlarga tayanish pand bermaydi. "Navoiy asarlari lug'ati"da (Toshkent – 1972, 563 – bet) o'qiyimiz: **Sitta – a.olti. sittai zaruriy – zaruriy olti tomon: yuqori, quyi, o'ng, so'l, old, orqa. "Jihat" – a**

**jihatlari, tomonlari, er, 2) narsa, buyum, asbob, ashyo, 3) davlat, mol – mulk.** Ko'rinadiki, birgina "olti jihat" birikmasida butun mulki borliq o'z tajassumini topgan. Sittai zaruriya qadimgi ajdodlarimiz tasavvurida **"dayri muqaddas"** shaklida ham gavdalangan. Dayri muqaddasning talqiniga ko'ra **"dunyo shimol, janub, g'arb, sharq, past (er), baland (osmon) dan iboratdir"** ("Fanhangi zaboni tojiki". 1, 315 – bet).

"Sittai zaruriya" asar nomi ma'nosida Alisher Navoiyning kashfiyoti emas. Ammo qo'llanilishi va maqsad – muddaosida koshiflik mavjud. Olti jihatni inson ixtiyoriga berib qo'ygan Parvardigor uning mo'tadil yashashi uchun olti omilni asosiy shart sifatida o'rtaga qo'ygan. Ana shu imkoniyatu ne'matlardan nechog'lik foydalana olish esa insonning fahmu farosatiga bog'liq. Masalaning odam salomatligi bilan aloqador tomoni tabobat ilmi donishmandlari tomonidan ravshan bayon etilgan. Shunday nodir tibbiy risolani Alisher Navoiyning **kichik zamondoshi Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf at-Tabib al-Heraviy yaratdi.** O'z zamonining dovrug'li shifokori xonadonida XV asrning ikkinchi yarmi oxirlarida dunyoga kelgan shoir va hakim Yusufiy yigirmadan ziyod ilmiy – amaliy ahamiyatga molik tibbiy asarlar meros qoldirdi. O'shalardan biri **1452 yilda yakunlangan "Risolai Sittai zaruriya"**dir. Fors tilida insho etilgan risola ixchamgina bo'lib, unda zaruriy olti omilning tafsiloti keltiriladi. (Qarang: Yusuf Heraviy. Risolai Sittai zaruriya. Sharqshunoslik. I – to'plam. "Fan", Toshkent – 1990, 50 – 59 – betlar). Yusufiyning tavsiyasiga binoan **havo, eyish va ichish, harakat va harakatsizlik, nafsoniy muomala va uning to'xtashi, uyqu va bedorlik, bo'shalish va bo'shalmaslikning qay tarzda amal qilishi insonning faoliyatini belgilaydi.** Insonning o'sha omillarga ongli munosabati uning salomatligini ta'min etsa, ziddi esa jismoniy inqirozga olib keladi...

Inson tabiatida kechadigan o'sha jismoniy jarayonlarning har biri uning ruhiy – ma'naviy holatiga o'z ta'sirini o'tkazishi shakl – shubhasizdir. Ana shu haqiqatni nazarda tutgan Alisher Navoiy har bir jismoniy omilga hamohang tushadigan, muqobil bo'la oladigan ruhoniyyat – ma'naviy qasida bag'ishlagan ko'rinadi. Havo umuman atrof – muhitning musaffoligi insonning o'z qo'lidadir. Tabiiyki, mazkur omilning muayyan vaziyatdagi holati insonning jismoniy sog'ligini belgilaydi. Tan sog'ligi esa ruh

pokligi kafolatini beradi. Ko'rinadiki, inson va tabiat munosabati bobida o'ta uzviylik, aloqadorlik tuygan Alisher Navoiy "Sittai zaruriya"ning birinchi asarini **"Qasidai "Ruhul-quds"i tavhidi Bori Taolo"** (Ruhiy poklanishning Bori Taolo tavhidiga erishtirish haqida qasida) tarzida ataydi. Turkumning Sarvari koinot, janobi rasuli akram madhiga bag'ishlangan ikkinchi qasidasi sarlavhasiga e'tibor qiling: **"Qasidai "Aynul-hayot" dar na'ti Rasuli alayhis-salavot"**. Ulug' shoir ta'kidicha, eb-ichishda Rasuli akram ibratlariga astoyidil amal qilgan payg'ambar ummatining **"Hayot bulog'idan qona-qona suv ichishi muqarrar. Zaruriy olti jarayonning ibratli yakuni esa xotimaviy oltinchi qasidada yoritilganidek, "Jannat shabbodasi"ga muvassar qilgusidir"...**

"Sittai zaruriya" tarkibidagi olti qasidadan to'rttasi tatabbular bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: **"Qasidayi "Tuhfatul-afkor" tatabbu'i "Daryoi-abror", "Qasidayi "Qutul-qulub" tatabbu'i Hakim Anvari", "Qasidayi "Minhoj un-najot" tatabbu'i Xoqoniy va Anvari", "Qasidayi "Nasimul-xuld" tatabbu'i Xoqoniy"**. Ravshan bo'layotirki, "Sittai zaruriya" bag'ridagi ikki qasida har qanday ta'sirdan mutlaqo xoli va to'rttasining dunyoga kelishida adabiy aloqa hamda o'zaro ta'sir hodisasi sababchidir. Professor Hamid Sulaymon nashrida "Sittai zaruriya"ning beshinchi qasidasi sarlavhasidan **"va"** bog'lovchisi tushib qolgan. Aslida "Qasidayi "Minhoj un - najot" tatabbu'i Xoqoniy va Anvari" ("Hoqoniy va Anvari tatabbu'i'dagi "Minhoj un - najot" qasidasi") tarzida yozilishi zarur edi. Shu birgina **"va"** bahonasida yana bir gapni aytilish mavridi keldi. Mazkur qasidaning tug'ilishida bir emas, ikki tomonlama ta'sir doya hisoblanadi. Fors - tojik adabiyoti tarixida **qasidachilik payg'ambari unvoniga** sazovor ko'rilgan Anvari Abivardiyning (1105 - 1187) shu yo'nalishdagi she'riga Hoqoniy Shervoniy (1120 - 1197) javob aytgan va ana shu ijodiy turtki tufayli bunyod bo'lgan asarga Alisher Navoiy tatabbu' qilgan...

Tatabbu' ijodiy jarayonda yangi hodisa emas. Uni badiiy so'z san'atining o'zi qadar qadimiy desa mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, fors - tojik, turkiy xalqlar badiiy adabiyotida bu hodisa tez-tez va rang ba rang ko'rinishlarda amal qilib keladi. **"Javobiya", "nazira", "taxmis", "tazmin", "iqtibos", "istiqlol", "mubolag'a", "tavr"** uning ayrim namunalari hisoblanadi.

Tatabbu' va uning ko'rinishlariga doir sharhu izohlar parokanda hoida badiiy asarlar bag'riga sochilganki, mumtoz lug'atshunoslar ularni muayyan tartibga keltirish borasida fidoyilik ko'rsatishgan. Adabiy aloqa va o'zaro ta'sirga taalluqli o'sha istilohlar talqinida jiddiy tafovutdan ko'ra, mushtaraklik, yaqinlik qabariqroq ko'zga tashlanadi. Shuni nazarda tutib, lug'atlarda tatabbuga doir berilgan sharhlar atrofida ayrim mulohazalarni bayon etish bilan cheklanish ma'qul ko'rindi. Nufuzli mumtoz lug'atlar zahirida yaratilgan **"Farhangi zaboni tojiki"**ning birinchi jildida o'qiymiz: **"Tatabbu'-a-nimaningdir izidan bormoq, ishtiyiq va kurash bilan nimaningdir talabida bo'lmoq; izlanmoq, 2) tadqiq, tadqiq qilmoq; 3) tobelik, tobe bo'lmoq; payravlik"** (338 – bet. Tarjima bizniki). "Navoiy asarlari lug'ati"da yuqoridagi ma'no jilolari bilan birga "nazira, o'xshatma", nazira (o'xshatma) qilmoq" (598 – bet) tarzidagi ilova ham ko'zga tashlanadi. Adabiyotshunoslikdagi qarashlar mohiyat – mazmuni bilan lug'atlardagi talqinlarda jiddiy tafovut ko'zga tashlanmaydi. Shuning uchun ularni birma – bir keltirish va munosabat bildirishni lozim ko'rmadik. Alisher Navoiy g'azaliyotida tatabbu' mavzui adabiyotshunoslikda birmuncha o'rganilgan. Bu borada tojik olimlari: akademik A.Mirzoev, professor R.Hodizoda, o'zbek muhaqqiqlaridan A.Hayitmetov, B.Valixojayev, N.Komilov, R.Vohidov, A.Shomuhamedovlarning tadqiqotlarida e'tiborga molik mulohazalar o'rtaga tashlangan. Ulug' shoir qasidalarini ("Tuhfatul – afkor"ni mustasno qilganda) ayni yo'nalishda deyarli o'rganilmagan soha hisoblanadi. Aslida qalamga olingan. Mavzu nihoyat ko'lamdor bo'lib, uni kichik bir ish doirasida tadqiq qilish noimkondir. Shuni nazarda tutib, bu o'rinda **"Daryoi abror", "Lujjat ul-asror", "Tuhfatul afkor"** qasidalarini qiyosiy o'rganish orqali ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Alisher Navoiy "Xamsatul – mutahayyirin"da "Tuhfat ul – afkor"ning yaratilishi tarixi xususida nisbatan kengroq ma'lumotlar yozib qoldirgan. Xuroson davlatining vaziri a'zami mansabida faoliyat ko'rsatayotgan ulug' shoir **Marvga borish oldidan Abdurahmon Jomiy ziyorati va fotahasini olish uchun uning hovlisiga boradi.** Suhbat nihoya topib, duo qilingandan keyingi lahzada haqida asarda yoziladi: **"...Dag'i qo'yunlaridin bir juz chiqorib faqirga inoyat qildilar. Olib ochdim ersa, "Daryoi**

abror" javobi "Lujjat ul-asror" erdiki, hamul kunlarda aytib erdilar" (14-jild, 29-bet). Parchada Alisher Navoiy tatabbu' o'rnida "javob"ni qo'llayotir. Uning davomida esa ulug' shoir Jomiyning adabiy ta'sir tufayli dunyoga kelgan javobiya qasidasiga o'z bahosini ham bergan: **"Har kishi o'qusa bilurki "Daryoi abror" din yakdastroq va ranginroq"**. Ehtimol, mazkur baho mubolag'a va hissiyotlardan ham xoli emasdir. Biroq bu baho zarif so'zshunos Alisher Navoiy kalomi ekanligi bilan diqqatni tortadi. **"Yo'lda ot ustida qasidani o'qub, xushhollik bila borurda xayolga "Tuhfatul-afkor" qasidasining matlai keldi.**

**...Marvga borguncha ani ul hazrat otig'a (Abdurahmon Jomiy-R.V.) tugatdim"** (14-jild, 29-bet). Bu — mo'jiza. Bunday lavhalarni faqat hayrat og'ushidagina qabul qilish, mohiyat — mazmunini ilg'ash mumkin. Amir Xisravning 102, Abdurahmon Jomiyning **92 baytlik** qasidalariga javoban ot ustida 99 baytlik dilbar she'riy satrlarni ijod qilish har qanday so'z san'atkorining ham qo'lidan kelmaydi. Buni cheksiz ilohiy inoyatga musharraf ko'rilgan Alisher Navoiyday zoti mukarramgina uddalay ketdi. Tatabbu' xususida ilmiy bahs yuritgan tadqiqotchilar unga nisbatan xilma-xil atamani, fikrlarni qo'llashdiki, ularning barchasiga qo'shilish qiyin. Fikrimizcha, mo'jizalar olami sanalmish badiiy ijod dargohida tatabbuning o'zi ham ayricha mo'jizadir. **Uning tabiatidan adabiy janrga xos belgilarni izlash ilmiy tamoyillarga to'g'ri kelmaydi.** Tatabbu' — har bir davr adabiyotida, zabardast ijodkorlarning adabiy tajribasida ahyon — ahyonda sodir bo'lib, notakror samara beruvchi hodisadir. Amir Xisrav qasidasi bois turku tojiklar ma'naviy xazinasidan munosib joy olgan **"Lujjatul-asror"** ("Sirlar teranligi") va **"Tuhfatul-afkor"** asarlarining yaratilish jarayoni fikrimizning yorqin dalilidir. "Tuhfatul-afkor"ning yozilishi, shuhrati, Abdurahmon Jomiyga manzur kelishi va shu gaplarning **"podshoh hazratlariga etishi"** haqida mushohada yuritgan Alisher Navoiyning quyida keltiriladigan jummalari tatabbu' mohiyatini ochishga qo'l keladi: **"Chun Amir Xusrav va alar (Abdurahmon Jomiy-R.V.), baytiki har kishikim aytibdur-saltanat tariyqining nafyi voqe' bo'lubtur, faqir chun azizlarga tatabbu' qilib erdim-hamun tariyq mar'iy bo'lub erdi"**.

Keltirilgan iqtibosdagi "tariyq" so'ziga e'tiboringizni jalb qilmoqchiman. Alisher Navoiy shu so'zni ikki karra qo'llayotir. Lug'atlar tariyqning arabcha so'z ekanligi, **"1) yo'l, iz, 2) usul, yo'sin, qoida, rasm, 3) maslak, 4) vosita, sabab"** kabi ma'nolari borligini qayd etishadi. Zikri o'tgan ma'no jilolari nuqtai nazaridan qaralsa, "saltanat tariyqi" iborasi zamirida podshohlik rasm — u qoidalarini yoritish mualliflarning diqqat markazida turganligi ayonlashadi. Ikkinchi jumlada tariyqning yonida **"mar'iy"** so'zi keltiriladi. Keyingi so'zning **"e'tiborga olingan, nazarda tutilgan, rioya qilingan"** singari talqinlari borligiga ahamiyat berilsa, ulug' shoirning muddaosi yanada oydinlashib qoladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har ikki o'rinda ham gap podshohlik rasmu qoidalari va mulkdorlarning unga rioya qilishi, ya'ni mavzu qirralarining nechog'lik ochilishiga tegishlidir. Masalaning badiiy asarning ifoda usuli (metodi) va uslubiga daxldor tomoni esa har bir iste'dod sohibining salohiyat hamda mahoratiga taalluqli bo'lib qolaveradi.

Shunday ekan, bu o'rinda taqlid haqida emas, ijodiylik xususida urg'u bilan gapirish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Aslini olganda, bahsimizning mavzu pahlulariga doir nuqtalari ham jiddiy mulohazani talab qiladi. Bu borada har bir so'zgina emas, hatto, uning ohangi ham hisobda turishi ayon. Darvoqe, Navoiy hazratlarining:

**Emas oson bu maydon ichra turmoq,**

**Nizomiy panjasiga panja urmoq** — deya ijodiy musobaqa maydoni mashaqqatlarini tanti e'tirof etishlari bejiz emas. Bunday bellashuvlarning yutug'i ko'pincha tafakkur qudratiga, so'z sehrini kashf etishdagi topqirlikda, hayotiy lavhalarning zargarona tanlanishi va nafis badiiy ifodasiga, san'atkorlik bobidagi mahoratiga aloqadordir. "Tuhfatul-afkor"ning adabiy hayotdagi mavqei, uning Sulton Husayn Boyqaroga ko'rsatgan ruhiy — ma'naviy ta'siri va o'sha holatning o'zida uyg'otgan kayfiyati haqida so'zlar ekan, Alisher Navoiy yozadi: **"Husni xulqlaridin (Podshohning-R.V.) bu faqir mahjub bo'lub, xayolga keldikim, bu qasidaga ("Tuhfatul-afkor" va uning tug'ilishiga doya bo'lgan asarlar ko'zda tutiladi-R.V.) yana bir tatabbu' qilib, darvishlar maddohligini qilib, ammo hukumat tavrini tayin qilmay, podshohning**

**muborak otiga tugatilgay"** (14—jild, 31—bet). "Xamsatul—mutahayyirin"da xabar berilishicha, darveshlikni sharaflovchi bu qasidaning matlai ham **Marvdan (1476—yilda)** Hirotga, Abdurahmon Jomiyga yuborilgan. Ma'naviy pirning oq fotihasi ifodalangan maktub qo'lga tekkach, nihoyasiga etkazilgan Afsuski, o'sha qasidaning to'la matni hanuzgacha topilgan emas. Uning quyidagi matlai esa qolgan satrlarga ilhaq bo'lib, "Xamsatul—mutahayyirin" bag'rida yashab keladi:

**Xirqai pur bax'ya k—ahli faqrro k—on dar bar ast,  
Bar farozi olami ma'ny sipehru axtar ast.**

Ushbu asarga nisbatan qo'llangan tatabbu' istilohining shartli ekanligi shubha uyg'otmaydi. Negaki, oldingi qasidalarini mavzu birligi o'zaro mantiqan bog'lab turgan bo'lsa, keyingi she'rda ulug' shoir undan chekingan. "**Hukumat tavrini ta'yin qililmay**", "darvishlar maddohligini" bajo keltirish Alisher Navoiyning bosh maqsadi hisoblanadi. Keyingi qasidaning qofiyasi va radifidagina "Tuhfatul—afkor"ga uyg'un jihatlar ko'zga tashlanadi, xolos. Xuddi shunday nisbiy alomatlar Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy qasidalarida ham namoyon bo'ladi. Fikr tasdig'i uchun ayrim misollarga murojaat qilaylik:

**"Daryoi abror" matlai:**

**Ko'si shah xolivu bongi g'ulg'ulash dardi sar ast,—  
Har ki qone' shud ba xushku tar, shahi bahru bar ast.**

(Amir Xisrav Dehlavy. Osori muntaxab. Dar chahor jild, jildi 4 "Irfon", Dushanbe—1975, sah.811).

Mazmuni: Shohlar saroyida chalinadigan katta nog'oraning ichi bo'sh bo'lgani uchun uning ovozi dahshatli va boshni og'ritadir. Kimekim ho'lu quruqqa birday qanoat qilsa, o'sha er yuzining (quruqlik va suv sathi) shohidir.

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida shakllangan an'anaga ko'ra kichik she'riy janrlarning (g'azal, qasida va hokazo) matlai butun asar uchun reja vazifasini o'taydi. Shu ma'noda, birinchi band (matla') faqat qofiyalanishi bilan emas, tayanch g'oyaviy

mazmunni o'zida mujassam etishi bilan ham alohida ahamiyat kasb qiladi. Ayni fazilat Amir Xisrav qasidasi matlai uchun ham begona emas. Aslida bir-biriga go'yo mazmunan bog'lanmaydigan bo'lib tuyuluvchi holat va tashbehtar zamirida **shoh, shohlik, dunyo, unda insonning o'zni, yashash va uning maqsadi** kabi teran falsafiy mushohadalar yashiringan. Shohu shohlik yuzaki qaraganda, ko'rkam, jozib, intihosizday namoyon bo'ladi. Yoki katta va chiroyli nog'orani eslatadi. Mavzuga jiddiyroq yondashilsa, shohu shohlik bilan aloqador tashvish — taraddudlar o'sha — ichi bo'sh va yoqimsiz tovushi quloq pardalarini yirtgudek, sadosi bosh og'riqlarining manbayi — nog'oralar farq qilmaydi.

O'ttiz yildan ziyod umri saroy muhiti bilan jips bog'langan shoirning o'shanday xulosasi zamirida achchiq hayotiy haqiqat yotadi. Toju taxt bebaqo, mol — u mulk bevafo. Chinakam shohlik esa qanoatdadir. Ana shu g'oya **ikki yuz to'rt satrlik** qasidaning bosh qon tomiri deyilsa, mutlaqo xato bo'lmaydi. Alisher Navoiy davlati bilan ijodiy musobaqaga kirishgan va nihoyat qisqa muddatda **bir yuz sakson to'rt misradan** tarkib topuvchi qasidani nihoyasiga yetkazgan Abdurahmon Jomiy ham o'z asarini tatabbu' atadi. Mana o'sha "**Lujjat ul-asror**" qasidasining matlayi:

**Kunguri ayvoni shah, k-az koxi Kayvon bartar ast,  
Raxnaho din, k-ash ba devori hisori din dar ast.**

(Abdurahmoni Jomiy. Osor. Dar hasht jild. Jildi 1, "Irfon", Dushanbe — 1986, sah.34).

**Mazmuni:** Podshohlar qasri ayvonining naqshinkor kungiralari yuksak osmonga, Zuhul yulduziga etgulikdir. Ammo bilgil, ular o'rtasidagi har bir raxna din qal'asi devoriga ochilgan eshiklardir...

Qarang, Xuroson davlatining Shayxul — islomi, o'sha hudud va uning sarhadlaridan olislarda ham Naqshbandiya tariqatining rahnamo — murshidi maqomida faoliyat ko'rsatgan Abdurahmon Jomiy qasidasining matlaidayoq mushohada — muhokama o'zanini ilohiyot tarafiga yo'naltirib yuborgan. Matladan keyingi banddan boshlab muallifning mulohazalari teskinlashib boradi. Abdurahmon Jomiy misralarida uyushib



kelgan tashbehlar ilohiy – islomiy qarashlarni yanada qabariqroq yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan:

**Chun salomat mond az toroj naqdi in hisor?  
Posbon dar xobu bar har raxna duzde digar ast.  
Chist zarri nob – Rangin gashta xoke z – o'ftob,  
Har ki kard afsar zi zarri nob, xokash bar sar ast**

(O'sha kitob, 34 – bet).

**Mazmuni:** Din qal'asi sodir bo'lgan tolon – torojlardan qanday omon qoldi? Biroq posbon uyquda – yu har bir raxna – eshik boshqa – boshqa, o'g'ining ixtiyoridadir. Sof, tiniq, oltin nimadir? Quyosh nurlaridan zarrin tovlanuvchi tuproqdir. Kimekim boshiga zarrin tojni (shohona kulohni) qo'ndirdi, uning boshi tuproq ichidadur.

Jomiy hazratlarining qarashlari negizini islomiy g'oyalar tashkil qilishidan qat'iy nazar, ular insonning axloqiy – ma'naviy kamolotiga yo'naltirilganligi bilan e'tibolrga molik. Buyuk ma'naviy arbobning yuksak orzusi zamon podshosini shar'iy talablar doirasida faoliyat ko'rsatishining guvohi bo'lishdan iborat edi. "Lujjat ul – asror" esa o'sha g'oyaning badiiy ifodasi yo'lida xizmat qiladi. Ikki buzrukvor ustoz qasidasidan ham xabardor Alisher Navoiyning "Tuhfat ul – afkor"ida batamom boshqacha g'oyaviy – badiiy manzaraga duch kelamiz. Jumladan, quyidagi misralarni nazardan o'tkazish pand bermaydi:

**Otashin la'le, ki toji xusravonro zavar ast,  
Aygare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.  
Shahki yod az marg n – orad z – o'st vayroni mulk,  
Xusravi beoqibat xusri bilodu kishvar ast.**

(5 – jild, 2 – kitob, 346 – bet).

**Mazmuni:** Podshohlar nigohida toj bezagi bo'lib ko'rinuvchi otashsimon la'l, aslida ular boshida aylanib yuruvchi xom xayollarni pishirishga mo'ljallangan laxcha bir cho'g'dir. Mulk vayronaligi oxiratni, o'limni xotiraga olmay, nojo'ya harakatlar qiluvchi shohdandir. Podshohning oqibatsizligi mamlakatning tanazzuli, xarobaligiga bosh sababdir.

Alisher Navoiy yurtni podshosiz tasavvur qilolmaydi. Shuning uchun u g'azallaridan birida "Mulkkim sultoni yo'q, jimedurkim joni yo'q", – deya masalani ancha keskin hal qiladi

Ulug' o'zbek shoiri nuqtai nazaridan mulkdorlarni "Shohi g'oziy va shohi zolim" tarzida guruhlashtirish mumkin. "Tuhfat ul – afkor"da ana shu mavzuning rang – barang qirralari falsafiy teran va badiiy baquvvat ifodasini topadi. Alisher Navoiy qarashlari o'z zamin va ohangi, mohiyat hamda mazmuniga ko'ra na Amir Xisrav va na Abdurahmon Jomiy qasidalariga yaqin turadi. To'g'ri, hayotiy va shar'iy talabu tamoyillar jihatidan har uchala so'z san'atkori satrlarida mushtarak nuqtalar bor. Chunki mualliflar tayanch islomiy sarchashmalar ruhida tarbiya ko'rishgan va o'sha yuksak insonparvarlik g'oyalari, ularning badiiy yaratmalarida hamisha o'zidan darak berib turadi. Alqissa, intilish nuqtasi yagona, ammo o'sha istiqbol cho'qqisiga olib boruvchi yo'l xususida esa bu gapni aytib bo'lmaydi. Biroq, "Daryoi abror", "Lujjat ul – asror", "Tuhfat ul – afkor"da bir – biridan (ta'sir o'tkazuvchi va o'zaro hamkorlik mahsuli bo'lgan qasidalarda) darak beruvchi she'riy unsurlar ko'zga tashlanadi. Bahsimiz manbai bo'lgan qasidalarining hammasida "ast" (dir) radif bo'lib kelgan. "Daryoi abror"dagi "sar", "bar", "sarsar", "ozar", "dar", "afsar", "far", "kishvar", "axzar" kabi o'nlab ohangdosh so'zlar "Lujjat ul – asror" va "Tuhfatul – afkor"da ham qo'llaniladi. Shunday gapni talay she'riy san'at, an'anaviy tashbehu timsollar xususida ham aytish joizdir. Yuzaki kuzatishlarimizdan ravshan bo'layotirki, teran qiyosiy tahlilgina har bir asar va uning muallifi mahorati darajasiga munosib ilmiy baho berish imkoniyatini beradi. Sarlavhadagi e'tiroflar, zohiriy she'riy unsurlardagi monandlikka qarab xulosa chiqarish (uning mazmuni qanday bo'lishidan qat'iy nazar) pand berishini unutmashimiz lozim...



## "NAVOIY SHE'RIG'A SOLG'IL QULOQKI..."

Alisher Navoiy she'riyati namunalarini izlab topish va nashr etish borasida XX asrda talay ishlar amalga oshirildi. Ulug' shoir qalamiga mansub she'riy durdonalar alohida kitoblar holida o'quvchilarga peshkash qilindi, turli antologiya va majmualar tarkibiga kiritildi. Shunday gapni o'rtga va oliy ta'lim muassasalari tolibi ilmlari uchun tuzilgan darslik, qo'llanma va majmualar haqida ham aytish joizdir. O'tgan asrning 50 – yillaridan boshlab esa ulug' shoir asarlari ko'p tomliklar tarkibida keng o'quvchilar ommasi hukmiga havola qilindi. Bu jihatdan taniqli navoiyshunos olim, professor Hamid Sulaymon tomonidan amalga oshirilgan ishlar e'tirofga loyiqdir. Hassos olim "Xazoyin ul – maoniy" yig'ma devonlarining ilmiy – tanqidiy matnini yaratish borasida juda katta mashaqqatli mehnat sarf etdi. Uning sa'yu harakatlari bilan "Xazoyin ul – maoniy" yig'ma devonlarining **O'zbekiston va uning hududlaridan tashqarida saqlanayotgan juda ko'p qo'lyozmalari aniqlanib, nusxalari qiyosiy tadqiq etildi va shu asosda mazkur javohirot xazinasining akademik (ilmiy – tanqidiy matnga asoslangan mukammal chop) nashri amalga oshirildi.** Professor Hamid Sulaymon tarafidan ulug' shoir ijodi muhiblariga taqdim qilingan mazkur kitoblar muhim ahamiyatga molik jadvallar, izoh – u lug'atlar bilan ta'min etilganligi, qog'oz hamda chop sifatining balandligi bilan hamon yagonadir. Shunday lo'nda xulosani **Alisher Navoiy "Ilk devoni"ning surat nashri haqida ham aytish o'rinlidir.** Ulug' shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan uning keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola etilgan **"Tanlangan asarlari" o'n besh jildligining** birinchi – beshinchi kitoblari ulug' shoirning o'zbek va fors tilidagi she'riy merosini qamrab oladi. Alisher Navoiy **"Mukammal asarlari to'plami"ning birinchi-oltinchi jildlari** ulug' shoirning ona tilidagi – o'zbek tilidagi she'rlaridan tuzilgandir. Biz yuqorida sanaganimiz ixcham ro'yxatdan ayonlashadiki, fidoyi matnshunos olimlarimiz bobokalon shoirning o'zbek tilidagi she'riy merosini aniqlash va bugungi avlod mulkiga aylantirish borasida ibratli ishlarni amalga oshirgan. Biroq, ayni yo'nalishda bajarilgan ishlarimiz Alisher Navoiy she'riy merosiga doir barcha vazifalar uddalanib bo'ldi,

deyishga hali erta ekanligidan dalolat berayotir. XX asr 90—yillarida ulug' shoir ijodi muxlislari e'tiboriga havola qilingan mo'jazgina to'plamcha bizning yuqoridagi xulosamiz foydasiga xizmat qiladi.<sup>6</sup> Biroq davriy matbuotda e'lon qilinayotgan ayrim ma'lumotlar yuqoridagi to'plamning ham oxirgi marra emasligidan dalolat berayotir. Shunday gapni Navoiy—Foniy she'rlarining taqdiriga doir ham aytish mumkin...

Biz ushbu ishimizda keyingi to'plamcha xususida ayrim mulohazalarimizni bayon qilishni lozim topdik...

Ulug' shoirning yangi topilgan she'rlaridan tartib topgan **"Ayyomi visol o'ldi yana..."** nomi bilan chop etilgan kitobning keng o'quvchilar ommasini hukmiga havola etilgani quvonchli voqea bo'ldi. Kitobchanning tuzilishi, tarkibi xususida mulohaza yuritishdan oldin unda keltirilgan ayrim she'rlarni g'oyaviy—badiiy jihatdan nazardan o'tkazishni ma'qul ko'rdik. Mazkur to'plamdan joy olgan asarlarning ulug' shoirning boshqa she'rlaridan badiiyat tamoyillari jihatidan kam emasligi haqida qanoat hosil qilish uchun ham shunday yo'l tanlandi. Quyida lahlilga tortiladigan g'azal ana o'sha to'plamdan. Uning boshlanish va xotima baytlari quyidagicha:

**Sipehru mehr yuzungdin nishonadur barcha,  
G'araz sen—o'qsenu ul bu bahonadur barcha...  
...Navoiy she'rig'a solg'il quloqki, vaslingda  
Hazin tarannumu dilcash taronadur barcha.**

G'azalning hajmi ixcham—besh baytli. Oshiqona. Keltirilgan iqtibosda ma'shuqaning qiyofasi yorqin ko'zga tashlanmaydi. Lekin unda ishq shavqi baland. Birinchi misradagi ayrim ishoralar o'quvchini hushyor torttiradi va she'rda o'rta qo'yilgan g'oyaviy niyat mohiyatiga yaqinlashtiradi. *"Sipehr" va "mehr" so'zlari ochqich vazifasini o'taydi. Bu ikki ishora yor yuzidan nishonadur. "Sipehr"—forsiy so'z. Uning "osmon, talak, osmon gumbazi" kabi ma'nolari bor. "Mehr" ham forsdiydan olingan va ko'p ma'noli so'z. Uning "Quyosh, oftob" dan tashqari, "ishq otashi", "yuksak darajadagi sevgi", "muhabbat", "ishq" singari sharhlari mavjud. "Mehr" tuzilishiga ko'ra satrda mahbuba yuzining o'xshatilmishi bo'lib keladi. Ana shunday nozik bir urinish bilan yor yuzining kulchasimonligi,*

rangi, harorati va nur manbai ekanligi nazarda tutiladi. Tashbehning bu qirrası ishq tasvirini zamin go'zaliga tortadi. Biroq "sipehr" ma'no rishtalarini samoga boshlaydi. Sipehr va Mehrning birlashuvi gap o'zanini Mutlaq mahbuba, ikki olam bunyodkori — Allohga ulaydi. Baytning ikkinchi misrasi ham o'sha mazmunni mustahkamlashga xizmat qiladi. Alqissa, baytda ilohiy (haqiqiy) ishq, orifona muhabbat ustunlikni egallaydi. G'azalning matladan keyingi ikkinchi baytida ham shunday mayl ustundir.

Alisher Navoiy talqinicha, **Alloh—Quyosh, inson undan uzilgan zarralardir.** Insonning o'limi—zarraning asliga, mazharga, Quyoshga—qaytishi va birlashuvidir. Ammo imtihon dunyosini hoyu havas bilan o'tkazgan nopoklar esa shu sharafdan mahrumdirlar. G'azalning ikkinchi baytida o'sha muddao yorqin ifodasini topgan.

**Vujud domida og'zin aning yuzi bila ko'r,  
Ki, zarra xayli quyoshdin nishonadur barcha.**

She'rdagi yana bir jihatni ta'kid bilan aytish zarur. Unda majoziylik kuchli. Jumladan, ko'chirganimiz baytda ham bu holatni kuzatish mumkin. Biroq bunday uslubiy jilo tasodifiy hodisa bo'lmay, orifona she'rlar, umuman, ma'rifiy—ilohiy yo'nalishdagi asarlar uchun xos xususiyatdir. Ko'chirganimiz baytda talmeh—**ilohiy, afsonaviy, tarixiy, ilmiy asar, hodisa—voqea, uning qahramonlariga ishora qilish orqali ma'noni kuchaytirish san'ati** ham ishga solingan. Ammo ular xususida oshkora aytilmaydi. O'ta yashirin va mayin ishora orqali zikri o'tgan holatlarni sezish mumkin. Islomiy ta'limotga ko'ra, inson Allohning nodir yaratmasi va uning jismida ilohiy ruh bor. Shuning uchun **Xoliq—Quyosh, Xil'at (inson)—zarra.** Ma'rifiy—tasavvufiy olam pirlari ana shu haqiqatni idrok etganlar va poklik, poklanish yo'lini muqaddas biladilar...

G'azalning uchinchi baytini nazardan o'tkazib ko'raylik:

**Yuzi—yu qaddi—yu la'lin ko'ngul g'animat tut,  
Ki, huru tuboyu kavsar fasonadur barcha.**

Avvalo aytish joiz, baytda laffu nashr—yig'moq va yoymoq san'atining chiroyli namunasi ishga solingan. Mahbubaning yuzi

huru parilarga, qaddi jannatdagi sersoya, mevali, xushbo'y va hosili bisyor daraxtga, labi (la'l—qizilcha, qimmatbaho tosh) jannatdagi kavsar hovuzining zilol suviga (mahbuba labidagi namlikni ta'min etgan qatralar) nisbat berilayotir. Satrlarda kelgan turfa ishoralar oshiq nigohida jannatiy—ilohiy va majoziy ma'shuqani bir—biriga ancha yaqinlashtirib qo'yadi. To'rtinchi baytda ikkilanishga nuqta qo'yiladi. Undagi ifodalar g'azalning bosh maqsad—muddaosi, ohangi va g'oyaviy yo'nalishini oydin belgilab olish imkoniyatini yaratadi.

**Haqir ko'rma xarobot durdkashlarini,  
Ki, bu xarobalar ichra xazonadur barcha.**

Xarobot—komillik yo'lini qismat bilgan insonlar manzili. Durd—may quyqasi, ammo majoziy ma'noda, ma'rifat sharobidir. Xazona—xazina. Haqir—xor—u zor, tuban kabi mazmun jilolariga ega. Komil insonlar xaroba go'shani manzil sifatida tanlaganlari tufayli ular uchun dabdabali hayot tarzi mutlaqo begona. Bunday orif zotlar uchun haqirlik—sharaf. Aytilganlarni birlashtiradigan bo'lsak, she'rda o'rtaga qo'yilgan tayanch maqsad ancha ravshanlashadi: **Halollikni muqaddas sanagan zotlar zohiran benavo qiyofada namoyon bo'ladilar. Biroq ularning ichki olami, ma'rifiy dunyosi boy. Bunday ulug' zotlar har qanday zamon va makonda ham bebaho xazinadirlar.** Ayni holatlar Alisher Navoiy g'azaliyoti uchun begona ham, yangilik ham emas. Buyuk mutafakkirning orifona va oshiqona she'rlarida ana o'sha ikki qutb hamisha yonma—yon turadi. Poklik ularni birlashtirsa; nopoklik, aldov, g'irromlik ayni toifa ahlini yiroqlashtiradi. Alqissa, nopoklik bulhavaslar va oriflar ishqi o'rtasida Xitoy devorini tushurib qo'yadi. Tahlilga jalb qilganimiz g'azalning satrlarida nazarga etadigan ayrim belgilarni hisobga olib ushbu she'r ulug' shoir hayotining so'nggi yillarida yaratilganini taxmin qilish mumkin. **Shunday fikr F.Sulaymonovanning so'z boshisida ham ko'zga tashlanadi.** Shoir qalamkash ijodiy jarayonining ilk pallasida shakllangan o'sha uslub va fikriy teranlik umr intihosida ham she'riyat mulki sohibqironini tark etmaganiga to'la qanoat hosil qilamiz. Shunday xulosani **"Ayyomi visol o'ldi yana"** to'plamida ilk bor chop etilayotgan qirqqa yaqin she'r haqida ham aytish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalarimizni yanada quvvatlantirish uchun ulug' shoirning shu to'plamchada ilk bora ro'shnolik ko'rgan quyidagi g'azalini tahlilga jalb qilib ko'raylik:

**Bog' aro chiqsa xiromon sarvi ozodim yana,  
Bog'ni kuydirgudektur ohu faryodim yana.  
Tiya olmon oyog'imni xuni zanjiridin,  
To emastur jilvagar har yon parizodim yana.  
Chiqmayin bir dardu bu yuz dardkim ahbobni,  
Hamdam aylab hamnafas qilmas mening yodim yana.  
Gar emas afkor ayog'i kiprikimning xoridin,  
Jilvagar nevchun emas nuri shamshodim yana.  
Aql uyi sari nechun yo'l istayinkim, har dahr,  
Ey Navoiy, hamdam aylar ishqiqi irshodim yana.**

Oldingi sahifalarda tahlil qilganimiz she'r singari bu g'azal ham besh baytlidir. Uning tili ravon va sodda, ya'ni alohida sharhu izohlarga muhtojlik sezuvchi so'zlar unda deyarli uchramaydi. Mavzuiga ko'ra oshiqona — orifona. Aslida Alisher Navoiyning aksariyat she'rlarini ana o'sha qorishqlikdan ayro tasavvur qilish amri maholdir. G'azalning yetakchi qahramonlari an'anaviy — oshiqu ma'shuqa. Shunday gapni unda qo'llangan tashbehlar xususida ham aytish joiz ko'rinadi. Tuzilishiga ko'ra mazkur she'rni yakpora yoxud musalsal (ma'no jilolarining zanjir halqalari singari o'zaro bog'lanishi, she'riy san'at sifatida — tanosib) g'azallar sirasiga kiritish mumkin. Unda hikoya qilib so'zlash mumkin bo'lgan **"voqealar tizmasi"** mavjud. Satrlardagi **"bog"**, **"sarvi ozod"** va **"xiromon"** so'zu iboralari keng ma'noda keladi. Yoxud g'azal misralarida tabiat va mahbuba tasviri yonma — yon harakat qiladi. Bog'ning tarovatiga tarovat qo'shgan sarv o'z va ko'chma vazifani bajarmoqda. Ulug' shoir sarv yonida **"ozod"**ni qo'llash bilan o'xshatishni yangicha talqinda tasvirlashga erishadi. Daraxtning (sarvning) o'q ildizlari et bag'riga qadalgan, u erkin harakat qilishdan mahrum. Sarv — mahbuba esa, ozod, u bog' ichida xiromon qilib (mayda qadamchalar bilan yurib) daraxtlarning (sarvlarning) havasini keltiradi. Oshiqning bog'ni kuydurgudek darajadagi ohu fig'onining boisi ham ana **o'sha sarvi ozodning xiromon qilib yurishidir**. G'azalning keyingi misralarida matladagi qayd

etganimiz manzaraga aloqador jarayonlar "palak yozadi". Ya'ni ishqning lazzatli iztiroblari (ma'shuqa oyoqchalarining oshiq xuni bilan zanjirlanishi — bu nozik va tasvirdagi yangilik dard ustiga dardning minishi; shamshod qomatli mahbuba oyoqlarining oshiqning xorsimon (tikan) kipriklaridan (suqlanib qarashidan) afgor bo'lishi va hokazo) tasviri davom etadi. Maqta' matlaga xulosa yasaydi: Aql va ko'ngul taloshida qolgan oshiq ikkinchi yo'lni (ko'ngul, qalb istagini) tanlaydi va irshodni xush ko'radi. G'azal ana shunday orifona mayl bilan yakun topadi...

Kitobchadan **g'azal (62), ruboiy (2), qit'a (8), fard (4)** janriga mansub jami **76 she'r** o'rin olgan. Biroq ularning hammasi ham birinchi marta nashr yuzini ko'rayotgani yo'q. Alisher Navoiyning turli qo'lyozma devonlari bag'riga sochilib ketgan she'riyatini "elakdan o'tkazish", xattotlar tomonidan sodir etilgan nuqsonlarni bartaraf qilish harakati taniqli navoiyshunos Hamid Sulaymon tomonidan boshlangan edi. Zahmatkash olim dunyoning turli burchaklarida saqlanayotgan ulug' shoir asarlaridan nusxa olib qaytar ekan, "Xazoyin ul—maoniy" matnlarini chuqur muqoyasaviy o'rgandi va shu **yig'ma devonlarning ilmiy—tanqidiy matnini yaratdi**. Olim izlanishlari natijasida Alisher Navoiyning «Chor devon»ga («Xazoyinul—maoniy»ning xalqona atalishi) kirmagan) o'ttizdan **ortiq yangi she'rlari** topilib, "Xazoyin ul—maoniy"ning 1959—1960 yillardagi akademik nashriga ilova tarzida joylashtirilgan edi. Ana o'sha **o'n to'qqiz g'azal, ikki ruboiy, sakkiz qit'a va to'rt fard** ikkinchi marta "Ayyomi visol o'ldi yana..." to'plamiga kiritilgan. Hamid Sulaymon aniqlashga muvassar bo'lgan yangi topilmalar bilan qanoat qilgan emas. Shundan bo'lsa kerak, ulug' shoir asarlari o'n besh jildligining birinchi kitobiga yozgan so'zboshisida quyidagilarni ta'kidlaydi: **"Ro'yxatdagilardan tashqari, Navoiyning bizgacha etib kelmagan asarlari bo'lishi mumkin—mi? Albatta, mumkin. Xulosa shuki, Navoiy asarlarining biz tomonimizdan tuzilgan ro'yxati kelgusida yana yangi asarlar hisobiga boyishi mumkin"**. Olimning shunday yakunga kelishi va bashorat qilishi tabiiy edi.

Ma'lumki, "Xazoyinul maoniy"ni ulug' shoir 1492—1498 yillar oralig'ida tartib berdi. Salkam ellik yil davomida yaratilgan o'zbekcha she'rlarini muayyan talablar asosida ajratish, tartibga solish va hammasini qamrab olish esa qiyin edi. SHu sababga

ko'ra, ba'zi she'rlarning muallif musavvadlari ichida qolib ketishi hech gap emas edi. Ikkinchidan, 1498 yildan keyin ham Alisher Navoiy katta hajmli asarlar bilan birga she'riyat janrlarida ham qalam tebratadiki, o'sha asarlar "Xazoyinul – maoniy"ning dastlabki nusxalaridan chetda qolgan bo'lishi mumkin. Ayrımlari aytilgan sabablarga binoan ustozı va umr yo'ldoshi boshlagan xayrli ishni davom etishga ahd qilgan filologiya fanlari doktori Fozila Sulaymonova "Xazoyin ul – maoniy"ning matnshunoslar tomonidan sinchiklab o'rganilmagan qo'lyozmalarini (Istambul va Parij kulliyotlarini) jiddiy diqqat bilan nazardan o'tkazishdan tolmadi. Zaxmatkash olim a e'tiborini, ayniqsa, Parij Milliy kitobxonasida saqlanayotgan kulliyot nusxasi ko'proq jalb qiladi. Uning izlanish va mashaqqatli mehnatlari zoe ketmadi. Samarali urinishlaridan qanoat hosil qilgan olim a yozadi: **"Hammasi bo'lib, 40 g'azal topildi. Haqiqatdan, ularning ko'pchiligi Navoiy tomonidan umrining so'nggi yillarida yaratilganligi ma'lum bo'ldi"**. Olimaning xulosasi shubha uyg'otmaydi. Chindan ham "Ayyomi visol o'ldi yana..." kitobidan joy olgan va matni bilan professor F.Sulaymonova sa'y – harakatlari tufayli tanishish sharafiga muyassar bo'lganimiz she'rlarda ulug' shoir umri intihosining iztiroblari yorqin iz qoldirganiga qanoat hosil qildik. Shunday qilib, **"Ayyomi visol o'ldi yana..." to'plamidan joy olgan 76 she'rdan qirqtasi mutlaqo yangi va ulug' shoirning bugunga qadar chop etilgan biror bir kitobida uchramaydi.** Ayni voqea navoiyshunosligimizda ham katta kashfiyotdir.

## Adabiyotlar va sharh – u izohlar

1. Mazkur yo'nalishdagi ishlar benihoya ko'p ekanligini nazarda tutib, ularga alohida to'xtalishni lozim topmadik.

2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul – maoniy. To'rt jildlik. "Fan", Toshkent – 1959 – 1960 yillar. Mazkur nashrning birinchi jildida matnshunos olimning katta so'zboshisi berilgan bo'lib, (V – XXVIII betlar) unda matn uchun asos sifatida qabul qilingan qo'lyozma nusxalar, amal qilingan ilmiy tamoyillar xususida keng fikr yuritiladi. Har bir kitobda ulug' shoirning rangli tasvirdagi suratlari berilgan. Alohida ta'kid va katta ilmiy ahamiyatga molik tomoni shundaki, unda har bir kitobdan joy olgan (jami 3132 she'rning) asarning aruz bahrining qaysi shu'basida ekanligi



inaxsus jadvallarda ko'rsatiladi.

3. Alisher Navoiy. Ilk devon. 1466 yilida ko'chirilgan go'lyozmaning faksimil nashri. "Fan", Toshkent – 1968. SHunday nashr adabiyotimiz tarixiga doir yagona va go'oyat go'zal nusxa ekanligi bilan diqqatni tortadi.

4. Alisher Navoiy. Xazoyin ul – maoniy. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n olti kitob DBAN. Toshkent – 1963 – 1965 yillar. "Asarlar"ning 5 – tomi shoirning forsiy she'rlaridan tuzilgan bo'lib, ikki kitobdan tarkib topadi. "G'aroyib us – sig'ar"ning boshlanishida V.Y.Zohidovning **"O'lmas xalq dahosi" (5–26–betlar)**, **Hamid Sulaymonning "Navoiy asarlarining manbalari va nashri haqida"** (27 – 56 – betlar) sarlavhali maqolalari berilgan.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. **Birinchi-oltinchi** tomlar. "Fan", Toshkent – 1987 – 1990. Mazkur nashrda ulug' shoirning dastlabki rasmiy devonlari – **"Badoyi' ul – bidoya"** va **"Navodir un – nihoya"** alohida kitoblar (1 – 2 – tomlar) holida nashr qilingan. Biroq ulug' shoirning o'zi "Xazoyin ul – maoniy"ni tartib berganda dastlabki devonlaridan joy olgan she'rlarini ham yig'ma devonlari tarkibiga kiritgan. Shuning uchun MATning 1,2,3 – tomlarida bir she'rning takroriy uchrashi sabablarini ana o'sha hodisadan izlamoq lozim.

6. Alisher Navoiy. Ayyomi visol o'ldi yana. Yangi topilgan g'azallar. G'.G'ulom nomidagi ASN, Toshkent – 1995.

7. A. Hayitmetov. Shoirning yangi topilgan muxammasi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1996, 19 yanvar, 3 – s. (3340).

8. MATning birinchi jildida e'lon qilingan rejaga ko'ra ulug' shoirning fors – tojik tilidagi asarlari shu nashrning VII – VIII tomlaridan (6 – bet) o'rin olishi lozim edi. Biroq ijodiy ish jarayonida mazkur reja tahrirga uchraydi va MATning **18, 19, 20 – tomlarida** ("Fan", Toshkent – 2002 – 2003 yillar) beriladi. Biroq shoirning o'zbek tilidagi she'rlari kabi uning fors – tojik tilida bunyod etilgan barcha badiiy yaratmalari ham MATdan lugal holida joy olgan deb bo'lmaydi. Fikrimiz muallaq qolmasin uchun "Xamsatul – mutahayyirin"dagi quyidagi parchani keltirish va unga munosabat bildirishni lozim topdik: ulug' shoir "Sittai zaruriya" qasidalari turkumiga kiruvchi "Tuhfatul – Alkor"ning yaratilishi tarixi xususida mushohada yuritar ekan yozadi: **"...Podshoh (Sulton Husayn Boyqaro Mirzo – R.V) chun**

o'qub tahsin qildilar. Podshohning kamoli vus'ati mashrab va nihoyati husni xulqlaridin bu faqir (Alisher Navoiy—R.V) mahjub bo'lub, xayolga keldikim, bu qasidag'a yana bir tatabbu' qilib, darveshlar maddohlig'ini qilib, ammo hukumat tavrini ta'yin qililmay, podshohning muborak otig'a tugatilgay. Bu matla' xotiring'a kelib erdikim, nazm:

Xirqay pur bax'ya k—ahli faqrro k—on dar bar ast,  
Bar firozi olami ma'ni sipehru axtar ast.

Chun burung'i matla' aytilg'onda alar hazratig'a (Nuriddin Abdurahmon Jomiyg'a—R.V) yiborib, niyoz yuzidin arz qilib, tatabbu' qilurg'a istijoza qilib erdim va ishorat bo'lg'ondin so'ngra aytilib erdi" (MAT. 15—jild, "Fan", Toshkent—1999, 36—37—betlar). Biz varaqlashga ulgurganimiz Alisher Navoiy asarlari nashrlarida, jumladan, MATda ham ushbu qasida uchramaydi. "Tuhfatul—afkor"ning 99 baytdan iborat ekanligi nazarda tutilsa, shu yo'lda va unga tatabbu' tarzida "aytilib er"kan, faqrlikni ulug'lovchi bu qasidaning ham o'sha hajmdan (99 bayt, 198 misradan) kam emasligi ayonlashib qoladi. Ravshan bo'layotirki, MAT ham nomiga munosib bo'lmog'i va yangidan nashr qilinmog'i lozim. Zora, o'shanda nashr sifatiga (ham poligrafiya va ham g'oyaviy nuqtai nazardan) e'tibor qilinmas hamda Alisher Navoiy asarlari uchun gazeta qog'ozi ravu ko'rilmay (axir, bizni dunyoviy kengliklarga chiqargan yagona Navoiymiz emas—mi?), degan umidim bor. Inshoalloh!

9. Alisher Navoiy. Ayyomi visol o'ldi yana. 47—bet.

10. O'sha kitob. 48—bet.



## "TO TUZDI NAVOIY OYATI ISHQ..."

Zamon hukmroni Sulton Husayn Boyqaro Mirzo xohishi va iltimosi bilan "Badoiy' ul – bidoya" devonini tartib bergan Alisher Navoiy unga kattagina "Debocha" yozgan. Mazkur muqaddima ancha mufassal bo'lib, unda XV asr 60 – 70 – yillaridagi Xuroson davlatining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – tarixiy vaziyati, taxtning Abu Said Mirzodan Sulton Husayn Boyqaroga o'tishi, shoirning o'z hasbi holiga doir muhim ahamiyatga molik ma'lumotlar aksini topgan.<sup>1</sup> Qayd etganimiz jihatlardan so'ng ulug' shoir devon tartib berish an'anasiga daxl qilarkan, bir muncha tanqidiy mulohazalarini ham o'rtaga tashlaydi. Jumladan, o'sha "Debocha"da o'qiymiz: **"...Avval budurkim, har kishikim, devon tartib qilibdurur, o'ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi'dur va ulus kitobatida shoyi', to'rt harfg'a taarruz qilmaydururlar"**. Arab alifbosiga forslarning to'rtta harf (p, ch, j, (ko'j), g) qo'shganligi ma'lum. Arab yozuvi amaliyotidagi shakllarga ilova tarzida nuqta va belgilar qo'shish orqali hosil qilingan o'sha harflarga hamma shoirlarning ham g'azal oytmaganligi (masalan: o'p, aylading–radifli) Alisher Navoiy tanqidiga sabab bo'lgan va u o'z ijodiy tajribasida ayni bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Ammo ulug' shoirning yuqorida keltirganimiz tanqidida muayyan noaniqlik borligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Ya'ni Alisher Navoiy turkigo'y shoirlarning devonlarini nazarda tutadi – mi yoxud uning o'sha ta'kidi fors – tojik adabiyotiga ham daxldor – mi? Masalaning bu jihati oydinlashtirishga muhtojday ko'rinadi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy nechog'lik katta iste'dod sohibi bo'lmasin, uning ham inson sifatida muayyan imkoniyatlarga ega ekanligini nazarda tutsak, tanqidning ham nisbiy ahamiyat kasb etishi ayonlashib qoladi. Yoki ulug' shoir o'zi nazardan o'tkazishga ulgurgan devonlarda zikri o'tgan harflarga aytilgan she'rlarni uchratmagan bo'lishi mumkin, desak, to'g'riroq bo'lardi... "Debocha"da o'rtaga qo'yilgan ikkinchi masala – devonlardan joy olgan g'azallarning uslubiga tegishlidir. Ulug' shoirga mutolaasi nasib etgan va harflar sirasida joylashtirilgan g'azallar orasida **"uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilinmagan"**ligi ma'qul kelmaydi. Ana o'sha devonlarda yakpora (musalsal, voqeaband)

gʻazallarning taqchilligi, xilma-xil janrlar namunalarining uchramasligi Alisher Navoiy eʼtiroziga sabab boʻlgan. Ulugʻ shoirning muhim ahamiyatga molik yana bir eʼtirofini alohida qayd qilishni istardik. Yaʼni har qanday ijodkor tajribasi, ruhiyati, tanlangan mavzuga munosabati (va hokazo) kabi omillarga qarab, bunyod etilajak badiiy yaratmalarining turfa rangda boʻlishi ham mumkin. Alisher Navoiyning yuqorida biz taʼkid qilganimiz mavzuga doir mulohazalari uning quyidagi satrlarida oʻzining goʻzal badiiy ifodasini topgan:

**Gul boʻlsa, tikan dogʻi boʻlur boʻstonda,  
Dur boʻlsa, sadaf dogʻi boʻlur ummonda.  
Suhr boʻlsa, xummor ham boʻlur davronda,  
Ayb aylama, soda bayt bu devonda...**

“Yana bir bukim, goʻyiyo baʼzi el ashʼor tahsilidin va devon takmilidin gʻaraz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol taʼrifidin oʻzga nima anglamaydururlar. Devon topilgʻaykim, anda maʼrifatomiz bir gʻazal topilmagʻay va gʻazal boʻlgʻaykim, anda mavʼizatangiz bir bayt boʻlmagʻay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyiʼ mashaqqat tortilgʻon boʻlgʻay. Ul jihatdin bu devonda hamdu naʼt va mavʼizadin boshqa har shoʻrangiz gʻazaldinkim, istimoʻi mahvashlargʻa mujibi sarkashlik va gʻamkashlargʻa boisi mushavvashliq boʻlgʻay, biror — ikkioror nasihatoro va mavʼizatoso bayt irtikob qilindikim, alarning lamʼayi ruxsori iffat burqaʼidin koʻp tashqari lomiʼ boʻlmagʻay...”. Keltirilgan iqtibosda gʻoyal muhim mavzu qalamga olinadi. Aniqrogʻi, ulugʻ shoir badiiy adabiyotning ijtimoiy va tarbiyaviy mohiyatiga alohida eʼtibor qaratadi. Maʼshuqa, uning husnu jamoli, xolu xatti, xullas, zohiriy belgilarini maqtash bilan **“xud asru behuda zaxmat va zoyiʼ mashaqqat tortilgʻon bulgʻay”**, — deydi ulugʻ shoir. Parchada alohida urgʻu bilan aytilayotgan **“maʼrifatomiz”** (bilimga, tanishga (Allohni), bilishga undash), **“mavʼizatangiz”** (vaʼz, nasihat, oʻgitga daʼvat etuvchi)dan murod esa badiiy soʻz sanʼatining tarbiyaviy tarafini mustahkamlashga eʼtibor qaratishdan iboratdir. Iqtibosda yana bir jihat ham kitobxonning muhokamasiga qoʻyiladi: devonda **“Hamd — u naʼt”** — Alloh va uning suyuqli rasuli Muhammad Mustafo madhini qiluvchi gʻazal

yoxud baytlarning bo'lishi zarur vazifalardan biri sifatida o'rtaga qo'yiladi.

Alqissa, ma'rifat, mav'iza, hamd, na'tlardan kuzatilgan bosh muddao Yaratgan qodir egam, sarvari koinot Muhammad alayhissalomning ibrati orqali she'rxonni fazlu fozillik olamiga boshlash, uning xulq-atvorida komillik alomatlarini shakllantirishdan iborat ekanligi ayonlashib qoladi. Lo'nda tafsiloti berilgan javharlar esa ishq bag'rida makon tutsa, nuran a'lo nurdir. Bizning bu mulohazalarimiz bir tomonlama qarashdarga ham olib kelmasligi lozim. Etakchi mayli haqiqiy ishq tarafida bo'lgan Alisher Navoiy majoziy muhabbatni mutlaqo inkor etmaydi. Yo'q, aslo unday emas. Majoziylikning iztirob va poklanishlar tufayli haqiqiy ishq maqomiga ko'tarilishi, orif-oshiqning nurli qiyofasi ulug' shoirming badiiy ijod oldida qo'yadigan tayanch talabi hisoblanadi. Shundan bo'lsa kerak, navoiyyona misralarda ishq tasvirida omextalik (qorishqlik) hamisha ustun turadi.

Biz bu o'rinda Alisher Navoiyning o'z xulosalariga nechog'lik amal qilganligini "Badoyi' ul-bidoya"da kelgan ayrim g'azallar tahlili misolida ko'rsatishga urinib ko'ramiz.

Ulug' shoir she'riyatida ishq qamrovli so'z sifatida ko'zga tashlanadi. She'rda istifoda qilingan turli ishoralar o'sha kalima mohiyatini ochishga, ma'no rishtalarining qay tomonga tortilishini ravshanlashtirishga xizmat qiladi. Yurakka tasalli beradigan bir jihati shundaki, ishq inson umrining tayanch ufqi, uni harakatga keltiruvchi, jismini ozuqa (ham moddiy va ham ma'naviy) bilan ta'min etuvchi bosh qon tomiri sifatida talqin etiladi. Shundan bo'lsa kerak, buyuk mutafakkirning ishq "aralashmagan" misrasi yo'q desa, sira xato bo'lmaydi. Aytilganlar muqtafi nazaridan "Badoyi' ul-bidoya"dagi **ikki yuzu ellik beshinchi g'azal** ahamiyatlidir. Eslatilgan she'rning matlaidayoq ishq tilga olinadi. Yana aniqroq aytilsa, ana o'sha yuksak insoniy tuyg'uga munosabat bayon etiladi. **Alisher Navoiy nigohida ishq-mo'jiza: ishq-gavhar; ishq-inson tomirlarida jo'sh urgan qon; ishq-yashash murodi; ishq-dil quvonchi, ko'zlarning nuri, qalb huzuri; ishq-insonning intilish qutbi...** Yuqorida bayon qilingan mulohazalarimizni quvvatlantirish uchun o'sha g'azalning quyidagi misralarini tahlilga tortib ko'raylik:

**Jilvamu qildi sariq' bo'rkin kiyib ul sarvinoz,  
Yoki chekti shu'la axzar jism ila sham'i tiroz.  
Kuysa majnun ko'nglum ul yuz lam'asidin, tong emon,  
Ne uchunkim aylamas devona o'tdin ihtiroz.  
Ulki ermas ishq pok—u sajda aylar ko'rsa husn,  
O'yladurkim, aylagay fosiq tahoratsiz namoz.**

G'azal prof. Hamid Sulaymon nashrining birinchi tomidan (213—g'azal) joy olgan (232—bet) va ulug' shoir hayotining o'rta davriga mansub, deb ko'rsatiladi. She'r aruz vaznining ramali musammani maqsur shu'basida (foiloto'n foiloto'n foiloto'n foilon) bitilgan.

Ko'chirganimiz g'azal matlaida favqulodda nogahoniy manzaraning nafis tasviri beriladi: sarvqomat va nozli yor sariq qalpoqchasini kiyib, jilva qilganday bo'ldi—mi?! Birinchi misradagi rangga murojaat va badiiyatga rujo' ikkinchi satrda yanada jozibroq ifodasini topadi: Ma'shuqa kiygan nafis ipakdan to'qilgan hamda zebo qilib tikilgan havorang liboslar (ko'ylak va naqshin jiyakli lozimi) yal—yal shu'la sochib, go'yo nozik jismga ham ta'sir o'tkazgan, uning tarovatiga yanada tarovat qo'shgan. Satrdagi **"shu'la"** va **"sham"** ayrimlari tilga olingan go'zalliklarga (mahbuba jamolining nur sochishi) quvvat berish bilan birga, ma'no rishtalarini ma'rifat olamiga ham aloqador qilib qo'yadi. Shuningdek, matladagi mazmun keyingi badda yanada rivojlantiriladi: **"lam'a"** va **"o't"** kabi ishoralar o'sha yo'lda xizmat qiladi; Ma'shuqa yuzining shu'lasidan oshiqning devona (majnun) ko'ngli kuyish darajasiga bormoqda. Biroq oshiq bundan xavotirda emas. Chunki ishq jununiga giriftor bo'lgan kishi bunday holatdan hech qanday tahlikaga tushmaydi...

Uchinchi badda she'r qahramoni ancha hushyor tortadi ishq bobida poklik asosiy mezon. Husnparastlik esa illat hisoblanadi. Zohiriy zebolik izidan tushgan bulhavas oshiqning harakatlari tahoratsiz namoz o'qigan farosatsiz kimsa bilan barobardir.

Ulug' shoir boshqa bir baytda bu boradagi xulosasini yanada oydinroq aytib qo'yadi:

**Quti botin istakim, zohir g'izosi birla tab',  
Bir zamon gar topsa lazzat, bir zamon ko'rmas laziz.**

Ko'rinadiki, parchada murojaat ruhi baland. Uni ko'zdan kechirar ekanmiz, buyuk mutaffakirning kim bilandir munoqashaga kirayotganligi anglashiladi. Savol—javoblar zamirida o'sha "kimdir"ning salobati, buyuk qudratiga shama' qilinadi. Zikri o'tgan zotning zakovati tufayli qimmatbaho javohirotlar dengizlar tubida, muxolif ko'zlardan pinhon saqlanadi. Inson taqdirida o'shanday qimmatga ishq tengdir. Shuning uchun uning makoni **inson jismining ummoni—yurak tubidadir**. Ulug' shoir topqirligi, badiiy so'z san'ati mohiyatini to'g'ri ilg'ashi tufayli baytda ajib bir manzara yaratilgan. Shakl—u mazmun tanosubi vujudga keladi. Rangin topilmalar satrlarga nazokat, dilkashlik baxsh etadi. Hayotiy hodisalar va inson jismidagi tuyg'u yonma—yon qo'yiladi. G'avvos va ummon—uning suv tubiga sho'ng'uvchilarning insonning to'ymas ko'zlaridan pinhon poyonsiz sathlardan javohirot topib chiqishi bilan bog'liq ishoralar mumtoz she'riyatda tez—tez ko'zga tashlanadi. Xalqda ayni manzaraga aloqador talay maqollar sayqallanib keladi. Ulug' shoir satrida ham o'shanday ishoraga duch kelamiz. Biroq Alisher Navoiy bor gapni takrorlab qo'ya qolmagan. Balki, eslatilgan an'anaviy hayotiy lavhaning asosini oshkor qilish yo'lidan borgan: durni dengiz tubida hosil qilish va maxfiy tutish yolg'iz ikki olam podshohi—Allohninggina haddiga sig'adi. Uning kashfiyotidir. Ilohiy—islomiy ta'limotga binoan, inson ham o'sha qudratli Qodirning yaratmasidir. Hodisalarni yonma—yon qo'yish san'atiga tayangan ulug' shoir inson dili va ummon, dur va ishqni yuzlashtiradi. Ulardan biri o'xshatish va ikkinchisi o'xshatilmishdir. Baytda bunday teran mushohadalarni talab qiluvchi tashbehning joylashtirilishi tasodifiy ham emas. Sababi, ulug' shoir g'oyaviy niyatini o'quvchisiga "chaynab" berishni istamaydi. Balki, she'rxonni "ishlash"ga—fikrlashga undaydi. Misralarni tashkil qilgan tagdor so'zu ishoralar ayni ana o'sha bosh maqsad yo'lida xizmat qiladi. Ikkilamchi, misralarda qo'llangan majoziy ma'no kasb etuvchi so'z torlarining mo'jiziy Qudratga ulanishi ham bejiz emas. O'tmishdosh va muosirlari singari Alisher Navoiy kalomining ibtidosida ham Allohning yodi turadi. Ulug' shoir Uni takror va takror sharaflashdan, Unga sig'inishdan tolmaydi. Aksincha, shunday qilishni qalb amri biladi. Shu o'rinda yana bir mulohazani bayon etmoq ziyon keltirmaydi. Alisher Navoiyning Allohga, islomga munosabat va murojaati sidqiy, xurofot, bid'at,

soxtakorlik va umidvorlikdan mutlaqo xolidir. Hassos shoirning har bir mulohaza – yu xulosasi o'zining mustahkam tag zaminiga ega. Ularni parchalash esa imkondan tashqari. Yuqoridagi o'lchab aytilgan fikrlar, ayni zamonda, shariati islomiya chashmasidan ozuqa oladi, unga tayanadi. Aytilganlar Alloh, ishq va so'zga ham tegishlidir. Mushohadamizni muallaqlikdan xalos qilmoq niyatida yana "Badoyi' ul – bidoya" debochasiga murojaat etmoq pand bermaydi, deb o'ylaymiz. Zikri o'tgan manbaning dastlabki jumlasini nazardan o'tkazamiz: **"Fasohat devonining g'azalsaroylari tab' maxzanidin sho'rida hol oshiqlar xirmani jonig'a o't solg'udek bir otashin la'l nazm silkiga torta olmag'aylar, agar so'z debochasin ul sonii javohir hamdi bila murassa' qilmag'aylarkim, ishq ahlin olmosi lison sharafi va gavhari bayon lutfi bila soyir insonning durratul-toji qildi"**. "Badoyi' ul – bidoya" "Debocha"sida qayd qilingan tamoyillar kitob sahifalaridan, nazariy mushohadadan adabiy ijod tajribasiga ko'chib, amaliy tasdig'ini topgan. Muhimi, o'sha qaydlar Alisher Navoiyning barcha g'azaliyotida ("Xazoyin ul – maoniy" tarkibidagi 2600 ziyod g'azallarda) o'zidan darak berib turadi. Jumladan, "Badoyi' ul – bidoya"dan o'rin olgan o'n ettinchi g'azalni olib ko'raylik:

**Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro,  
Bul'ajab holim erur afsona har mahfil aro.  
Muztar erdim hajridin, yor etgan ermish tarki mehr,  
Mushkuledur ishqdin har dam manga mushkil aro.  
Aqlu sabru hush itib, ko'nglumda qoldi dog'lar,  
Karvon ko'chsa qolur o'tlar eru manzil aro.  
O'qlaring mujgon kibi giryon ko'zum atrofida,  
Rost bordur ul qamishliqkim bo'lur sohil aro.  
Kirpiging tushgan ko'ngul ichra xayoling, ey pari,  
Go'yiyo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro.  
Qullug'ung dog'idin o'lsam istamon ozodlik,  
Kim bu tamg'odur nishone mudbiru muqbil aro.  
Ko'yung-o'q istar Navoiy, nasya jannat ahli zuhd,  
Muncha-o'q bo'lg'ay tafovut olimu johil aro.**

Professor Hamid Sulaymon tuzgan ilmiy – tanqidiy matnda mazkur g'azal ulug' shoir hayotining vasat (o'рта yoshi



she'riyati, 1476—1486 yillar) davriga kiritilgan. Aruz vaznining **ramali musammani mahzuf** (foiloto'n foiloto'n foiloto'n foilo'n) bahrida yozilgan g'azal etti baytlidir. Oldindan aytib qo'yaylik, ulug' shoir g'azaliyotida hamisha ham Alloh ochiq—oydin tilga olinmaydi. Ammo misralardagi nozik ishoralar she'rxon tafakkurini Yaratganning mo'jiziy dargohiga boshlaydi. Keltirilgan iqtibosda ham o'shanday holat hukmrondir. Ushbu g'azal tuzilishi jihatidan yakpora (musalsal, voqeaband, tadrij san'ati asosida hosil qilingan), mavzuiga ko'ra oshiqona—orifonadir. Matla' g'ayri odatiy shiddat, shikoyat bilan ibtido topadi: she'r qahramoni—oshiq o'zining rasvoyu devonaligi, u haqdagi turfa gaplarning (mish—mishlarning) davralarning asosiy mavzuiga aylanganidan shikoyat qiladi. Birinchi banddagi bunday manzara har qanday she'rxon diqqatini o'ziga tortadi va uni navbatdagi bandlar mutolaasiga chorlaydi. Ulug' shoir tasvirda mahorat ko'rsatadi va matladagi shikoyatining mohiyatini ocha boradi: ishu oshiqlik bag'oyat mushkul savdo. Ayniqsa, hijron azoblari va ma'shuqaning bemehrligiga bardosh qilish qiyin. Oshiqning **"devonayu rasvoligi"**ga esa ana o'shalar sababchidir. Surunkali davom qiladigan azobu sinovlardan oshiq **"aqlu hushu sabri"**ni yo'qotib bo'lgan. Uning qalbida o'sha asoratning qoldirgan parcha—parcha dog'lari ko'zga tashlanadi. Uchinchi baytda Alisher Navoiy uslubiga xos yana bir fazilat yorqin ko'zga tashlanadi: O'xshatish va o'xshatilmishlarni hayotiy lavhalardan tanlash; oshiq bag'ridagi dog'larning maysazorga qo'ngan karvondan qolgan parcha—parcha payxonlikka qiyoslanishida o'shanday mayl yorqin namoyon bo'ladi. G'azalning to'rtinchi bayti ham ma'shuqa qiyofasi belgilari va tabiat manzaralari tasvirining yonma—yon tutilishi asosida qurilgan: Ma'shuqaning kamon o'qlarini xotirga keltiruvchi mujgonlari oshiq ko'z yoshlariga sabab hisoblanadi. Tabiiyki, ko'zda yosh halqalansa, kipriklarning ko'rinishida o'zgarish (namiqqanlik) vujudga keladi. Navoiyona topqirlik tufayli satrdan ana o'sha manzaraning munosib o'xshatilmishi o'rin olgan. Ulug' shoir sohilda (daryo, ko'l, kanal va hokazo) tikka o'sgan namiqqan (aniqrog'i, suvdan qongan) qamishlar va ko'z atrofidan joy olgan kipriklar o'rtasida monandlik tuyadi. G'azalning keyingi baytlarida ham hayotiy lavhalarga (quduqqa tashlangan Yusuf, olimu johil o'rtasidagi tafovut—talmeh va tazod san'atlaridir) murojaat ustunlik qiladi. G'azalning oltinchi va ettinchi (maqta')

baytlarida majoziy ishqning haqiqiy muhabbatga o'tish jarayoni oydinroq ko'zga tashlanib qoladi. Qullik azoblari naqadar kuchli bo'lmasin, oshiq ulardan yuz o'girmaydi, ozodlikni qo'msamaydi, zohidlar singari jannatdan joy olish ilinjida sa'yu harakat ko'rsatmaydi. Chunki har bir bandaning baxti — yu baxtsizligi (mudbiru muqbilligi) yolg'iz Yaratgan qodir egam izmidadir...

Alisher Navoiy g'azaliyotida ishqning qorishiq (omexta) tasviri haqida gap ketar ekan, ulug' shoirning aksariyat badiiy yaratmalarida uning o'z jonso'z va nomurod shaxsiy muhabbati ham yorqin izlar qoldirganini esdan chiqarmasligimiz zarur ko'rinadi(10). Keyingi yillarda davriy matbuotda e'lon qilinyotgan ayrim ishlarda shu masalaga ulug' shoirning "o'z shohid"ligi asosida mulohaza yuritish va taxminiy xulosalarni o'rtaga tashlash maylining kuchayib borayotganligi quvonchli holdir. Otaxon navoiyshunos A.Hayitmetovning "Navoiy Mashhadda," "Navoiy nega uylanmagan?" maqolalari ana o'shanday ishlar sirasiga kiradi"(11). Ayni maqolalarda Hirotdan uzoqda yurgan Alisher Navoiy bilan uning sevgilisi o'rtasida o'zaro maktublar yo'llash orqali aloqada bo'lib turilgani qayd qilinadi. Ana shu nuqtai nazardan "Badoyi' ul — bidoya" devoni ham katta qiziqish uyg'otadi. To'plam tarkibidagi o'nlab she'rlarda ma'shuqadan kelgan noma va u uyg'otgan ruhiy jarayonlar haqida ishoralar ketadiki, biz ulardan ikkitasi xususida ixcham mulohaza yuritish bilan cheklanamiz. O'sha g'azallarning matla' va maqtai quyidagichadir:

**Nomasi qo`ynumda, baskim iztirob aylar ko`ngul,  
O`pgali chiqmoqqa go`yokim shitob aylar ko`ngul.  
Ey Navoiy, ochti ko`ksumning tikilgan chokini,  
Nomasi qo`ynumda, baskim iztirob aylar ko`ngul.**

Yana:

**Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko`ngul,  
Kim erur har satri, bal har lafzi marg`ub, ey ko`ngul.  
G`amdin ozod o`ldi xattidin Navoiy, bermasa.  
Begiga qulluqqa xat bo`lg`aymu mahsub, ey ko`ngul?**

Prof.Hamid Sulaymon aniqlagan xronologiyaga binoan har ikkala g'azal ham ulug' shoir hayotining yoshlik yillariga to'g'ri keladi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy

zikri oʻlgan davrda Mashhadida yashamoqda va u ayni baloq at, ishq koʻngilda makon tutgan pallani boshidan kechirmoqda edi. Aruz vaznining **ramali musammani mahzuf** (toilotoʻn foilotoʻn foilotoʻn foiloʻn) shuʻbasida yozilgan mazkur gʻazallarda umumlashina, mavhum maʼshuqaga xos alomatlariga nisbatan aniq bir sevgilining feʼlu atvori, qiyofasi tasviri koʻproq namoyon boʻladi. Toʻgʻri, mazkur gʻazallarda oshiqu maʼshuqalar ruhiy olami, ishq tugʻyoni va iztiroblariga xos umumlashina holatlarning borligini ham inkor qilib boʻlmaydi. Biroq, ayrim nozik ishoralar (**ul musofir mavqeyidin**) sheʼrxon xayolini navqiron Alisher vujud – vujudi bilan suyugan qiz tomonga tortib qoladi. Ikkinchi gʻazalda ham biz qisman aytishga ulguranimiz oʻrinlar koʻzga yaqqol tashlanadi.

Xulosada aytish joiz, Alisher Navoiy gʻazallari ishq asoratining butun murakkabliklarini qamrab olgan, **“maʼrifatomez”**, **“mavʼizaangez”** gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgani, muallif shaxsiy muhabbatiga doir chizgilar ishq majoziy va ishq haqiqiy bagʻrida **“qoʻshilib”** kelganligi bilan eʼtiborga loyiqdir.

## Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik. 1 – tom. Badoyiʼ ul – bidoya. “Fan”, Toshkent – 1987, 11 – 20 – betlar.
2. Oʻsha kitob. 20 – bet.
3. Oʻsha kitob. 21 – bet.
4. Oʻsha kitob. 22 – 24 – bet.
5. Oʻsha kitob. 24 – 25 – bet.
6. Oʻsha kitob. 21 – bet.
7. Oʻsha kitob. 215 – bet.
8. Oʻsha kitob. 119 – bet.
9. Oʻsha kitob. 11 – bet.
10. Oʻsha kitob. 42 – bet.
11. A. Hayitmetov. Navoiy Mashhadida. “Sino”. Eron Islom Respublikasining Oʻzbekistondagi Elchixonasi huzuridagi madaniyat vakolatxonasining nashri. 2002. Kuz. 7 – son, 18 – 19 – betlar; Yana. Navoiy nega uylanmagan?. “Guliston”, 2004, 1 – son, 24 – 26 – betlar.
12. Alisher Navoiy. Xazoyin ul – maoniy. Toʻrt tomlik. 3 –

tom. "Fan", Toshkent – 1960, 28 – bet

13. Alisher Navoiy. MAT. 1 – jild, 330 – bet.

14. Alisher Navoiy. Xazoyin ul – maoniy. 4 tomlik. 1 – tom.  
390 – 391 va 782, 790 – betlar.



# MEHR KO'RSATGAN MUHABBAT TOPADI

(Xotima o'rnida)

Alisher Navoiy adabiy tajribasida Sharq xalqlari adabiyotining juda ko'p yirik namoyandalarini o'ziga ustoz sifatida qabul qildi. Ularga yuksak muhabbat nazari bilan qarab, asarlariga tatabbu'—javobiyalar yaratdi. Navoiydan keyingi davrda shu maqomga uning o'zi ko'tarildi. Asrlar davomida fors — tojik, o'zbek, turkman, ozarbayjon va yana ko'plab qardosh xalqlarning qalam ahli ulug' Navoiy ijod maktabidan saboq oldilar, uning asarlariga tatabbu'—javobiyalar bitdilar. Shu fikrni quvvatlash uchun uncha mashhur bo'lmagan o'zbek shoiri Kulfatning ulug' shoirga baland sadoqatini ular bittadan she'rlarining qiyosiy tahlili misolida muayyan mulohazalarni o'rtaga qo'yishga harakat qilamiz...

Alisher Navoiy ijodida bo'lgani kabi Kulfat adabiy tajribasida ham g'azal erka janr hisoblanadi. Ular bisotidan tanlangan quyidagi g'azallarning qiyosiy tahlili misolida biz buni yorqin ko'ra olamiz. Jumladan, Alisher Navoiyning "Favoyid ul—kibar" devonidagi 553—g'azal (Hamid Sulaymon nashri. IV jild, 557—bet) matnini ko'zdan kechiraylik:

**Bir kichik yoshlig' nigori topmisham nozukkina,  
Sekreturda tavsanin maydon aro chobukkina.  
Gah vafo, gah nozu gah afsun bila o'zginasin,  
Ko'rguzub har lahza dilbarlig'da bir turlukkina.  
Javr ila tahdidi bedillarg'a bori ching'ina,  
Mehr ila har va'dakim qildi pari o'trukkina.  
Osrul yolg'on va'dasidin kuymish erdi jong'inam,  
Ongdibon bir kecha tushti ilgima o'srukkina.  
Istadim bo'ynin quchib, yuzginasidin o'pkamen,  
Iztirob aylab talashti, bor emish kuchlukkina.  
Yuz o'parga qo'ymadi, ilgin dedim borin o'pay,  
Tashlabon yumruqqina, qildi ko'zumni ko'kkina.  
Har ne deding bor edi yolg'ong'ina boshtin ayog',  
Ey Navoiy, muncha yolg'on degucha ul shukkina.**

Kulfatning Alisher Navoiy g'azallaridan biriga tatabbu'—

javobiya tavrda yaratilgan quyidagi misralarini ko'chirish va qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

**Firoqing ichra har tun sahar anjum sanaydurman,  
Bale, o'zni ovutmoq birla g'amdin ko'zga qo'zg'alaydurman.  
Ichib sen bodani la'ling so'rub may nash'asi birlan,  
Etib og'zimga jom, halqum quribman lab yalaydurman.  
Tutashsa ishq o'ti ko'nglimni kuydirmoqqa har soat,  
Zabona urmog'a ul o't qurq jismim qalaydurman.  
Aningdek o'yla bexudmenki, ko'yin orzu kilsam,  
Yururga holatim yo'q, har tarafga aldaraydurman.  
Namumkin bori ishqingdin xalos o'lmoqligim, jono,  
Ko'ngul har soda jonu asru nodonman, kulaydurman.  
Magar til ochti zohid ta'na ishq atvorin,  
Necha hazyon, deyr ul ablahu men anglamaydurmen.  
Javob o'lmish Navoiyning so'zina bul g'azal, Kulfat,  
Meni bedil sanga jon o'ynamoq birlan yaraydurman**

(Kulfat. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Fan" — 1987, 228 — bet).

Alisher Navoiy g'azali singari Kulfatning she'ri ham etti baytlidir.\* Ulug' shoirning o'zi ta'kid qilgani singari uning aksariyat g'azallari etti, to'qqiz, o'n bir baytdan tarkib topadi. Kulfat ham masalaning eslatilgan jihatini e'tiborga olgan ko'rinadi. Uning chop etilgan ikki yuz ellikdan ortiq g'azallarining ko'pchilik qismi etti, ba'zan sakkiz, to'qqiz va o'n bir baytlidir. Kulfatning ta'kid etilgan miqdordagi g'azallari o'rtasida onda — sonda o'n ikki baytlilari ham uchrab qoladi. G'azalning janriy shartlaridan biri taxallusdir. Alisher Navoiy o'z ijodiy tajribasida zikri o'tgan shartga deyarli qat'iy rioya qiladi.

---

\*"Кулфат", "Кулфатий" тахаллуслари билан қалам тебратган шоирнинг тулиқ исми шарифи, туғилган ва вафот этган йиллари маълум эмас. У XVIII асрнинг охири ва XIX юз йилликнинг биринчи ярмида Тошкент мувозанатида яшаб фаолият кўрсатган. Шоир тўпламини нашрга тайёрлаган филология фанлари доктори Мавжуда Ҳамидованинг шаҳодатига кўра Кулфат Алишер Навоийнинг бир юзу етмишдан зиёд ғазаларига татаббуъ — жавобиялар ёзган. Бу ҳақда яна қаранг: Р.Воҳидов, М.Қосимова. Шоирнинг содиқ издоши. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" ҳафтаномаси. 1987 йил, 20 февраль, 8 (2904 — сон).

Shunday urinish Kulfat she'riyatida ham ko'zga tashlanadi. SHarq g'azaliyotida radifli va radifsiz she'rlar yozish an'anasi bor. Ijod ahli ko'proq radif qo'llashga moyillik ko'rsatgan. Ayni sohada Navoiy va Kulfat she'riyatida jo'rovozlik seziladi. Kulfat adabiy merosida radifli g'azallar ko'proq, radifsizlari kamroq nazarga tashlanadi. An'anaviy g'azalchilikda qofiya bobida shakllangan muayyan tartiblar mavjud. Yoxud g'azalning matlai—birinchi bandi o'zaro ohangdosh (a—a) so'zlardan tarkib topadi. Undan keyingi toq misralar ochiq qolib, juft qatorlar matlaga qofiyalanadi (a—a, b—a, v—a, g—a va h). Sharq mumtoz adabiyotidagi g'azallarning ko'pchilik qismida o'sha tartibning hukmron ekanligi ma'lum. Jumladan, Alisher Navoiy va Kulfatning yuqorida ko'chirilgan g'azallari ham ta'kidlaganimiz tartibda qofiyalangan. Masalan, Alisher Navoiyda "nozukkina", "chobukkina", "turlukkina", "o'trukkina", "usrukkina", "kuchlikkina", "ko'kkina", "shukkina" so'zlari o'zaro qofiyalanadi. Kulfat g'azalida esa "sanaydurman", "qo'zg'alaydurman", "yasaydurman", "qalaydurman", "aldaraydurman", "kulaydurman", "anglamaydurman", "yaraydurman" kabi so'zlar o'zaro ohangdoshlikni ta'min qilgan.

To'g'ri, ayni masalada (qofiyaga rioya qilishda) Sharq mumtoz she'riyatida ba'zi chekinishlarga ham duch kelamiz. Ayrim ijodkorlar mavjud "temir" qonunlarni buzishga harakat qilganlar. Biroq ular chandon ko'p emas Sharq g'azaliyoti tajribasida qo'sh matlali—bandli g'azallar ham uchrab turadi. Bunday g'azallarda dastlabki to'rt satr o'zaro qofiyalangan bo'ladi. Qolgan bayt—bandlarning qofiya tartibi esa yuqorida ko'rsatganimizday an'anaviy tartibda davom etadi. Qo'sh matlali g'azallar yaratish muallifdan badiiy san'atlardan foydalanishda katta mahoratni talab qiladi. Chunki bunday o'rinlarda hamma gap faqat qofiya topishda ham emas. Aslida, matla' topishning o'zi katta san'atdir. G'azal boshida keladigan ana o'sha ikki qatorda hamma narsa she'riy unsurlar o'z joyini topishi shart. Masalaning ikkinchi jihati shakli mazmun tanosubiga tegishlidir. Muallifning matlada ifodasini topgan g'oyaviy niyati g'azalning qolgan satrlarida tadrijiy (asta—sekin va ızchilik bilan) davomini topmog'i lozim. Aniqrog'i g'azalning birinchi bandidagi shu'la uning keyingi baytlarini nurlantirib turadi. "Matla'", "mabda" (nurning chiqish, boshlanish joyi) so'zlarining lug'aviy ma'nosi

ham shuni taqozo qiladi. Gʻazalning yuqoridagi misralaridan yogʻiladigan yogʻdu, samoviy nurning manbai demakdir. Gʻazal matlaiga nisbatan shu soʻzning yaqin va uzoq maʼnolarini ham qoʻllash joiz. Birinchidan, ("yuqoridan"), gʻazalning keyingi baytlari uchun dastlabki bandi bosh—yuqori hisoblanadi. Ikkinchidan, haqiqiy ijodkorlik—Ilohiy neʼmat. Gʻazal esa oʻsha neʼmatning mahsuli. Shunday ekan, matlanning har ikkala (Ilohiy neʼmat va mazmun jihatidan) nurning manbai ekanligi shubha tugʻdirmaydi. Bitta gʻazalda ana shunday baytlardan ikkitasini topish esa ijodkordan qanchalik teran tafakkur va badiiy salohiyat talab qilishini tasavvurga sigʻdirish qiyin emas. Bunday gʻazallar—gʻazali zebi matlaʼ ham deyiladi. Hazrat Alisher Navoiyning anʼanaviy matlaiga singdirilgan ulkan maʼnoni bugungi ayrim "daho"larning semiz qissasidan ham topib boʻlmaydi. Alisher Navoiy gʻazaliyotida qoʻsh matlali gʻazallar anchagina topiladi. Kulfat sheʼriyatida esa ular barmoq bilan sanarlidir. Ayrimlari tilga olingan belgilar oʻzbek gʻazalchiligi tarixida Alisher Navoiy ijodiyotida toʻla takomilini topganligidan dalolat beradi. Keyingi davr qalamkashlari, jumladan, Kulfat ham oʻsha maktabdan saboq oldi va adabiy tajribasida unga amal qildi. Eʼtibor qilish lozim boʻlgan masalalardan yana biri, gʻazalning qurilishi, tuzilishidir. Sharq mumtoz adabiyotida, shuningdek, Alisher Navoiy sheʼriyatida ayni sohaga doir ikki katta yoʻnalish nazarga tashlanadi. Qadimgi sheʼrshunoslikka doir asarlarga tayangan bugungi ilmiy adabiyotlarda ular "parokanda" va "yakpora" gʻazallar tarzida tasnif etiladi. Parokanda gʻazallarda matlada oʻrtaga qoʻyilgan etakchi mazmundan maʼlum miqdorda chëkinish, mavzu xilma—xilligiga intilish imkoniyati bor. Barcha tasniflarda boʻlganidek, bu oʻrinda ham nisbiylik qonunlari amal qiladi. Oʻzi ixcham asar boʻlgan gʻazalda parokandalik—sochilish, yoyilib mushohada yuritishning imkoni yoʻqligi ayon. Unda asosiy yuk ramzlar, ishoralar elkasiga tushadi. Shoir kichik bir shamaʼ bilan yuragini zirqirratgan dardini ifodalashga erishadi. Koʻrinadiki, parokanda gʻazallar yaratish ham ijod ahlidan ulkan masʼuliyat va mahorat kutadi. Alisher Navoiyning maktabiga ixlos qoʻygan Kulfat yoqimli parokanda gʻazallar meros qoldirishga muyassar boʻldi. Ammo shoirning yuqorida koʻchirganimiz gʻazalini bu turkumga kiritib boʻlmaydi. Chunki unda yakporalik mayli baland. Bunday gʻazallarga nisbatan "voqeaband", "tadrijli", "musalsal" kabi istilohlar ham qoʻllaniladi. Masalaning



bunday tus olishi tub mohiyatni o'zgartira olmaydi, albatta. Chunki yuqorida sanalgan atamalarda ma'nodoshlik mavjud. Musalsal—ma'shuqaning sochiga nisbatan ham ishlatiladi. Musalsal soch—jingalak, zanjir xalqalarini eslatuvchi uzun, xushbo'y, to's qora gisudir. G'azal qurilishi ham o'sha mohiyatni eslatadi. So'zning lug'atlarda berilgan "bir—biriga zanjirga o'xshab ulangan, keti uzilmas darajada siralangan, zanjir shaklidagi" kabi talqinlari ham bizning foydamizga xizmat qiladi. Zanjir bir—biriga jips ulangan xalqalardan hosil bo'ladi. Musalsal g'azallarda ham shu xususiyat kuzatiladi. Matla' zanjirning bosh, keyingi misralari uning navbatdagi halqalaridir. Birinchi bandda o'quvchi hukmiga havola qilingan maqsad—muddao keyingi bandlarda ketma—ketlik bilan davom ettiriladi. Alisher Navoiyning yuqorida keltirganimiz g'azalida xuddi ana shu xususiyat yorqin seziladi. Matlada nozukkina va o'ziga yarashqli chaqqongina mahbuba haqida xabar beriladi. G'azalning navbatdagi misralarida ana o'sha "chobukkina" mahbubaning tashqi qiyofasi, nozu istig'nolari, jabru jafolari—murakkab ruhiy—jismoniy dunyosi muayyan ketma—ketlikda badiiy ifodasini topadi. Xuddi shunday gapni Kulfat she'riga nisbatan ham aytish mumkin. Unda hijron azoblarida qolgan oshiqning ma'shuqa sifatleri haqidagi taassuroti o'zining (oshiqning) ichki ruhiy holati ma'lum izchillikda beriladi. Aytilganlar Kulfat g'azalining voqeabandligini ta'min qilgan. Biroq, Alisher Navoiy talqinidagi she'r qahramoni bilan Kulfat g'azalida harakat qiladigan oshiqni bir qatorda qo'yib bo'lmaydi. Ulug' o'zbek shoiri tafakkur gulshanidan nur emgan oshiqning yurish—turishi, fikrlashi, masalaga munosabati, ishqu oshiqlikka qarashi juda baland. U umumbashariy kengliklarda mushohada yuritadi. Aytilganlar nuqtai nazaridan Kulfat qalami yaratgan oshiq—qahramonga baho beradigan bo'lsak, uning tabiatida cheklangan nuqtalarning borligi ochiq namoyon bo'ladi. SHunday gapni javobiya—tatabbuning badiiyati xususida ham aytish mumkin. Ikki g'azalni yonma—yon qo'yib mutolaa qilgan kitobxon ayrimlari aytilgan mulohazalarimizga qanoat hosil qiladi...


Ikki og'iz so'z ko'chirilgan g'azallarning g'oyaviy mazmuni xususida. SHarq mumtoz adabiyotida yaratilgan g'azallarning bu jihatdan ham muhokamaga qo'yilgan tasniflari bor. She'rshunoslikka doir mumtoz asarlar, Eron adabiyotshunoslari xulosalariga tayangan adib va olim Maqsud Shayxzoda Alisher

Navoiy gʻazallariga nisbatan "orifona, oshiqona, rindona, qalandarona gʻazallar" kabi tasniflarni qoʻllaydi. Aytish lozim, bunday joʻngina guruhlashtirish ming yillar davomida sheʼriyatning erka va keng ommalashgan janri sifatida teran ildiz otgan gʻazalchilikning barcha xususiyatlarini oʻzida aks ettira olgan emas, albatta. Shunday gapni gʻazaldagi ishq talqiniga nisbatan ham qoʻllash mumkin. Yaʼni aksariyat hollarda gʻazallarda kuylangan ishqni "ilohiy ishq" yoxud "ishqi majoziy" deb qoʻya qolinadi. Holbuki, bunday xulosa gʻazalda ifodalangan mohiyatni tub – tubidan ravshan ochib bera olmaydi. Bu oʻrindagi tasnif ham nisbiy tushunchadir. Aslida mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarida qorishiqli tasvir kuchli. U yoki bu sheʼrda aksini topgan ishqni toʻla farqlashni tasavvurga sigʻdirib boʻlmaydi. Chunki misralardagi qaysidir belgi voqealarni yorga bogʻlasa; boshqalari samoga aloqador qilib qoʻyadi. Aksariyat hollarda ular yonma – yon yashaydi. Qaysi qanotning baland kelishi, oʻsha misralarga murojaat qilgan nazm muxlisining didi, saviya va gʻoyaviy niyatiga bogʻliq. Oʻshanday misralarda eʼtiqodi ustun kitobxon ilohiy muhabbatni tuysa, hayotiy ishq shaydosi oshiq esa maʼshuqasi qiyofasi va qiliqlarini koʻrib zavqlanadi. Zikri oʻtgan murakkab jarayonlar shoir Kulfatning gʻazallari uchun ham begona emas. Alisher Navoiy gʻazaliyotida qiyomiga etgan fazilatlar barcha izdoshlar kabi Kulfatiy sheʼriyatiga ham rang bergan...

Ustoz Maqsud Shayxzoda iboralari bilan aytganda, sheʼriy aslahalar – tasviriy vositalar, timsollar ham barcha davrlar adabiyoti uchun birday xizmat qilib keldi. Anʼanaviylikning ana oʻsha notakror jilolari Kulfat sheʼriyati, jumladan, yuqorida koʻchirganimiz gʻazali uchun ham toʻla tegishlidir. Yaʼni sarv – qad, hilol – qosh, mehr, quyosh, toʻlinoy – yuz kabilar koʻhna sheʼriyatimizning qadimiy yoʻldoshlari hisoblanadi. Har bir ijodkor, inchunin, Alisher Navoiy ularning ochilmagan qirralarini kashf etdi. Oʻsha darsxonasi keng maktab saboqlarining shirin mevalari Kulfat gʻazaliyotiga ham lazzat bagʻishladi...

Xulosa shuki, asrlar davomida ulugʻ Navoiyga izdoshlik nodir anʼana sifatida amal qildi. Oʻsha sheʼriyat boʻstoniga rujuʼ qilgan har bir qalamkash esa oʻz didi, badiiy saviyasi, gʻoyaviy niyatiga mos gul terishga muyassar boʻldi. Ayni jihatlaridan qatʼi nazar, oʻziga qadar bunyod yetilgan adabiyot, uning zukko namoyandalariga mehr – u sadoqat koʻrsatgan Alisher Navoiy,

shunday yuksak qadrni salkam olti asrdirki, topib kelayotir...  
Muhtaram kitobxon! Siz bilan muloqotimiz ham intilhoqa etdi.  
Sahifalarda ifodasini topgan mulohazalar Sizning qalbingizga  
ro'shnolik olib kirib, Sharq she'riyati, jumladan, Alisher Navoiy  
nazmiy merosiga doir ozgina bo'lsa – da, mehr, quvnoq zavq,  
g'oyaviy – ma'naviy bedorlik uyg'otsa, muallifning murodi hosil  
bo'lg'usidir... Sizga ulkan she'riyatimiz ulug' allomalarining  
huzurbaxsh g'azallari muborak bo'lsin!



## MUNDARIJA

Debocha.....	3
Alisher Navoiy dahosiga Mavlono Lutfiy bahosi.....	5
G'azal ichra bir olam.....	11
Ishq – bedavo dard .....	18
Ashkdan ochilgan g'uncha.....	22
Oshiqni devona aylagan gulbadan.....	24
Yog'di o't ustiga qor.....	28
Qiyiqcha bir bahona.....	34
Ishrat mayi iztiroblari.....	37
Yor labi – tiriklik manbayi.....	41
La'l – xom xayollarni pishiruvchi otash. . . . .	44
Tatabbu' – shartli ishora.....	50
Rindi olamso'z she'riyati uyg'otgan lazzat.....	56
Toshni ham titratgan hijron.....	61
Bulbul – nolon, Gul – yoqavayron.....	67
Kofir ko'zlar nedin qizardi?.....	71
"Sittai zaruriya" da tatabbu'.....	76
"Navoiy she'riyatig'a solg'il quloqki" .....	88
To tuzdi Navoiy oyati ishq.....	97
Mehr ko'rsatgan muhabbat topadi (Xotima o'rnida).....	107

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus  
ta'lim vazirligi  
Buxoro davlat universiteti**

**RAHIM JO'RAYEVICH VOHIDOV**

**YOG'DI O'T USTIDA QOR...**  
**(Alisher Navoiy g'azallari tahliliga doir majmua)**

**Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnikaviy kengashi  
tomonidan nashrga (1-bayonnoma, 4.11.05) tavsiya qilingan.**

Muharrir:	Y.Y.Azimov
Tex. muharrir:	I.Y.Yoqubov
Musavvir:	Q.R.To'xsanov
Musahhih:	D.Yo'ldoshyeva
Kompyuter dasturchisi:	N.Rajabova
Operatorlar:	Z. Boboyeva F. Boltayeva

*Bosishga ruxsat etildi 28.10.2005 y.*

*Nashr soni—11—003. Qog'oz bichimi 60x84/ 16*

*Shartli bosma tabog'i 7,25.*

*Buyurtma №1475 Adadi 1000.*

*Bahosi kelishilgan narxda.*

*700129 Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30—uy.*

*MChIU "Zarqalam".*

*"Yoqub Dovud" bosmaxonasida chop etildi.*

*Bosmaxona manzili:*

*Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi, 27—uy.*

